

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMCHILIK VA DIZAYN INSTITUTI**

“LIBOS DIZAYNI” KAFEDRASI

**“KOSTYUM VA UNING BICHIMI TARIXI” fanidan
MA'RUZALAR MATNI**

Bakalavriatning ta'lim yo'nalishlari 5150900 – Dizayn (Libos va gazlamalar) va 5111000 – Kasb ta'limi (5150900 – Dizayn “Libos va gazlamalar)) ixtisosligi talabalari uchun.

Toshkent – 2019

ANNOTATSIYA

“Kostyum va uning bichimi tarixi” fanidan tuzilgan ushbu ma’ruzalar matni namunaviy va ishchi dasturlar asosida ishlab chiqilgan. Respublikamizda badiiy ta’lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutahassis rassom-modeler kadrlar tayyorlash borasida ularning kasbiy xususiyatlarni rivojlantiruvchi, shuningdek, tarixiy davr kostyumini, san’ati va madaniyatini, mato va naqshlarini, kiyim turlarini shakllanishini va bichimlarini o‘rganiladi.

Tuzuvchi: U.M.Xodjaeva - “Libos dizayni” kafedrası dotsenti

Taqrizchilar: U.S.Raxmatullaeva – TTESI, “Kostyum dizayni” kafedrası dotsenti, f.f.n.
F.Z.Ataxanova – MRDI, “Libos dizayni” kafedrası mudiri

Kirish

“Kostyum va uning bichimi tarixi” fanida qadimgi davrdan boshlab shakllanib kelgan va paydo bo‘lgan tarixiy uslublar, turli xalqlarning kostyumlari asrlar aro o‘egarishi ko‘rib chiqiladi. Unda turli millatlarning kostyumi, kiyim turlari, ularni bichimi, kostyumlarga qo‘llanilgan materiallar, naqsh, bezaklari va ularni paydo bo‘lish sabablari o‘rganiladi. Talabalar antik davr kostyumi, Janubiy va Sharqiy Osiyo xalqlari kostyumi, Markaziy Osiyo xalqlari kostyumi, Yevropa xalqlari kostyumi haqida ushbu fan orqali ma’lumotga ega bo‘lishadi. Kostyum tarixi qadimgi dunyo tarixidan va shu kunga qadar bo‘lgan jahon tasviriy san’ati va madaniyati, uslublari, davr kostyumi haqida ma’lumot beradi. “Kostyum tarixi” fani orqali talaba quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, ya’ni kostyumni tashqi ko‘rinishi bo‘yicha, qaysi davrga, ijtimoiy tabaqaga, millatga mansubligi xaqida nazariy bilimga; tarixiy kostyumning tashqi ko‘rinishiga qarab, kiyimning taxminiy bichimi haqida tasavvurga; kostyum tarixi milliy va an’anaviy kostyumni tashkil etuvchi elementlarini tahlil qilib, bu elementlarni yuzaga keltirgan sabablarni tushunish va zamonaviy kostyum yaratganda ijodiy manbaa sifatida qo‘llashni o‘rganadilar. Ma’ruzalar matni tarixiy kostyum va uslub to‘liq o‘zlashtirish qiyosiy tahlil qila olish, davrlarga ajrata olishi, uslubiy o‘ziga xosligini tushuna olishida yordam beradi. Kostyum tarixi fanida tarixiy va milliy kostyumlarni tuzilishiga ta’sir etgan sabablar ko‘rib chiqiladi; tarixiy kostyum uslublari xaqida; tarixiy va milliy kostyumda qo‘llangan badiiy vositalar haqida ma’lumot beradi; tarixiy kostyum bichimini, unda qo‘llangan bezaklar o‘rganiladi.

“Kostyum tarixi”fanining dizayn faoliyatidagi o‘rni nimada deganda, shuni aytish mumkinki dizayner tarixiy kostyumlarni ko‘rinishi, shakli, bichimi, konstruktiv elementlarini o‘rganmay turib, ularni dekorativ bezagi va matosi ranglarini bilmay zamonaviy kostyum yarata olmaydi. Shuning uchun dizayner faoliyatida bu fanni o‘rni va ahamiyati juda kattadir.

Chunki kostyumni tashqi ko‘rinishi bo‘yicha, qaysi davrga, ijtimoiy tabaqaga, millatga ega tegishli ekanligi aniqlay oladigan, tashqi ko‘rinishi bo‘yicha taxminiy bichimini chizish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, kostyum nusxasini chiza olishi va shu asosda yangi g‘oyani ro‘yobga chiqarishi mumkin. Kostyum tarixi fani boshqa mutaxassislik fanlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Ma’ruza mashg‘ulotining mavzulari:

1-MAVZU: Kostyum, moda va uslub. Kiyim kelib chiqishi

(ma’ruza - 2soat).

Reja:

1. Kostyum, moda va uslub, kiyim, so‘zlariga tushuncha
2. Kiyimning kelib chiqishi
3. Kiyimning shakllanishi
4. Kiyimning asosiy turlari

Kostyum— (fransuz tilidan olingan bo‘lib, castume — kiyim, kiyim ko‘rinishi ma’nosiga ega) — bu bir xalqning tabaqalanishi, kiyimning asosiy shakli bo‘lib, u davr haqida xabar beradi. Kostyum — davrning go‘zallik timsolii haqida ma’lumot beradi. Rossiyada (XVIII asr) Pyotr I ning reformalaridan so‘ng, «Kostyum» tushunchasi kirib keldi. Kostyum bizning bugungi hayotimizda: kiyim, aksessuarlar, soch turmaklari, bezaklar, taqinchoqlar, pardoz-andoz buyumlari va oyoq kiyimni o‘z ichiga oladi. Kostyum o‘zligini ochishi uchun u harakatda yoki inson ustida kiyilganida namoyon bo‘ladi.

Moda— (fransuz tilidan olingan bo‘lib mode, lotin tilidan modus — misdor harakat timsoli ma’nosiga ega), bu vaqtinchalik biron bir did, timsolning qandaydir, madaniyatning biron bir javhasida, hayotda yo‘l boshlovchiligidir, yana bu timsol ko‘rinishlarining va shakllarining tez —tez o‘egarishidir.

«Kostyum» va «Kiyim» tushunchalari o‘xshash, ammo ular bir — birlaridan farq qiladilar, shuni bilib olish lozim.

Kostyum — bu ijtimoiy va individual inson haqida harakteristika berib, ya’na insoni estetik didi, tarbiyasi, yoshi va jinsi haqida ma’lumot beradi. Kostyum deganda – o‘z ichiga bosh kiyimni, inson egnidagi ichki va ustki kiyim, oyoq kiyimidan tortib uni to‘ldiruvchi qo‘shimcha buyumlarning jamlamasini tushunishimiz mumkin. Chunki kostyum obrazni shakllantiradi.

Kiyim — bu bizni tashqi muhitdan himoyalaydi. Bir tomonlama bu inson qo‘li bilan yaratilgan material boylik bo‘lib, bizning qandaydir hohishlarimizni, istaklarimizni qondiradi, boshqa tomonlama esa bu dekorativ — amaliy san’atdir, insonni estetik ko‘rinishini ko‘rkamlashtiradi. Kiyimlar turlicha bo‘ladi: ichki kiyim; ustki kiyim; bosh kiyim, poyabzal (oyoq kiyim).

Kiyimning kelib chiqishi. Arxeologik qazilma vaqtida shular ma’lum bo‘ldiki, kiyim 40 — 25 ming yil avval yaralgan, ya’ni insoniyatning eng birinchi paydo bo‘lish vaqtlariga to‘g‘ri keladi. Ancha kechroq esa poyabzal paydo bo‘lgan ekan, chunki u boshqa kostyum elementlariga nisbatan uncha tarqalmagan. Biz kiyimga shunchalik o‘rganib qolganmizki, u hamma vaqt bo‘lganday tuyiladi. Ya’ni uning timsolini tez — tez o‘egaraverganligidan, biz uni eskirishini his qilmaymiz.

Kiyim kelib chiqish tarixi qiziqarli va o‘rgatuvchandir, ammo kiyim har doim ham benuqson bo‘lavermaydi. Kiyim biega xalqlarni urf — odatlarini, yashash sharoitlarini bir davr mobaynida qanday bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Xalqning madaniyati, ma’naviy rivojlanishi va qabila, jamoa turmushi qanday bo‘lganligini bilib olamiz. Kiyim kelib chiqish tarixi qadimgi amaliy san’ati bo‘lmish tikuvchilik san’atiga taqaladi.

Kiyim hayotning muhim qismiga aylandi, shuning uchun u paydo bo‘lishi va mukammallashtirilishi mumkin emas edi. Endi tushunarliyki,

kiyim har doim ham bo'lavermagan. Iqlimlar o'egargan, qabilalar yangi joylarga ko'chishgan va kiyim funksiyalari ham o'egargan.

Shimoliy qutbda, shimolda sovuq, janubda esa aksincha, issiq yoki iliq. Tabiat va ob — havo yangidan yangi o'egarishlarga duchor bo'lib, insoniyatga yangi sovg'alar taqdim etgan, ya'ni qor, yomg'ir, do'l va boshqa tabiat hodisalari. Sovuqdan saqlanish kiyim yaratilishiga eng asosiy turtki bo'ldi.

Ibtidoiy jamoa jamiyatdagi hamma buyum va narsalar insonni sovuqdan himoya qilgan va sovukdan saqlash uchun kerak bo'lgan. Hayvonlar terisi, daraxtning yumshoqroq qismlari va barglari sovukdan saqlagan. Bu buyumlar yoki narsalar insoni umuman, yashashi va saqlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kiyimning paydo bo'lishi, insonni hayot uchun kurashini asosi bo'lgan.

Shuning uchun kiyim odam hayotida, uning tanasini tabiat injiqliklaridan saqlanish vositasiga aylandi.

Kiyim go'zallik va maqsadga muvoffiqlikni o'z ichiga oladi. Kiyim bir tomonlama funksional vazifalarini bajarsa, ya'ni tabiat injiqliklaridan saqlasa, boshqa tomonlama u estetik vazifa, ya'ni inson tashqi ko'rinishini yanada ko'rkamlashtirib, go'zallashtiradi.

Qadim zamonlardan insonlar issiq havo va hashoratlardan saqlanish uchun tanalariga loy, balchiq va moy, yog'lar chaplashgan. Keyinchalik esa tanani bezatish maqsadida ular tanalariga bo'yoqlar, yog'lar va har xil usullar bilan belgilar chizishgan, undan keyin noqulay bo'yoq-chizmalar o'rniga tatuirovkalar qilishadigan bo'lishdi. Saqlanish va himoyalani timsollari sifatida odamlar o'ldirilgan hayvonlar tishlarini, suyaklarini va patlarini taqib yurishgan. Odamlar quloq, burun, lab va yuzni teshib, ramz va tumorlarni taqishgan. Keyinchalik tumor va ramzlar bezaklarga aylandi.

Tanani bo'yash va tatuировka qilish — kiyimning avvalgi ko'rinish, keyin esa u faqatgina estetik funksiyani bajara boshlagan. Toki matodan kiyim paydo bo'lgach, tanani bo'lishi va tatuировka elementlari kostyumda saqlanib qolgan. Keyinchalik bu bezaklar bilan matolar bezatilgan. Masalan, qadimgi keltlarning katak — katak ko'rinishga ega bo'lgan tana tatuировkasi, so'ng SHotlandiya milliy kiyimining o'zagiga aylandi.

Tarixiy kostyumdagi bezaklar yangi ma'noga ega bo'ldi, ya'ni sotsial tabaqalanish paydo bo'ldi. Shunday qilib, biega bezakning uch xili ma'lum; ramziy, estetik va tabaqalanish.

Ularning shakllari murakkablashdi va turlandi:

1) vaqtinchalik tanaga taqiladigan — zirak, bilak uzuk, uzuk va xalqalar;

2) harakatsiz matoga biriktirilgan: bosma rasm, kashta.

Kiyimning primitiv shakllari. Kiyimning asosiy ko'rinishlari.

Odamning hayot tarzi, tanasi birinchi primitiv kiyim shakllarini belgilab berdi: hayvon terilari va o'simlik materiallari. Kiyimning tanada biriktirilishi muammosi yuzaga keladi. Biriktirilish joyi nomiga asoslangan holda kiyim quydagi turlarga bo'linadi: bel kiyim; yelka kiyimi.

Kiyimning asosan turli ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1) burmalangan — kiyimning eng qadimiy turi, u butun tanani qoplaydi, o'rab oladi va belbog', bog'ichlar va to'qa (fibula), tugmalar vositasida maxkamlanadi. (Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim);

2) buklama — kiyimning marakkab turi, mato ikki buklanib yonlari tiqilgan, bosh va qo'llar uchun maxsus teshiklar qoldirilgan (Vizantiya);

3) yaktaksimon — tepadan pastgacha kesimi bor kiyim turi (Kushonlar davlati).

Belbogʻ — kiyimning birinchi koʻrinishi. Keyinchalik belbogʻga biror narsa maxkamlanib qoʻyilgan. Shunday qilib, ishton, shalvar, peshband undan keyin yubka va shimning har xil turlari paydo boʻladi.

Kiyim tayyorlashda ishlatiladigan materiallar. Ibtidoiy odam birinchi kiyimini tayyorlashda daraxtlar yumshoq poʻstlogʻi, tropik oʻsimliklar barglari va tolasidan foydalangan. Kiyim uchun material asosan atrofdagi tabiatdan olingan. Avvalo bunday material yovvoyi hayvonlar terilari boʻlgan. Bizning uzoq ajdodlarimiz suv osti hayvonlarining terisidan kiyim tikishgan. Bu kiyim odam tanasini yogʻingarchilikdan juda yaxshi himoya qilgan. Bunday kiyimni tayyorlashda morj va tyulenlarning suv oʻtkazmaydigan ichaklaridan foydalanilgan. Bu kiyim kapyushonli yomgʻirga qarshi kiyiladiganplashch koʻrinishiga ega boʻlgan. Uzoq Sharqda yaqinda baliq terisidan tiqilgan kiyim topilgan. Bu kiyim bir necha ustunliklarga ega boʻlgan, u issiqlikni yaxshi saqlagan, suv oʻtqazmagan, kuchli sovuqda qotmagan va muz bilan qoplanmagan. Bu kiyim asosan baliqchilar kiyimi boʻlgan. Patdan tayyorlangan kiyim hozirgi koʻngacha etib kelgan. Gaganing «moʻynasi»dan «kamleyka» Xabarovsk muzeyi koʻrgazmasida qoʻyib koʻrsatilgan. Bunday patli kurtka nafaqat yaxshi himoya qilgan, balki juda chiroyli boʻlgan. Patdan tayyorlangan kurtkani kapyushoni ham boʻlgan. Saxalin orolining aholisi kiyim tikishda baliq va qushlar terilaridan foydalanishgan. Shimoliy Amerika va Osiyo qitʻasida «parki» kiyimi juda keng tarqalgan boʻlgan. Ushbu kiyim qushlarning ingichka terisidan tayyorlanib juda issiq boʻlgan.

Tuyalar keng tarqalgan mintaqalar aholisi tuyalar joʻngidan foydalanib jundan mato va kigiz ishlab chiqarishgan.

Uzoq Shimol aholisi it, bugʻu terisi va jungidan kiyim tayyorlashgan. Eramizning birinchi asrida odamlar yovvoyi hayvonlar terisidan kiyim tikishgan. Qadimdan bizning davrgacha turli moʻynali kiyimlar turlarini etkazib qelishgan — telpaklar, poʻstinlar, ishton,

paypoqlar va oyoq kiyimlar. Kechroq qo‘y jungi, o‘simliklar (paxta, zig‘ir, kanop) tolasidan ip yigirish va mato to‘qish boshlangan. Yangi matolar haqida bilimlar tarqaladi, almashish va o‘zlashtirish jarayonlari kengayadi, kiyim tayyorlanish uslublari yaxshilanadi, ishlab chiqarish suratlari o‘sadi.

Inson hayoti va faoliyatida kiyimning ahamiyati beqiyosdir. Kiyim kelib chiqishi sabab, bizning ajdodlarimiz nafaqat issiq regionlarda, balki sayyoramiz shimoliy qismlarda ham yashab, ularni o‘zlashtirishgan. Kiyim tufayli ajdodlarimiz uzoq joylarga safar qilishgan, tabiatni o‘zlashtirishgan. Endi insonni yil maboynida qish va yoz almashishi, iqlim, daryolar, dengizlar, okean to‘siq bo‘la olmagan va to‘xtata olmagan. Kiyim odamni ko‘p kasalliklardan himoya qilgan.

Qadimdan kiyim qismlari — turli elementlardan paydo bo‘lgan. Masalan, oldin englar kiyimning alohida qismdek, bo‘lgan. ishtonlar oyoqlarga alohida kiyilgan va bir- biri bilan tikilmagan.

Kostyum (kostyum) tarixi— moddiy madaniyat tarixining uzluksiz qismidir. Tarixiy kostyum shakllari, ularning rivojlanishi jamiyat moddiy madaniyating rivojlanishi kabi oddiydan murakkablik sari o‘egaradi. Bu holni qo‘ydagilarda ko‘rsa bo‘ladi:

- hilma- xil matolardan foydalanish;
- ranglar jilosning kyengligi;
- umumiy kompozitsiya:
- deqorativ — konstruktiv yechim;
- har xil elementlar qo‘shilishi;
- ko‘p ko‘rinishdagi murakkab timsol yaratish.

Kostyum shakllantirish tarixiy rivojlanish mobaynida murakkablashadi. Bu murakkablikni qo‘ydagilarda ko‘rish mumkin:

- birdaniga kiyiladigan kiyimlarning sonini ko‘payishi;

- murakkab qiyin to‘qimali matolarning qo‘lanilishi;
- yangi bichim paydo bo‘lishi;
- detallar va ularga ishlovning xillarini ko‘payishi.

XX asrga kelib kostyum ko‘rinishi har bir odamning estetik va madaniy dunyo qarashiga bog‘liqdir, ammo kostyumning tarbiyaviy ahamiyati ham juda muhimdir.

Nazorat savollari:

1. Kostyum deb nimaga aytiladi?
2. Libos deb nimaga aytiladi?
3. Kiyim deb nimaga aytiladi?
4. Ibtidoiy odamlarning kelib chikishi?
5. Ibtidoiy kostyum turlarini aytib bering.
6. Tanani bo‘yash turlarini aytib bering.

Antik davr kostyumi

2-MAVZU: Qadimgi Misr kostyumi.

(ma’ruza-2soat)

Reja:

1. Misr ijtimoiy — iqtisodiy va madaniy hayoti.
2. Qadimgi podshohlik (3000 — 2400 y. er av.)
3. Erkaklar kostyumi.
4. Ayollar kostyumi.
5. O‘rta podshohlik (2400—1710 y. er av.)
6. Yangi podshohlik (1580—1090 y. er av.)
7. Fir’avn kostyumi.

1. Misr ijtimoiy — iqtisodiy va madaniy hayoti. Olamdagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri bu Misr sivilizatsiyadir. 3.000 yil davomida

paydo bo‘lib va hech o‘egarmagan, ajoyib madaniyatni meros qoldirgan sivilizatsiyadir. Qadimgi Misr tarixini 3 bosqichga bo‘lishadi:

1. Qadimgi podshohlik (3000 — 2400 y. er av.)—ikki davlatlarning birlashishi.

2. O‘rta podshohlik (2400—1710 y. er av.)— fir‘avn boshqaruvining komiligi davrlari.

3. Yangi podshohlik (1580—1090 y. er av.) — ko‘chmanchi qabilalar hukmronlikdan kutilish davri.

Qadimiy Misr davlati quldorlik davrining eng kuchli podshohligi bo‘lgan. Uning boshida cheksiz hukmronlikka ega bo‘lgan fir‘avn turadi. Qadimgi misrliklar fir‘avnni ilohning yoki hudoning erdagi noibi yoki soyasi deb hisoblashgan.

Qadimgi Misrning aholisi butun bir nechta tabaqaga bo‘lingan:

- quldor zodagonlar;
- shahar aholisi (hunarmandlar va mirzalar);
- ozod dehqonlar — o‘z mehnati bilan ular nafaqat o‘z oilalarini, balki fir‘avnni, mirzalarni, soqchilarni oqishgan. Dehqonlar fir‘avnni g‘aznasiga etishtirgan hosillarining bir qismini topshirishgan;
- qullar.

Misrliklar asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishgan: Bu ish bilan shug‘ullangan odamlar ko‘p ishlashlari lozim bo‘lgan, chunki ariqlar qazish, er qazish va dallalarga suv olib kelish juda qiyin bo‘lgan. Shunday bo‘lsa ham ular hosillarining va qora mollarini ham ma‘lum bir qismlarini g‘aznaga topshirishgan.

Har xil hunarmandlar: to‘kimachilik; kulollik (loydan idishlar va ko‘zalar yasashgan); zargarlik (misrlik zargarlar o‘z taqinchoqlarini tilladan va boshqa qimmatbaho toshlardan qilishgan, ular

tumor va timsollarni ruhlardan saqlanish uchun yasashgan va taqishgan); terichilik (bu hayvonlar terisidan har xil mahsulotlar tikish); oyna yasash hunari.

Qadimgi misrliklar hayoti haqida biz biegacha etib kelgan devorlarga o'yib, chizib qoldirilgan, ko'rsatilgan rasmlar orqali bilimga ega bo'lishimiz mumkin.

Misr davlatining asosiy davlat tuzimiga hos tavsiflar: Misrda hukumat faqatgina fir'avnga tegishli va tug'ma hukumdor — hukmrondir. Vazirlar qarori bilan g'aznachi xalqdan soliqlarni fir'avn saroyidagi g'aznaga yig'adi. Fir'avn doimiy qo'shinga ega bo'lgan.

Xalq hayotida din katta ahamiyatga ega bo'lgan. Din arboblari qohinlar bo'lishgan. Ular katta kuchga ega bo'lganlar va oliy tabaqa a'zolari hisoblanishgan. Aholi qohinlar iloh nomidan gapirishlariga ishongan.

San'atda rassomlik uslubining hususiyatlari. Bizning davrimiega etib kelgan arxitektura va haykaltaroshlik yodgorliklari biega o'sha davrning madaniyati haqida to'liq ma'lumot beradi. Misr ustalari haykallar va odam rasmlarini devorga chieganlarida, yaratganlarida doimo fir'avn zodagonlardan teparoq, zodagonlar esa oddiy xalqdan balandroq ko'rsatilgan.

Misrliklar uchun timsollar juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Misol uchun, nilufar gudi (lotos) — quyosh, hayot, serhosillik timsoli, ilon (urey) — cheksiz hukmronlik timsolidir.

San'atning ajralmas qismi uning dekorativlik va monumentalligidir. San'at ko'rinishlari va shakllari: arxitektura (maqbaralar, piramidalar va ibodatxonalar); haykaltaroshlik; qo'p rangli freska rasmlari; xalq ammaliy san'ati ko'rinishlari.

2. Qadimiy podshoxlik. Nil vohasining iqlimi shunchalik issiq bo'lganki, ummuman kiyimga muxtojlik bo'lmagan, faqatgina intim qismlarni berkitish kifoya bo'lgan. Burama (bejamdor) kiyim

qadimgi misrliklarni eng keng tarqalgan kiyim turi bo'lgan. So'ng ularda mutasil (hamma yog'i berk) uski, yopiladigan kiyim paydo bo'ladi, ammo ziynatli narsalarga misrliklar hech qachon ega bo'lishmagan. To'g'ri, aniq chiziq'larga intilish Qadimgi Misr aholisi kostyumlariga hos bo'lgan.

3. Erkaklar kostyumi. Qadimgi misrlik yigitning ideal timsolini biz devorlarga yasalgan haykal, relief va freskalarda ko'rishimiz mumkin, bu— baland bo'y, keng yelkalar, jiddiy yuz, tor bel va tor bo'ksa. Erkaklar bo'ksaga boylanib kiyiladigan, teri va matolardan qilingan, to'rtburchak yoki uchburchak shaklidagi - **sxenti** kiyishgan. U belda tahlanib maxsus belbog' bilan mahkamlangan. Belbog'— qadimgi misrliklar kostyumining asosi bo'lgan. Uning ko'rinishi shunday, ya'ni mato bo'lagi va maxsus tasma, belbog'dan iborat, u bel bo'ylab o'ralib uchlari markazdan drapirovka qilib tushirib qo'yilgan. Zodagonlarda ancha murakkab, go'zal va jozibalibroq bo'lgan, u yupqa va qimmatbaho, turli rangli matolardan tiqilgan. Bir xil vaqtlarda sxentilar burmalar va tahlamalar bilan bezatilgan, taxlamalar doim old qismida joylashgan, orqa qismi esa tekis bo'lgan. Erkaklar belbog'larni kiyishgan, asosan esa umuman belbog'siz maxsus fartuklar (perednik) kiyishgan, u oval, to'rtburchak yoki trapetsiyakvadrat shakllarida bo'lgan. Fartuklarda deqorativ elementlar umuman bo'lmagan.

Ranglar. Oq rang misr zodagonlari rangi deb hisoblangan va qadrlangan. Bug'doy rangli tana, oq kostyum va tilla rangli qum misrliklarga o'egacha maftunkorli baxsh etardi. Oddiy xalq yuvilmagan sariq va qaymoq rangli kiyim kiyishgan. Bu davrlarda qora rang motam rangi hisoblanmagan. Lekin yorqin rangli havo rang, qizil va yashil rangli matolardan ham kiyim kiyishgan.

Matolar. Misr — zig'ir yurtidir. Misrda paxta va zig'irni qayta ishlab undan matolar to'qishgan. Ularning iste'dodlari mukammalashib

mato shunchalik yupqa bo'lganki, uning 5 qavatidan ham odam tanasining timsoli sezilib turgan, u yupqa shoyi va batistdan ham qolishmagan.

Mahsus urf — odatlarga mo'ljallangan kiyimlar teri va mo'ynadan tiqilgan.

Fir'avn bosh kiyimi boshqa tabaqadagi odamlarnikidan tubdan farq qilgan. Oddiy xalq asosan teri va qo'pol matolardan qilingan, boshni siqib turadigan bosh kiyimlar kiyishgan.

Bosh kiyim va soch turmagi insoni qanday ijtimoiy tabaqaga tegililigini bildirardi. Misrliklar boshlarini va egaklarini yaxshilab qirib tozalashgan. Issiqdan saqlanish uchun erkaklar qo'y va suv o'tlaridan qilingan yasama sochlarni takishgan, oddiy aholi bitta, zodagonlar esa ikkitalab yasama sochlar taqishgan. Erkakning ijtimoiy ahvoli haqida uning yasama sochi va yasama soqoli ma'lumot berardi. Erkaklar ulama va yasama saqollari kokil sifat bo'lgan, uning uchi yoyilgan yoki kub sifat bo'lgan. Boy zodagonlar va ularning oila a'zolarining soch turmaklari, ulama sochlari oddiy xalqnikiga nisbatan kattaroq, chiroyliroq va qimmatroq bo'lgan. Ulama sochlarini har xil ranglarga bo'yashgan va .-mayda qilib o'rib yurishgan. Bir xillarda erkaklar ulama sochlarini kalta popuklar qilib o'rib yurishgan.

Misrda pardoz san'atiga erkaklar ega bo'lishgan. Ular ko'z, qosh va lablariga upa — elik ko'yishgan. Qadimgi maqbaralarda ho'shbuy moylar, muattarlar va malhamlar solingan idishlar topilgan. Qohinlar — ibodatxonalar arboblari, pardoz — andoz buyumlarini ishlab chiqarishgan, faqatgina ular ushbu san'atni sir asrorlari va xufiya bilimlariga ega bo'lishgan.

Qadimgi misrliklar kostyumlari to'g'ri parallel yoki o'simlik dunyosidan va geometrik egri —bugri chiziqlar , bilan bezatilgan. O'simliklar dunyosidan olingan naqshlar o'rtasida nilufar (lotos) guli bosh joyni egalagan. Shunday, qamich, palma, papirus umumlashgan

rasmlari ham qo'llanilgan. Tirik tabiyat namoyandalarini — ilon, sqarabey — qung'izi, lochin kiritgan jimjimador bezaklar zodagonlar kostyumlariga fayz kiritgan.

Qadimgi Misr erkaklari xilma xil taqinchoqlar va zargarlik buyumlarini hush qo'rishgan. Modaga tiralgan holda ular qo'llarida — bilaklarda va tirsqaqlaridan sal teparoq — bejirim bilak uziklarni taqishgan. Ziynat va qimmat uzuklar erkaklarni alohida iftixori bo'lgan. Keng tarqalgan ziynat — sqarabey — qimmatbaho toshlardan qilingan. U bo'yin bog'da olinib yurilgan.

Yangi podshoxlik chog'ida tilla zeb — ziynatlar va qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning nafis bezagi mahorati a'lo darajaga etgan. Qo'shimcha did bilan bezatilgan belbog' kostyumni to'ldirib turgan.

Sandal kiyish huquqiga faqat fir'avn ega bo'lgan. Omma uning tabaqalari yalang oyoq yurishgan.

4. Ayollar kostyumi. Misrda bo'g'doy rangli, tekis toza yuzli, quyuc yoki bikir qora sochli, chiroyli qo'li va oyoqli ayollar latofatli hisoblanishgan. Uning yuzi tekis, to'g'ri va chiroyli shakllarda bo'lishi, peshonasi oliyhimmat kyenglikda, bodom ko'z va to'g'ri burunli ayollar chiroyli hisoblangan.

Ayollarning milliy kostyumlari bu oddiy ko'ylak bo'lgan, u *kalaziris* deb atalgan. Uning shakli malikalarda ham, oddiy ayollar da ham bir xil bo'lgan. Kostyumning sifatli matodan yoki oharlanganligiga qarab ayolning ijtimoiy ahvolini bilish mumkin bo'lgan. Kalaziris ko'ylagining shakli keng mato bo'lagi bo'lib, bu mato bo'lagi bilan ko'krakdan to oyoq to'pig'igacha o'ralib tikilib, yelkadan ikkita tasma yordamida mahkamlangan.

Tanaga ko'ylak yopishib turgan, u juda qayishqoq bo'lgan va ayol harakatini hech ham cheklamagan. Rang va matolar. Erkaklarnikiday bo'lgan.

Soch turmaklari juda ham katta va murakkab bo'lib, boy ayollar soch turmagi har xil ilohiy timsoli bezaklar bilan bezatilgan. Sochlar mayda qilib o'rilgan va boshga maxsus ketma— ketlikda yopishtirilib chiqilgan, ya'ni tepa qismiga, past qismini esa yoyib yurishgan. Podshoh ayollari chakkalaridan bitta kokil tushirib yurishgan, u qancha qalin bo'lsa ayolning tabaqasi ham shuncha yuqori bo'lgan. Kokil boshidan qalin bo'lib uchiga kelib kamaygan va speralsimon bo'lgan. Uning uzunligi yelkagacha bo'lishi lozim edi. Ulama sochlarning uzunligi quloq solinchakacha (mochka) bo'lgan. To'g'ri va tekis kesilgan qalin cholka va chakkadagi kokil, u podshoh oilasiga mansub ekanligi haqida xabar bergan. Ustidan tilla xalqa taqilgan, uning markazida kobra ya'ni ilon boshi tasvirlangan, u malika peshonasida joylashgan va uni bezab turgan. Boy oiladan bo'lgan qizlar 1-3 ta kokillar o'rib yurishgan, kokil qalinligi malikanikidan kamroq bo'lgan. Qanchalik kokil qalin bo'lsa, ayol boyroq va mansabliroq bo'lgan. Qul qizlarni boshlaridagi ko'p kokillaridan tanish mumkin bo'lgan.

Misr pardoz — andoz vatanidir. Misr 4000 yildan ortiq vaqtdan beri pardoz — andozni bilishadi. Ayollar ko'zlarini va qoshlarini bo'yashgan. Oldin ko'zlarini kul rang yoki yashil ranglar bilan bo'yashgan. Misr ayollari lablarini bo'yoq bilan bo'yashgan.

Matolar ornamentlari huddi erkaklarnikiga o'xshash. Ayollar qo'llariga va oyoqlariga bilakuzuklar taqishgan. Barmoqlarga ham uzuklar taqishgan. Quloqlariga xalqasimon ziraklar taqishgan. Bezak va zeb — ziynat sifatida sqarabey qo'ng'izi timsolidan foydalanishgan.

5.O'rta podshohlik. Siluet pastga kengaydi. Oldin kalaziris bir xil kyenglikda edi, endi uning pasti kengayadi. Taxlamalardan keng foydalanila boshlanildi. Kiyim shakli o'egara boshladi, chunki kostyum ustidan, kostyum kiyish urfi paydo bo'ladi.

Erkaklar kostyumi. Ustma —ust kiyiladigan yupqa sxentilardan iboratdir.

Ayollar kostyumi hech o'egarmaydi. Kalaziris eski bichimda saqlanib qolinadi. Zodagonlar kostyumiga yangi bezak kirib kelgandi, u har xil emalbdan yasalgan, bo'yalgan munchoqlardan qilingan yelkatumor edi.

3. **Yangi podshohlik.** Bu davrda kostyumning tabaqalar orasidagi farqlar yaqqol sezilgan vaqt deb hisoblash mumkin:

- zodagonlar kostyumining murakkablashgani;
- yupqa va qimmatbaho matolardan keng foydalana boshlash va ularning har xil ranglarda, fakturalarda bo'lishi;
- tahlamalar ko'pligi va ularni butun kostyum bo'ylab joylashishi;

Tilla va emal, oyna bezaklarining zeb —ziynatda ko'payishi.

Bosib olingan Suriyadan yangi kostyum **naramnik** erkaklar va ayollar kostyumiga kirib keladi. Uni taxlamali yubka yoki yopinchiq bilan kiyishgan. Shunday qilib naramnik ustki kiyimga aylanadi. U insoning ikki bo'yi keladigan mato bo'lagi bo'lib, ikkiga buklangan va markazidan boshga teshik qoldirilgan kiyim ko'rinishiga egadir. Uning yonlari tekis yoki kengaygan bo'lib, ochiq bo'lgan. Bir xillarda har xil kyenglik va uzunlikdagi yenglari bo'lgan.

Oddiy sandallar turi paydo bo'ladi, ular yupqa papirus yoki teridan to'qilgan. Sandallar oyoqqa maxsus iplar yordamida maxkamangan. Boy odamlar tillaga o'xshash yoki tilla bilan bezatilgan sandallar kiyishgan. Ayollar oyoq kiyimlari erkaklarnikidan farq qilmagan.

1570 yil er. avvalgi papirusi topilgan, unda qadimda pardoziy —andoz vositalarini yaratish retseptlari bor. Misol, unda ajinlardan forux bo'lish, qanday sochlarni bo'yash va parvarish qilish, so'gallarni qanday yo'qotish sirlari yozilgan.

Birinchi lab bo'yog'i, upa, ko'z bo'yoqlari va atirlarni yaratish sirlari axborotnomasi malika Kleopatra tomonidan tuzilgan. Bu mahsulotlarni minerallarni maydalab maxsus eritmalar va

yog'lar bilan qo'shib, aralashtirib yaratishgan. Misrda birinchi bo'lib manikyur va pedikyur qilishgan va tirnoqlarni yashil ranglarga bo'yashgan.

Fir'avn kostyumi. Qadimgi davr fir'avn kostyumi sxenti, ulama soch va sandaldan iborat bo'lgan. Kostyumda fir'avn boshlovchi va asoschi bo'lgan. Belga boylanadiga belbog' ustidan tahlamali peshbandlar kiyilgan. Nil qirg'oqlaridagi xalq davlatga aylandi. 3200 yil er. avv vaqtga kelib Misrda faqat ikkita podshohliklar qoladi, bu Qo'yi va Yuqori Misr podshohliklari. Orada urush bo'lib o'tadi va unda Yuqori Misr podshohligi yutadi.

Memfis — yangi birlashgan va paydo bo'lgan podshohlikning poytaxtiga aylanadi. Fir'avn ikki er podshohiga aylangach, u ikkitalik toj kiyadi. Podshohlikning boshqa timsollari ham mavjud bu qo'y boqar hassasi va zanjir, ularning ma'nosi fir'avn doim xalqining himoyasidadir. Erda, olamda qadimiy podshohlik timsoli bu - hassadir. Ammo hassa bilan chizilgan fir'avn timsolini kamdan kam ko'ramiz. Yana bitta hoqimiyat timsoli bu — *klaft* — bosh kiyimidir, u yo'l —yo'l mato bo'lagi bo'lib, yo'l —yo'llari tim ko'k rang va tilla rang, tasma hamda tilladan gardish bilan bezatilgan. Eniga bo'lgan tomonini peshonaga gorizantal joylashtirib, tasma yordamida maxkamlangan va ustidan ilon timsoli tilla gardishni taqishgan. YArim doira shaklidagi klaft yon tomonlari tekis va chiroyli bo'lib tushib turishi lozim edi. Klaft changdan va quyosh nurlaridan saqlabgina qolmay u juda bejirim, fir'avn oilasining kostyumini bir qismi bo'lgan. Boylanadigan ulama soqol tilla bo'lib, faqat fir'avnning hoqimiyati timsoli bo'lgan va faqat ugina taqib yurishi mumkin bo'lgan. Eng qalin va ko'rkam ulama sochni fir'avn va uning oila a'zolarigina taqishgan.

Zodagonlarni turmushidagi boylik fir'avn va fir'avn oilasi boyligi oldida hech narsa emasdi. Fir'avn- quyosh o'g'liligini ko'rsatish uchun u boshiga maxsus tasma boylab yurgan. Uning rafiqasi ham u kabi

timsollarni taqgan va boylab yurgan, ya'ni **urey** — ilonning timsoli (bu kobra .- timsoli bo'lib, u odamni tishlasa odam tirik qolmagan) bu beqiyos hoqimiyat timsolidir. Bosh kiyimi bo'ylab tilla ilon — urey, o'rab olingan. Bu dahshatli ilonning boshi fir'avnning peshonasini shunday ustida joylashgan. Ilon va kalxat tasviri fir'avnning bog'ichidagina aks etirilib qolmasdan, balki uning toji, belbog'i va dubulg'asida ham o'rin olgan.

Hamma podshoh hukmronligi timsollari qimmatbaho yoki sirlangan toshlar bilan bezatilgan.

Fir'avnni rafiqasi boshiga nilufar gulning shakli tushgan qalpoqcha, yoki kalxat timsoli rang —barang emal bezaklar bilan bezatilgan bosh kiyim kiygan.

Fir'avn va uning yaqinlarining kiyimi zodagonlar kiyimidan o'zining qimmatbaho matosi bilan ajralib turgan. Shohona juft kiyimi asosan o'ta yupqa matolardan tiqilgan. Fir'avn va zodagonlar tilla va zarxallangan bezakli sandallar kiyishgan. Sandallarning uchi tepaga burilgan bo'lgan. Sandal oyoqqa chipor bog'ich bilan tizzagacha mahkamlangan. Sandallar tagida hayot va jang sur'atlari solingan bo'lgan.

Qohinlar kostyumi. Ibodatlar, qurbonliklar va shu kabi diniy marosimlarda qohinlar timsoq, buqa va qirg'iy niqoblarini kiyishgan. Qohin orqasiga qoplon terisini tashlab, terini bosh qismi oldinga joylashtirilgan va belda mahkamlangan. Hayvon boshi va panjalari tilla sirlangan plastinalar bilan bezatilgan.

Shahar aholisining kostyumlari. Erkaklar kiyimi pastni berkitib turgan, qalin tabiiy rang matoning bir bo'lagidan iborat bo'lgan. Oddiy xalq ayollari kiyimi tarix davomida o'egarishsiz qolgan: kalaziris — yelkada bog'lab ko'yilgan, ba'zan kalta yengli bo'lgan. Kalaziris tabiiy zig'ir matosidan tiqilgan, rangi oq va rangli bo'lgan.

Qullar kiyimi. Qullar kiyimi juda oddiy va sodda bo'lgan. Erkaklar kiyimi charm yoki tabiiy rangli qo'pol matodan kichkina

belbog‘ bog‘ichdan iborat bo‘lgan. Ayollar kiyimida qadimgi kalaziris shakli saqlanib qolgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misr tarixi necha davrga bo‘linadi?
2. Qadimgi Misr san‘ati va madaniyatiga ta‘rif bering.
3. Qadimda Misrni kim boshqargan va u qanday davlat bo‘lgan shu haqida so‘zlab bering. Fir‘avnning saltanat belgisi
4. Qadimgi Misr kostyumlarining asosiy turlari va shakli haqida nimalar bilasiz?
5. Yangi podshohlik davrida kiyimlar qanday o‘egarishlar sezila boshladi?

3-MAVZU: Qadimgi Yunon kostyumi

(ma‘ruza-2soat).

Reja:

1. Qadimiy Yunonistonning rivojlanishi va turmush tarzi.
2. Qadimgi Yunon madaniyati va sanati.
3. Kiyim shakli va turi.
4. Erkaklar kostyumi
5. Ayollar kostyumi

Bu davlat e. av VII - I asrlarda Balqon yarim orolida rivojlana boshladi. Yunonning tabiiy iqlimi, ya‘ni issiq dengiz qirg‘oqlari, serhosil erlari, boy er qazilmalari qadimiy Yunonlarga yashab va mehnat qilishga sharoit yaratib berardi.

Yunonning siyosiy omillari boshqa qadimiy dunyoda ancha farq qilardi. Siyosiy omillarining asosi demokratiya va quldorlik. Yunon san‘ati realistik harakterga ega edi. Qadimiy Yunonning hayoti ommaviy harakterga ega edi. Xalq yig‘inlari, qo‘shiqalar va raqslar bilan, turli sport

musobaqalar bilan o'tkazilar edi. Bu yig'inlar davlat tomonidan uyushtirilib, xalqning jismoniy holatini nazorat qilish edi. Qadimiy Yunonning bunday hayotiy holati insonning go'zallik timsoli chiroyida va kostyumida chuqur o'rin egallaydi.

Qadimgi Yunonlar va Rimliklar qanday qilib bu oliy drapirovkalarni uyg'un, chiroyli va shu bilan birga tabiiy, xaqqoniy qilib yaratganliklariga aql bovar qilmaydi.

Qadimiy Yunon jamiyatning asosiy harakterlaridan biri bu katta-katta quldorlikning yo'qligidir va bu antik demokratiyaning paydo bo'lishiga va rivojlanishiga omil bo'ldi. Ulug' qadimiy Yunon madaniyati bu erkin fuqarolar madaniyati rivojlanish davri. 1. Gomer davri. 2. Arxaika davri. 3. Klassika davri. 4. Ellinizm davri. Gomer davrida polislar bo'linishigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davrda shoir GOMER yashagan deb hisoblanadi. Arxaika davrida Yunon san'atida asosiy prinsiplar rivojlana bordi. Me'morchilik san'atida misli qurilmagan ixtirolar - order sistemasi yaratilgan. Order sistemasi davrlar o'sha arxetekturada ko'llanib kelingan va hozirgi zamonda uni yangicha usulda qo'llanilmokda. Klassika davrida Yunon eng gullab - yashnagan darajaga etdi. Bu davrga kelib qadimgi Yunon me'morchiligida bir qancha ibodatxonalar, Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi, Parfenon va Erehteyon ibodatxonasi misilsiz darajada yaratilgan. Hamda go'zal va nafis haykaltaroshlik asarlaridan, Olimpiya Zevs haykali, disk otuvchi bola haykali, Porfinoz Afin haykallari dunyoga keldi. Kulolchilik san'atidan qora va qizil figurali vaza san'ati, teatr san'ati va sport yaratilgan edi.

2. Qadimgi Yunon madaniyati va sanati. Mo'tadil, iliq iqlim, shularga Egey dengizi kema qatnovi va savdo rivojiga, shu bilan birga odamlarning yashashiga juda yaxshi imkon yaratar edi. Yunoniston poytaxti Afinadan sotish uchun kumushdan yasalgan buyumlar, sopol idishlar, olifka moyi olib chiqilar edi. Yunoniston boy ma'danlari, hosildor erlari va o'tloqlari bilan ma'lum edi. Shularning barchasi qadimgi Yunonlarning urf-odatlarini

va mashg'ulotlarini aniqlab bergan edi. Yunoniston siyosiy tuzumi bilan qadimgi dunyo zolim mamlakatlaridan bir muncha farq qilar edi. Miloddan avvalgi V asr - bu Yunon davlati madaniyatining gullab yashnagan davri edi, uni "oltin asr" deb atalgan. Yunon-fors urushining g'alabasi odamlar ongining rivojlanishi uchun asos bo'ldi. Eski Afina markazi ta'mirlana boshlandi. Yangi ibodatxonalar, stadionlar, gimnaziya qurila boshlandi.

Adabiyot misli kurilmagan darajada gullab yashnadi. Dunyo xalqlarining tillari qadimgi Yunon miflarini Homer poemalarini boyitdi va biega ifodali iboralarni tuxfa etdi. Miflar orqali biz Yunonlarning hayoti va kasbi-kori haqida ma'lumotlar olamiz. Masalan Prometei haqidagi mifning aytishicha Yunonlar dehqonchilik, chorvachilik va boshqalar bilan shug'ullanganlar, Dionis haqidagi miflardan Yunonlar bino qilish san'atiga ega ekanliklari haqida ma'lumot olamiz. Gefest haqidagi miflardan ular temirchilik hunariga ega ekanliklarini bilamiz.

Tasviriy san'at ham gullab-yashnaganligi ma'lum. Bu davrda juda ko'p binokorlik ansambllari va haykallari vujudga kelgan. O'sha davrning ulug' haykaltaroshlari-Fidiy, Miroi, Poliklet. Dunyoning etti mujizasidan beshtasi Yunon haykaltaroshlarining asarlari va ijodkorlarning maxsulidir.

Go'zallik timsoli. Go'zal inson — bu tana va ruxning uyg'unlashuvdagi ko'rinishidir. Eng go'zal chehra bu qirra burin, aylana daxang, bu katta ko'zlar hisoblangan. Ochiq peshana go'zallika qarama-qarshi edi. Shuning uchun jingalak soch va chiyolka ko'rinishida peshana qismi to'sishga harakat qilinadi. Ayol va erkaklar bo'ng'a rioya qilishardi. Yunon ayollari go'zal va qomatli edilar. Yunonlar shunday fikrlardilar: "Qalb go'zalligi - tana go'zalligi bilan teng bo'lishi kerak".

3. Kiyim shakli va turi. Yunonlarning kiyimi turli yo'nalishdagi drapirovkalardan iborat. Ichki kiyim xiton hisoblanadi. Vertikal bo'yicha buklangan to'rburchakli mato bo'lagi insonning chap yon

tomonidan turuvchi va yelkasiga yig'ilib to'qa taqilgan holda kiyiladi. Yunon zig'ir matosi Misr matosidan qalin bo'lgan, lekin drapirovka uchun elastik hisoblangan. Ammo ancha vaqtgacha Yunonlar kiyim uchun jun matosidan foydalanganlar, chunki bu mato drapirovka uchun yaxshi hisoblangan. Yunonlar asosan sariq, havo rang, pushti rangli kiyimlarni kiyishar edi. Xitonning to'q fonida go'zal naqshli bezak berilgan. Bu arxaika va ilk klassika davrida keng tarqalgan edi.

Yunon naqshlari turli xilda asosan o'simlik va to'lqinsimon shakllarda edi. Ustki kiyimga gimatiy edi. U turli usular bilan drapirovka berib tanani aylantirilgan to'g'ri burchakli jo'ngli mato bo'lagi. Ellinizm davrida Yunonda yangi element sharq modasidan, yani ancha yupqa, yengil, tilla ipli kashta bosilgan matolardan foydalanilganlar.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar xitoni tizzagacha uzun holda bo'lgan. Birinchi dori xitoni paydo bo'lgan. Oliy tabaqa va yoshi ulug' Yunonlar kam hollarda ion xitonini kiyishgan. Uzun ionik xitonlarini asosan ayollar, qariyalar, davlat arboblari.

Ko'p hollarda erkaklar xitoni to'qa yordamida yelka qismiga maxkamlanar edi. Kambag'al va qullar oddiy kiyim Ekzomis kiyilgan. Bel qismidan aylanib yelka qismiga tashlab qo'yilgan.

Asosiy ustki kiyim gimatiy 1,7 - 4 m. ga olingan to'g'ri burchakli matoplash rolini bajarar edi. Tana atrofiga shu mato orqali turli dropirovka berib chiqilardi. Aqliy ishlarni bajaruvchi Yunonlar faylasuflari, shoirlar, kiyilgan gimatiylar qo'l qismini yopib turardi. Kam hollarda gimatiy xitonsiz ham kiyilardi.

Xlamida ham ustki kiyim bo'lib hisoblanadi. Katta bo'lmagan to'g'ri burchakli matoni to'qa yordamida yelkaga birlashtirilgan. Xlamida bilan bosh kiyim kiyish shart edi. Lekin ko'pincha Yunonlar bosh yalang yurishardi. Faqat jallod va sayohatchi erkaklar bosh kiyim kiyishardi yoki gimatiyni bir uchi bilan yopib olinardi.

Kiyimlar rangi alohida ahamiyatga ega edi. Masalan: shaffof - sariq rang - barg rang va tantana uchun, qizil - olov rang - jangchi spartanlar uchun.

Ayollar kostyumi. Ayollar uzun xiton kiyilgan, xiton kiygan qadimgi ayollar qomati dori ustunlarini eslatardi. Ionik xitonda tasmalar faqat belga, bo'ksaga emas balki ko'krak qismiga xoj holda bog'lanadi.

Klassika davrida turli rangli va naqshli xitonlar qaytgan, lekin oq rangli xitonlar eng latofatli hisoblanardi. Eng qadimiy xitonlardan peplos hisoblangan. O'ng yon qismi ochiq holda qoldiriladi.

Jun matodan spartan qizlari peplos kiyiyganlar. Darik xitonlari buklangan diploidni etak qismi bezalgan bo'lardi, diploidning orqa qismi boshni yopish uchun ham xizmat qilardi.

Diploidlar ayollar xitonida asosiy kiyim elementlardandir. Chunki u turli forma va uzunliklarni kiyimga chiroy berardi .

Ayollarning ustki kiyimi gimotey bo'lgan. Ko'p hollarda bir yoni ochiq, boshidan kiyiladigan plash;

Qadimgi Yunonlarga yalang oyoqda yurish qulay bo'lgan. Oyoq kiyim ko'chaga kiyilgan. Bu oyoq kiyimlar charmli va bog'ichli bo'lgan. Ularga shippaklar, taglik yengil oyoq kiyimlar, kalta etiklar, uzun etiklar kiradi. Yorqin rangli zar ipli charmli etiklar - bayram uchun. Yumshoq charmli etiklar - persikon nomlangan. Uzun tasmali etiklar - endropis bo'lgan.

Yunonlar sochi qalin bo'lganligi uchun, boshlariga bosh kiyim kiyilmasidi faqat kerak hollarda kiyilar edi. Erkaklar bosh kiyimi uchli qalpoq - frigiyy pileus. YArim sharli qalpoqlar jun va turli charmlardan tiqilgan - qin. Jangchilar - dubilg'a kiyganlar. Ayollar ko'p hollarda sharf tashlab olganlar. Soch turmaklarda turli xil qopchalar ishlatganlar. Ular orqali sochni bir qismini epish uchun ishlatilgan. Arxaika davrida Yunonlar, ya'ni erkaklar soch-aokolini ustirib yurganlar. Klassika davrida soch turmagi ixcham kesilgan, yoshlar, yoshi ulug' insonlar ustirib yurilgan,

lekin ancha qisqaroq bo'lgan. Ayollar sochlari jingalak bo'lib, soch turmagi turli xilda bo'lgan. Ko'p hollarda «Yunoncha tugun» turmagi qo'llanilgan.

Yunon kiyimi sodda naqshlar bilan bezatilar, ko'pincha matolar bo'yalar yoki turli matolardan quroq ko'rinishida bezatilar edi. Fibulalar, oltin-belbog' yoki qimmatbaho toshlar bilan Yunonlarning kostyumini bezar edi. Peshona ustidagi bog'ich Yunonlarning bezagi edi.

Yunonlar sochlariga juda e'tiborli bo'lishgan. Odamlar atrofdagilarni odamlarni nafratini qo'zg'atar edi, agar u uz sochiga e'tiborsiz bo'lsa. Farovon, yuqori axloqiy odam belgisi bu uning silliq va tekis yotqizilgan sochi edi. Yunonda eng chiroyli rang oq-malla hisoblangan. Erkaklar kalta olingan soch, kalta soqol va mo'ylabli bo'lishgan. Aleksandr Makedonskiyga soqolni moda kiritdi. Aleksandr davridan boshlab erkaklik obro'si soqoliga qarab bo'lgan. O'spirinlar soqolini silliq qilib qirishar edi. Olifta yosh yigitlar sochini uzun o'stirib turli shakllar berib rezinkali ip tasmalar bilan mahkamlar edilar. O'spirin, buyuk odamlarni haykaltaroshlar soqoli orqali yoshiga ishora qilar edilar. Peshona ustida soch chiroyli shaklda yig'ilgan, buni "sikada" deyilgan. Yunon sochni bo'yash uchun turli vositalardan foydalanishgan; hidli moylar, og'izdagi noxush hidlarni yo'qotish vositalari.

Yunonlar faqat ko'chaga chiqishda poyabzal kiyishar edilar. Asosan poyabzal turli xildagi shippaklar bo'lgan

Ayollar «Apomson banti» turmagini ham qo'llaganlar. Qizlar sochlarini ko'p hollarda yoyib yurishar edilar. Sochi qora rangli Yunon qizlari, sochi och rangli qizlarga havasi kelib ular ochiq rangli ulama sochlar kiyib olishardi. Ulama sochlar Lebos orolida tayyorlanib, qimmatbaho bo'lgan.

Yunonlar shaxsiy gigienaga katta ahamiyat berishar edilar. Hammomlarning qurilganligidan bilishimiz mumkin. Maxsus ajratilgan joylarda Yunonlar o'z tanalarini parvarish qildirar edilar. Qullar ularni

tanalarini xushbo'y yog'lar bilan uqalashar edilar. Ayollar qosh va ko'z uchun mo'jallangan kukunlardan foydalanar edilar. Yuzlarini vrach Gippokrat, Diokl maslahatlari bilan oqartirar edilar. Soch turmagida - diadema, tilla va kumush to'g'nog'ich, to'qa, bog'ichlar, to'rchalar qo'lanilgan. Qadimgi Yunonlar va Rimliklar qanday qilib bu oliy drapirovkalarni uyg'un, chiroyli va shu bilan birga tabiiy, xaqqoniy qilib yaratganliklariga aql bovar qilmaydi.

Hunarmandlar va qullar kiyimlari: Bu kiyim-xiton dag'al matodan qilinardi. Oyoqlarga postshi deb atalmish yumshoq charmdan tiqilgan poyabzal kiyar edilar. Boylar ham, kambag'allar ham uyda oyoq yalang yurar edilar. Puldor qullarga yilda ikki marotaba mato va poyabzallar berar edilar .

4-MAVZU: **Qadimgi Rim kostyumi** (ma'ruza-2soat).

Reja:

1. Qadimiy Rim davlati.
2. Qadimgi Rim madaniyati va sanati.
3. Erkaklar kostyumi
4. Ayollar kostyumi

1. Rim quddorlik davlati edi. Rim davlatining tarixi bir nechta davlatlarga bo'linadi. Eng e'tiborlilari bu respublikachilar va imperator oilasi edi. Bunday nomlanishiga sabab siyosiy tuzumining harakteridir. Bir necha yuz yilliklar mobaynida kichik shahar-davlat Rim quddratli davlatga aylandi. Bo'nga rimning qurollangan quddorlik davlatligi sabab bo'lgan. Shaharning nomi Rim birinchi Rim podshoxi nomi Ramuldak kelib chiqqan. Afsonaga ko'ra Rim 753g. E.avvalgi asrda paydo bo'lgan. Shu sanadan boshlab Rimliklar yil hisobini boshlashgan. Son jihatdan ko'p va urushga (shay) qodir bo'lgan rim armiyasi . Bu armiya dexqonlardan tashkil bo'lib lashkarlarga bo'linardi. Eri yo'q

kambag'allarni harbiy xizmatga olmas edilar. Eng yaxshi sifat bu intizom va uz vazifasini bajarish bo'lgan. Boshqa oblastlardan kelgan odamlar Plebey deb atalgan. Plebeylar rimda to'la xuquqli bo'la olmaganlar. Hatto ikki yuz yillik urushdan so'ng ular qonun qabul qilish xuquqiga ega bulolmaganlar . Lavozimlar kishilarni qul kutarish bilan saylashgan, Plebeylar bu xuquqdan maxrum edilar. Rimda qul-gapiruvchi mehnat quroli. Qullar rimda va Yunonistonda bir xil axvolda edi. Qullar faqat qurquv ostida ishlar edilar va mehnatning natijasi bilan qiziqmas edilar. Qullarni kurashga urgatadigan maxsus maktablar bo'lgan. Ularni orenaga chiqarib tomoshabinlar oldida uzaro jang qildirar edilar. Bu qullarni Gladiatorlar deyilardi. Tomoshabinga chap qulni uzatib mag'lub Gladiatordan shavqat surar edi. Tomoshabinlar uz navbatida qaror qabul qilar edilar. Agar ular katta barmog'ini yuqori ko'tarsalar qulning hayoti saqlanar, ammo bu juda kam bo'lar edi . Lekin katta barmoqini pastga qaratishsa qul uldirilar edi. Shunday qullardan biri Spartak edi. Keyinroq u -qullarning qo'zg'olonini boshqargan. Qadimgi rimning siyosiy rivojlanishiga tibiiy sharoit ta'sir qilgan. Istelochilik urushlariga ekinzorlarning kamliga sabab bo'lgan. Og'ir yashash sharoiti, yashash uchun kurash ularni chiniqtirgan. Respublika davrida rimliklarning fel-atvori, urf-odatlar juda qattik bo'lgan. Cheksiz urushlar juda ko'p qullarni keltirar , rim talon-taroj qilingan mollarga kumilib borar edi . Shu darajaga kelingan ediki Yuliy Sezar davrida tillani trozda tortib sotilar edi. Uy jixozlarni, kiyim, emish, misli kurilmagan darajada ko'payib ketgan edi. Yengil topilgan pul shu xilda yengil sarf qilinar edi. Mehnat qullarning qismati edi. Respublika davrida rim Yunonistonni ishg'ol qilgan. Qaxri qattiq rimliklar ruxiyatiga Yunonlarning ochiq chexraligi va optimizm mos kelmas edi. Ammo tashqi yalbiroqlikka intilish rimliklarda juda avjiga chiqqan edi. Hatto kambag'al Rimliklar ko'chaga qulsiz, kuzatuvchisiz chiqmas edi. Shu bilan birga ruxiy madaniyat juda past edi.

2. **Rim madaniyat va san'at.** Rim deganda ulug'lik shuxrat va boyluk tushunilar edi. Butun dunyodan rimga xorijiy sayyoxlar, olimlar, rassomlar, shoirlar va boyluk izlovchilar intila boshlashdi. Go'zallik timsoli: Rimliklar mard, badjaxil, jismonan kuchli, chidamli, sharoitga onson moslashadigan edilar. Go'zallik timsolining asosiy belgisi bu qatilylik va soddalik edi. Odam tanasining go'zalligiga e'tiborsiz edilar. Ichki kiyim—bu tunika. U Yunon xitoniga o'xshash, bo'yin qismi doira yoki kvadrat shakilda ochiq bo'lib, engi har xil uzunlikda yoki engsiz bo'lgan. Tunika va uning engi har xil engi ega bo'lar edi. Keng bulmagan, uzunligi boldirgacha bo'lgan, kalta yengli belbog'lanar edi, bu klassik variantdir. Tunika qoplam kiyim bo'lib yelkasi tiqilgan va bosh tarafdin qiyilar edi. Yuqori lavozimli kishilar tunikani kukragi va orqasi o'rtasida keng tasma bo'lar edi. Bunday tunikani Senator kiyar edi. Chavandozlar bitta yoki ikkita engsiz butun buy barobar vertikal tasmali "klavusa" deb ataladigan tunika kiyishar edi. YOg'ingarchilik va sovuq kunlarda rimliklar bir nechta tunika kiyishar edi. Imperator Avgust birvarakayiga 4ta tunika ustma-ust kiyar edi.

Ustki kiyim: Toga-rimliklarning milliy kiyimi. U og'ir ustki kiyim hisoblangan. Toga faqat kiyim emas, u balog'atga etganlikka ramz ham edi. Togani kiyib yosh rimlik rim fuqarosi nomini olar edi. "Toga kiygan xalq-dunyo egasi (xonimi)", deb yoegan edi rim shoiri Vergili. U rim imeriyasiga tegishli ekanligiga ishora ham edi. Xorijliklar, quvg'inlar va qullar toga kiyishga xaqli emas edilar. Toga ofidial kiyim bo'lib uni kiyish majburiy edi. Toganing murakkab drapirovkasiga qarab uni kiyingan odamning ma'lumoti va madaniyati xaqida xulosa chiqarishar edi. Toga bu (6x1,8) ulchami tug'ri burchakli, ayrim doira yoki elips shaklidagi teng ikkiga buklangan moto. Ulchamiga karaganda o'nga uralish oson emas edi, shuning uchun bu ishni qullar bajarar edilar. Togada yurish san'at edi. Mo'tadil va ulug'vor harakatlanishni

kuzgu oldida soatlab mashq qilishar edi. Masalan Orator Gortenzi chiqish oldidan turt soatlab kuzgu oldida tayyorlanar edi .

Kelajakda bu qo‘pol toga yengil plash Latsernaga almashildi, u Yunon xlamidasiga o‘xshar edi. Toga faqat maxsus sanalarda kiyiladigan bo‘ldi. Loteria-ishlash, uzunligi tizzasigacha, tug‘gi burchakli bo‘yinda buklanadi. Ranglar: Toganing chiroyligi uning oqligida. Chiqishli va qadirli rang bu oq rangdir. Ammo kostyumda tuq qizil, jigarrang, sariq binafsha, qizil ranglar uchrar edi. Qiyuvchining kayfiyatini tunikaning rangi bildirar edi. Masalan zarg‘aldoq rang azoblanishni ifodalar edi. Senator kukragida juda keng qizil tasma bo‘lgan.

Matolar: Matoni qulda tuqishar , kiyim jun matodan tayyorlanar edi. Keyinroq Sharqdan Rimga qimmatbaho ipak keltirilgan (funt ipak funt oltinga tenglashtirilgan. Ipak juda yupqa va shaffof bo‘lgan.

Bosh kiyim: Erkaklar Yunonlar kabi bosh bosh kiyim kiyishgan. Yana Frigiya qalpog‘i va somon shlyapa ham moda edi.

Soch turmaklari: Soch turmagi juda sodda bo‘lgan . Boshni ko‘pincha usturada olishgan yoki sochni kalta olib peshonada chyoalka qoldirishgan . Rimliklar soqol va muylab quyishmagan. Lekin Imperatorga tahlid qilib ba’zi katta yoshli odamlar soqol va murit ustirishgan va jingalak qilishgan.

Badanga va tashqi kiyimga katta e’tibor berilgan . Pardo vositalari kunda ishlatilar edi. Bo‘lar krem va xidli moylar . Hamom-term deb ataluvchi hammomda qariyb har kuni chumilishar edi. Ilgarilari maxsus ustirilgan "sovun daraxt" bilan sovunlanishar edi , keyin rimda kul va echki yog‘idan tayyorlangan birinchi yarim suyuq sovundan foydalanisha boshlashdi. Hammomda masaj ham qilishar edi. Hatto bu faqat hammom emas klub ham edi, bu erga yangiliklar eshitishga, baxslarda qatnashishga, kutubxonadan foydalanishga, sport bilan shug‘ullanishga kelardilar.

Doira shaklidagi medalionlar, chiroyli tuqimalar, chap qulning turtinchi barmog'ida uzuk. Erkaklar yaproqlardan, gullardan chambarlar kiyishar, tantanali sanalarda binafsha va chirmovdan chambaraklar qilib boshga kiyishar edi. G'olib lashkarboshi oltin chambar kiyar edi.

Erkin rimliklar qalin charm taglikli oldidan shnurlangan orqasi rangli qunjli poyabzal, shippak kiyishgan. Ular oltin va kumush taqinchoqlar bilan yasatilgan. Poyabzaldan erkin va qulni ajratish mumkin edi.

Ayollar kiyimi: Kiyim drapirovka hisobiga erkin, sodda, bejirim bo'lgan.

Go'zallik timsoli: Rim momosiga (matrokaga) sokin harakat, maxobatliqlik, ayniqsa ulug'vorlik hisob bo'lishi kerak edi. Uning yelka dumbog'ligi, keng beli, yassi ko'krakli, oltin rang sochi barchani asir qilar edi.

Ichki kiyim ikkita ko'ylakdan iborat edi: uzun va keng yengli yoki engsiz. U ichki ko'ylak va uy kiyimi hisoblanar edi. Nikox kuni qizlar ensiz tunika kiyishar va belidan bog'lanar edi. Ustki stola: Etagi keng bo'lib zich qilib plisserovkalangan. Stolani faqat aslzoda ayollar kiyar edilar. Agar tunikaning engi bulmasa stola albatta uzun yengli bo'lishi kerak va aksincha, stola ko'krak ostida belbog'li bo'lishi kerak.

Erkin rim ayollari imtiyozni ustki plashch "palla" bo'lgan. Uni ba'zan bevosita tunikaga kiyilar edi. Bayramlarda boshki pallaning cheti bilan biriktirib fibula bilan maxkamlashar edi. Bu holda palla bog'lanar edi. Oddiy ayollar erkaklarning plashch penulani kiyishar edi.

Kostyumda ko'proq yorqin ranglar bo'lar edi: jigarrang, tilla-sariq, moviy, kulrang bilan, svetlo-lilovoy s jyoltsh, rozovato-sirenevoy.

Matolar zig'ir va quy yungidan to'qilar edi. Sharqda qimmatbaho yupqa va shaffof shoxilar va qalin, og'ir parcha olib kelingan. Bu esa kelasida drapirovkadan qavat kiyimga utishga sabab bo'lgan.

Yuqorida aytganimizdek, ayollar boshlarini palla chetini, "vual" tur yoki yengil shaffof gazlama bilan yopishar edi. Soch turmagi: Rimda yorqin tilla rang sochni qadirlashar edi. Rangsizlantiradigan vositani ishlab chiqish siri xali ham aniqlanmagan. Jingalak soch modada bo'lgan, ammo karkasli soch turmagi faqat rimliklarda bo'lgan. Rim hammomlarida yuksak maxoratli ustalar murakkab soch turmagilarni yaratishda o'zaro musrbaqalashishar edi. Soch turmaklari: Silliq taralgan sochni mayda qilib urib bo'yingatashlar edilar. Peshonaga elpig'ichsimon karkas o'rnatib o'nga tekis qilib soch tutamlarini maxkamlar, qolgan sochni "korzinka" sifat qilib bo'yin tarafiga tashlar edilar. Qadimdan ikki xil pardoz-andoz buyumlari ma'lum: 1.Go'zallikni saqlaydigan pardoz-andoz buyumlari. 2.Etishmovchilikni yashiradigan pardoz-andoz buyumlari.

Zodagon ayollar zirak, peshonaga past qilib o'rnatiladigan diademlar, oltin bilak uzuk, bilakuzuk, marvaridlar taqishar edi. Kambag'al ayollar boshiga yopinchiq yopib yurar edilar. Kiyim matolari kashta, marvaridlar, qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari bilan yasatilar edi.

Ko'krak va belni tunika ostida qattiq boqlashar, bu bilan qomatli xushqad qilishar edi. Keng ko'lamda "opaxala", elpig'ich ishlatilar edi. Ularni pattan (ko'pincha tus tovuq patidan) qilinar edi. Qulida kichik qaxrabo sharcha ushlab yurishar, bu bilan qul domi yoqimli bo'lar edi deb uylashar edi.

Ayollar yumshoq rangli charmdan tiqilgan shippak va sandal kiyishar, oyoq kiyim turli taqinchoqlar bilan yasatilar edi.

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. *Xasanbaeva G. K. Chursina V.A. “Kostyum tarixi” T. O‘zbekiston 2002.*
2. *Komissarjevskiy F.F. “Istoriya kostyuma” Minsk 2001.*
3. *Zaharjevskaya R.V. “Istoriya kostyuma” Moskva 2005.*
4. *Plaksina.E.B. “Istoriya kostyuma.Stili i napravleniya” Moskva 2003.*
5. *Djoan Nann . “Istoriya kostyuma 1200-2000 ”*
6. *Tereshkovich T.A. «Slovar modi» Minsk 1999*
7. *Parmon F.M. “Yevropeyskiy kostyum: stil i moda” M 1982.*
8. *Parmon F.M. “Yevropeyskiy kostyum: stil i moda” M 1982*
9. *Kibalova L. i dr . «Illyustrirovannaya ensiklopediya modi»*
10. *Kaminskaya.N.M. “Istoriya kostyuma” Moskva 1977.*
11. *Kireeva.E.V. “Istoriya kostyuma” Moskva 1976.*
12. *Mersalova.M.N. “Istoriya kostyuma” Moskva 1972.*

5-MAVZU: Fors kostyumi . (ma’ruza-2soat)

Reja:

1. Qadimiy Eron shohligi davri haqida.
2. Qadimgi Yunon madaniyati va sanati.
3. Kiyim shakli va turi.
4. Erkaklar kostyumi.
5. Ayollar kostyumi.

Eron shohligi miloddan avvalgi VII-V asrlarda ko‘pgina el-elatlar o‘ziga bo‘ysundirib olgan. Tarixdan ma’lum bo‘lishicha, Eron – harbiy jihatdan qudratli quldorlik mamlakati sanalib, ko‘pdan-ko‘p erlarni bosib olgan. Eronga qaram elatlar unga boj-o‘lpon to‘lagan. Yangi-yangi o‘lkalarni istilo qilish va ularni Eron shohligiga qo‘shib olish davomida, boshqa xalqlar, millatlarning ta’siri ostida, bu mamlakat san’at va

madaniyati ham rivojlanib borgan. Eronliklar istilo qilingan xalqlarning eng ijobiy xususiyatlarini qabul qilib, o'zlashtirib olgan.

Qadimgi fors liboslari tabiiy sharoitga mutanosib ravishda yaratilgan. Aksariyat eronliklar avlod-ajdodlari baland tog' vodiylarida yashagan. Ular asosan chorvachilik, dehqonchilik va ovchilik bilan shug'ullanganlari sababli asosiy kiyimlari hayvon terisidan tiqilgan. Oyoqlariga ham teridan paytava qilib o'rab yurganlar. Ba'zi elatlar, urug'larga tashqi muhit ta'siri etmaganligi uchun Eron davlati hukmronligini saqlab qolgan, Xususan, terilardan tiqilgan kiyim qadimiy eronliklarning butun tanalarini yopib turgan. Bu forslarning milliy kiyimi hisoblangan. Eronning iqlimi va tog'dagi mashaqqatli turmush bu erda yashovchi xalqdan chidamli va harakatchan, chaqqon bo'lishni talab etgan. Eronliklar kiyimi juda noqulay bo'lib, butun badanni qoplab olgan. Hayotiy sharoit kostyumlar yangilanishini talab etmoqda edi.

Erkaklar kostyumi. Eron shohining kostyumi. Shoh kiyimi boshqa saroy ahli kiyimidan ajralib turgan. Kostyunga alohida tilla ipdan bezak berib tiqilgan, kiyim juda shohona bo'lgan. Lekin shoh poyabzali o'egarib turgan. Shohning qabul marosimidagi kostyumi juda xushbichim va serhasham bo'lgan.

Shoh uzun ichki kiyim va ustki kiyim plash – *kandis*, och qizil rangli *anaksarides* ishtoni va qalin, qo'shimcha taglik poyabzal, bo'yni baland, viqorli ko'rsatish uchun baland bosh kiyimi - *mitra* kiygan. Mitra baland konussimon shaklda bo'lgan, uchi tor, pastki qismiga bezak berilgan. Biroq ahmidinlar davriga kelib, mitraning shakli o'egarib borgan. Bu davrda mitra yumshoq matodan tiqilgan va tantanali marosimlarda kiyilgan. Shoh kostyumi hisoblangan kandis qimmatbaho toshlar bilan bezalgan, taqinchoqlar, bilaguzuklar uni yanada boyitgan. O'sha bu kiyim juda qimmat turgan davrda

Erkaklarning bel kiyimi – tor va uzun ishton bo'lib, bu *anaksarides* deb ataladi. *Tiara* - forslarda keng tarqalgan bosh kiyim hisoblanadi.

Tiara tantanali marosimlarda kiyilgan. Yana shakli boshqacha bosh kiyimi ham bo'lgan, bu shohona *kidaris*dir. Ushbu bosh kiyim rang-barang tasmalar bilan bezatilganligi ma'lum. Ilmiy kitoblarda ana shu shakldagi bosh kiyim qayd etilganida *mitra* va *kidaris* atamasi birga qo'shib yoziladi. Erkaklar charm va kigizdan tiqilgan bosh kiyim ham kiygan. Erkaklar poyabzali uch ko'rinishda bo'lgan. Ulardan eng ko'p tarqalgani tuflidir. Ushbu poyabzalning afzalligi shundaki, u bo'yni baland qilib ko'rsatgan. Chunki poyabzal ostiga qo'shimcha taglik qo'yilgan. Ikkinchisi, keng tarqalgan poyabzal – tufli va kalta etik edi. Etikka taglik qo'yilmagan, yassi bo'lgan. Yana bir poyabzal turi *sandal*, deb nomlangan. Bu poyabzal qalin charmdan tiqilgan.

Ayollar kostyumi. Eron malikasi va saroy xonimlari kostyumi. Shohning bir nechta xotini bo'lgan. Past tabaqaga mansub ayollar saroy xonimlaridan farq qilib, ularga kamroq e'tibor qilingan. Saroyda joriy qilingan udunga ko'ra, serfarzand ayollar qadrlangan, ularni shoh ham taqdirlagan. Eng qimmatbaho kiyimni shohning suyuqli ayoli kiygan. U ona malika bilan teng qo'yilgan, ularning kiyimlari jimjimador zarhal kashta va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Shoh xotinlariga alohida mablag' ajratgan va ular uchun qimmatbaho taqinchoqlar keltirilgan. Ularning kiyim-kechagi, poyabzal va bosh kiyimlari ham juda qimmatbaho bo'lgan. Eron malikasining bosh kiyimi – *tiara* hisoblanadi.

Ayollar kiyimi erkaklar kiyimidan oz farq qilgan. Qadimda kiyimlar asosan hayvon terilaridan, keyinchalik dag'al jundan tiqilgan. Milliy kiyim ham ayollar mansub tabaqaga qarab farqlangan. Ko'ylaklar jun va mayin matolardan tiqilgan. Eron ayollarining milliy kostyumi asta-sekin Ossuriya-Midiya kostyumlari ta'sirida o'egarib ketdi. Bu jihat ayniqsa yuqori tabaqaga mansub ayollar, ya'ni aslzoda xonimlar kiyimida seziladi. Eronlik aslzoda xonimlar bir necha qavat kiyim kiyib yurgan. Qadimiy eronlik xonimlar ayollar ustki kiyimi keng matodan tiqilgan bo'lib, belbog'i ko'krak qismiga yaqin qilib bog'langan. Bu esa ayollarni sarviqomat qilib

ko'rsatgan, belbog' ayolning turmushga chiqqanligini bildirib turgan. Eron ayollarining yana bir kiyimiga nafis, yupqa matodan, yon chokiga keng yo'l-yo'l chiroyli bezak berilgan.

Turmushga chiqqan ayollar bosh kiyim kiygan. Bosh kiyim chekkalari ikki qator chok bilan har xil shaklda hoshiyalangan. Ayollar boshlariga qalpoqcha kiygan yoki salla o'ragan, ko'chaga chiqqanda yopinchiq tashlab olgan (2.6-rasm).

Ayollar poyabzali charmdan tiqilgan bo'lib, tasma bilan bog'langan. Keyinchalik ayollar yumshoq charmli *kavush* kiygan.

Nazorat savollari va amaliy topshiriqlar:

1. Qadimiy fors san'ati va madaniyati rivojlanish tarixi haqida gapirib bering.
2. Fors shohining kostyumiga ta'rif bering.
3. Forsliklarning bosh kiyimlari o'ziga hos bo'lgan, tavsiflab bering.
4. Fors erkaklarning qanday ustki kiyim turlarini bilasiz?
5. Ayollar kostyumida tabaqalar orasida farq bo'lganmi, u nimalarda o'z aksini ko'rsatgan?

6-MAVZU: Hind kostyumi. (ma'ruza-2soat)

Reja:

- 1.Hind kostyumining shakllanishi.
- 2.Hind erkaklar kostyumi.
- 3.Hind ayollar kostyumi.

1. Hind kostyumining shakllanishi. Hindiston paxtaning vatanidir. Ko'p davrlardan beri Hindistonda paxtadan mato ishlab chiqarish odati mavjud. Eng oddiy kiseya ham juda mayin va nafis. Buni matolarga berilgan shoirona nomlardan ham bilib olish mumkin:"havodan to'qilgan", "oqayotgan suv", "kechki tuman" va boshqalar. Deyarli barcha matolar tilla va kumush iplardan to'qilgan.

Hindistonda to'quvchilik san'ati bilan bir qatorda bo'yash, bezaklar berish, bo'rttirma suratlar, hamda batik uslubida ishlashga usta edilar.

Qadimgi hind ayolining egnidagi kiyimidan boshqa hech qanday mansabi, boyligi va xaq xuquqi bo'lmagan.

Mol mulkiga qarab insonning qay toifadanligi quyidagilarda namoyon bo'lardi:

1. matoning sifatiga qarab;
2. kiyimga ketgan matoning ko'pligiga qarab;
3. kiyimning deqorativ bezatilganligi;
4. bezaklarning soni va sifatiga qarab;

Eramizdan avvalgi 3000yillikka oid topilmalar shundan dalolat beradiki, hozirgi zamon kiyimining asosini huddi o'sha qadimgi hind erkaklar va ayollar kostyumi elementlari tashkil etadi.

Hindistonga Markaziy Osiyodan musulmonlarning kirib kelishi, boshqa erli xalqlarning ko'chib kelishi natijasida, tiqilgan kostyumlar kiyish odat bo'lib qoldi. Oddiy xalq orasida xali ham tikilmagan kiyim kiyish an'analari saqlanib qolga. Asta sekin kundalik hayotda tiqilgan kostyumlar o'z hukmronlik o'rmini egalladi.

Hind kostyumlarini rivojlanishiga g'arb madaniyatining yaqinlashuvi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa erkaklar kostyumida bu yaqqol sezildi. Ayollar hind an'anaviy kostyumlariga bo'lgan xurmatlarini oxirigacha saqlab kelmoqdalar.

19 asrda inglizlar Hindistonga: syurtuk, shim va hatto pilotka (shapka)lar olib keldilar. Yevropa modasiga yaqinlashish, hind ayollar kostyumi siluetining o'egarishida yaqqol sezildi.

2.Hind erkaklar kostyumi.

Qadimgi Hindistonda kostyumni tanaga o'ragan holda yoki uni tanaga tashlab yurilgan. Milliy hind kostyumining asosini – dxoti belbog' tashkil

etadi. Dxoti-bu 5x2m bo'lgan mato, uni oyoq va songa aylantirib o'raladi. Uni bir necha turda o'rash mumkin. Dxoti hozirga qadar saqlangan.

Hind erkaklari yopinchiq yopishgan, ya'ni u to'g'ri burchakli matodan qilingan. Plashni odatda yelkaga tashlab, old tomondan kesishib, yana yelkadan orqaga tashlab kiyilardi. Plashni shoxlar, shoxning a'yonlari va harbiylar kiyishgan. Yana hind erkaklari ustki kiyim sifatida nakidka ham kiyishgan. Uni chap yelkaga solib, o'ng tomondan qo'ltiq ostidan o'tqazilardi. Erkaklar "nivi" ham kiyishgan. "Nivi" – bu bir bo'lak mato bo'lib, belga o'raladi va qorinda taxlanib turadi. Xullas bu kostyumlar elementlarining hammasi erkak va ayollar kiyimining bo'laklari sifatida, zamonaviy tikilmagan kostyumlar turiga kiradi.

Hindistonda tiqilgan kiyim ham oldindan ma'lum. Tiqilgan erkaklar kiyimining ayrim turlari: "adxivasa"- ya'ni ustki kiyim. U tilla bilan tiqilgan, tanaga yopishib turuvchi ko'ylakdir. "Kaftan" – ustki kiyim. Kaftanning chap yarmi o'ng yarmiga chuqur kirib turadi. Uning bo'yin o'yindisi aval chiziq bilan o'yilgan, yoqasi ham shunday o'yilgan, keyin uni lenta yoki kayma bilan tiqilgan. Ba'zida kaftanni belbog' yoki shoyi bilan bog'lab olishgan. Keyinroq erkaklar ishton kiya boshladilar. Ushbu kiyim Hindistonga xos bo'lgan bichib tikiladigan kiyim turiga kiradi. Erkaklar kostyumida har-xil ranglar yig'ilgan. Lekin sariq rang amaldorlarga xos bo'lgan rangdir. Sariq rangli kostyumni shoh va shoh a'yonlari kiyishgan.

Hindistonda ko'p ishlatiladigan paxta, shoyi va batist matolaridir.

Erkaklarning eng sevimli bosh kiyimi – "tyurban" bo'lgan. Tyurban sallaga o'xshab har-xil tarzda bog'langan. Uni shakli har-xil soch turmagiga mos tushgan. Soch turmaklash ajoyib bo'lgan. Sochlar har-xil kesimda-kalta, o'rtacha, uzun bo'lib, ular silliq taralib, orqaga yig'ilgan. Erkaklar soqol-mo'ylab o'stirib yurishgan.

Sandal ularning asosiy oyoq kiyimi bo'lgan. Ba'zida yopiq uchli tufli ham, qamishdan to'qilgan kovush kiyishgan.

3. Hind ayollar kostyumi. Hind kostyumining eng chiroyli qismi – bu “sari” dir.U hind ayollar kostyumining, milliy va drapirovkali kostyumidir. U juda ko‘p usullarda drapirovkalanishi bilan ajralib turadi. Sari har doim tana atrofidan pastdan yuqori tomonga qarab o‘rab chiqiladi. Sari kiyish usulidan biri:1-2 marta sondan tizzagacha yoki to‘piqqacha o‘rab keyin tugib maxkamlanadi yoki bog‘lanadi, huddi yopiq yupqa hoida bo‘ladi.Tepa qismini yelkaga tashlanadi, sarini oxirgi uchi ko‘krak yonlarigacha chiroyli qistiriladi. Saridagi taxlamalar turi, sari egasining ajralib turuvchi belgisi hisoblangan.

Hind kostyumlariga qadimdan Yunonlar tomondan bo‘lgan ta’sir tufayli, u ancha mayinlashgan, keyinchalik mo‘g‘ullar va forslar ta’sirida ham o‘egargan. Buning natijasida Hindistonga kirib kelgan “tunika”: yubkaga va kalta koftaga -“choli” bo‘lingan. Kofta juda tor, ko‘krakka yopishib turgan va kichkina engchali edi. Orqasi ikki kurak orasida qattiq tortib, iplar bilan bog‘langan. Koftaning etagi bir-biriga kelmaydi, yubka bilan uning orasida ochiq tana qoladi.Hatto sari kiyilganda ham u ochilib ko‘rinib turadi.

Hindistonda “ishton”ni ham erkaklar ham ayollar kiyadilar. Ayollar kiyimi ipak matolardan: shoyi, batist, o‘ta yupqa kiseyadan tiqilgan. Hind ayolining yurganda oyoqlari atrofida tilla rang matoning tovlanishi, zaytun rangli ayollar tanasini yanada jilolab ko‘rsatadi. Ayollar boshlariga sarining bir uchini yopib olishgan. Ayollar o‘rtadan to‘g‘ri yarma ochib , sochni ikki tomonga silliq tarab, orqaga tashlab yurishgan.

Qoshlari va kipriklarini bo‘yashgan. Qadimda hind ayollari lablarini jigarrang bo‘yoqqa tirnoqlarini qizil rangga bo‘yashgan.

Eng chiroyli taqinchoqli bezaklar hind ayollarida bo‘lgan. Ayollar kiyimining bezagi iato bo‘lgan. Ko‘pincha sarining chetlari naqshinkor xoshiya bilan pastgacha bezatilgan.

Sarilar uzun tilla rang shokilali, rangdor yo‘l-yo‘l chizikli bo‘lgan. Kichkina “choli” koftasi ham naqshlarga boy edi. Bezaklarni-

suyagidan, rangdor shisha, gavhar, nozik, chigʻanoq, meva va danaklardan tayyorlashardi. Boy ayollar qimmatbaho metaldan taqinchoqlar taqishgan. Ayniqsa soch va peshonaga alohida bezak berishgan. Har-xil taqinchoqlar: bilak uzuklar, qulni yelka qismigacha, bilak va barmoqlarga taqiladigan uzuklar, oyoq uchun bilakuzuk, buroʻnga taqiladigan xalqa ziraklar va toʻqali belbogʻlar taqishgan. Kambagʻal ayollar – bronza, mis, ganch va shishali taqinchoqlar taqishgan.

Ayollarning oyoq kiyimi huddi erkaklarnikiga oʻxshash boʻlgan.

Nazorat savollari :

1. Hindistonda qanday sanʼat turlari rivojlangan?
2. Hind anʼanaviy liboslari va ularning oʻegarishiga taʼsir etgan omillar haqida soʻzlab bering.
3. Hind erkaklarining qanday bel kiyim turlari mavjud?
4. Hind erkaklarning qanday ustki kiyim turlarini bilasiz?
5. Hind liboslarida ramziy belgilar bor ?
6. Hind ayollarining kiyim turlarini sanang.

7-MAVZU: Xitoy kostyumi. (maʼruza-2soat)

- 1.Qadimgi Xitoy sanʼati va madaniyati.
- 2.Erkaklar kostyumi.
- 3.Ayollar kostyumi
4. Soch turmagi va bosh kiyimlari.

1.Qadimgi Xitoy sanʼati va madaniyati. Qadimgi Xitoy madaniyati eramizdan ilgarigi II-III mingyilliklarda Xuanxeda daryosi boʻyida vujudga keldi. U Xan imperiyasi qoʻllagan eramizning 220 yiligacha mavjud boʻldi. I asrning ikkinchi yarmigacha Xitoy boshqalarga qoʻshilmagan holda rivojlanardi. Xitoy shahar-davlatlardan iborat boʻldi, ulardan eng yirigi SHan edi.

Qadimgi Xitoyliklar bir necha qavat kostyumlar kiyib yurardi, negaki shimoliy hudud juda sovuq, janubda esa juda kuchli issiq va sovuq almashinib turardi.

Eramiegacha ikki ming yillar ilgari xitoyliklar rangli shoyi matolar, kanop va paxtadan yupqa gazlamalarni tayyorlaganlar.

2.Erkaklar kostyumi. Ishton va ko‘ylak qadimgi Xitoyda ichki kiyim sanalardi. Ishtonning ustidan uzun ko‘ylak tushib turardi, negaki ishtonni ko‘rsatib yurish nomaqbul hisoblanardi. Ular keng bo‘lib, yuqoridan osilib turardi, ip bilan bog‘lab qo‘yilardi. Ular kanop, shoyi, paxta matolaridan tiqilardi. Xitoyliklar belga alohida tasma bilan bog‘lab qo‘yiladigan ishton kiyardi. Uni «taoku»-«ishton g‘ilofi» deb yuritilardi. Xitoylar qavilgan paxtali ishton va ustidan kiyiladigan paxtali oyoq eng bilan sovuqdan asranishardi.

Bir yoki ikki yoqali xalat va kofta ustki kiyim («I») hisoblanardi. Ustki kiyim o‘ng tomonga qadalardi. Faqat dushmanlar chapga qadaydi, deb hisoblanardi. Eng juda keng bhlardi (yengning o‘rtacha kyengligi 240 sm bo‘ladi). Ish chog‘ida eng maxsus lenta bilan bog‘lab olinardi, u ko‘krakdan o‘tkazib bog‘lanardi.

Qishda xitoyliklar «dzyapao» asarli xalat yoki kiyimni ustma-ust kiyardi, ba‘zan esa «myanvpao»-paxtali qavilgan kiyim kiyardi. Xitoy shimolidagilar echki, it yoki saqlanrdi. Kiborlar po‘stini qunduz yoki tulki terisidan tiqilardi, uning ustidan shoyi xalat kiyib olardi. qora ko‘l po‘stinlarining qadri baland edi.

Xitoyliklar tananing pastki qismini latta bilan o‘rab olardi-bu ustki kiyim «shan» deyilar edi. SHan belga matoli («nyu») yoki charm («cheday») belbog‘ bilan maxkamlanardi, yonidan va orqadan o‘nga to‘r qilib to‘qilgan nefrit bilan bezatilga rangli iplar «SHou» mahkamlanardi. qadimda belbog‘ kostyumning eng muhim jihati hisoblangan. O‘nga puchoq, chaqmoqtosh, kamon uchun xalqa, shou tugunlarini echish uchun igna kabi cheklangan

narsalar osib yurilgan. Keyinchalik ular bezakka aylanib qoldi, ularga «Peyyuy» nefrit solinchoqlari bezak sifatida qo'yildi.

Ustki yelka kiyimi («I») va ustki bel kiyimi («shan»)dan kostyum «ishan» deb nomlanadi. Ishan oldiga qizil, nihoyatda bezatilgan peshband tutilardi, u qurbonlik uchun zarur bo'lardi.

Qadimgi xitoy kostyumi shakli, rangi, bezagi ramziy hisoblangan. Yuqori qismi («I») qizil, qora erkak hisoblangan (ya'ni osmon ota ramzi), pastkisi («shan») sariq ayol (ona er ramzi) keyinchalik kostyumlar tarkibi soddalashdi, kostyum o'rniga siydom xalat keldi. Imperator sariq xalt kiyardi, bu erga xukumronlik ramzi edi.

Xitoyliklarning kundalik kiyimlari, bezaklari ham ramziy ma'noga ega edi. Erkaklar kofta va xalatlar «uzoq yil yashash» ramzi bo'lgan ieroglif bilan bezatildi. Ba'zan ieroglif beshta ko'rshapalak o'ralardi, bu boylik belgisini ifodalardi.

3. Ayollar kostyumi. Xitoy ayollari erkaklar singari uzun ko'ylak vak eng ishton kiyiyu yurardi. Ustki kiyim «ishan» ham erkaklarnikiga o'hshardi. Faqat tan davriga kelib ayollar yevropaliklarnikiga o'hshash kofta va yubka kiya boshladi. Bunday yubkalarning belida uchburchak kesma bo'lib undan kofta matosi ko'rinib turardi.

Ayollar kostyumi erkaklarnikidan asosan rangli bezaklarga boyligi bilan ajralib turardi. Bunday bezaklar odatda «Tuan» -bezak doirasiga olinardi. Undagi barcha bezaklarning ramziy ma'nosi bor. Olcha va nargiz gullari qish, salla gul-bahor, nilufa-yoz va quyosh, hrizantema-kuzni anglatgan, oilaviy baxtni anglatuvchi kapalakni tasirlash keng tarqaldi. O'rdaklar juftligi er-xotin baxtini bildirardi. Nihoyat, «tuan»ga qiz va yigit, qariya va bola, chiroyli (tasvirlar) badiiy asrlardan sahnalar chizilardi.

Soch turmagi va bosh kiyimlar. Qadimgi xitoylar sochini qirqmagan, uni «Szi» -qattiq tugun engakka shpilka bilan mahkamlangan. Peshona, chakkalar va engak sochlari yaxshilab taralgan. Xitoyni manchjur bosib olgach barcha erkaklar sochining ldi qismini qirish, orqasini o'rab

qo'yishga buyurishgan. Bu xitoy xalqini ezish ramzi bo'lib qoldi, shuning uchun qo'zg'alonchilar sochini kesib tashlardi.

Xitoylik erkaklar bosh kiyimi turlicha bo'lgan. Bosh kiyimsiz yurish nomaqbul hisoblangan.

Yosh bolalar metal qalpoqchalar kiyib yurardi. Boy xonadaon balalari qalpoqchalari qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan oltin bo'lishi mumkin. Bola 20 yoshga etganda «chuanli» bosh kiyimini kiydiri marosimi o'tkazilgan.

Xitoy imperatori «myan» nomli bosh kiyim kiygan. Uni diniy marosim o'tkazish paytida boshqa martabali kishilar ham kiyishi mumkin bo'lgan. Myan qurilmasi juda murakkab bo'lib, har qismining ramziy ma'nosi bo'lgan.

Turmak ayollar sochini tartiblashning asosini tashkil qilgan. Soch turmaklar murakkab, lekin yengil va nozik bo'lgan. Sochlar bir necha farqtugun shaklida turkmaklangan. Soch turmaklari yaxshi saqlanishi uchu ularga elim surilgan va bahmal ko'plarga o'rab qo'yilgan. Soch turmaklaridagi baland tugunlar peshonaga yoki ensaga yig'ilgan. Har bir soch turmagida ikki- uch bog' bo'lgan. Chakkalardan soch yuqoriga taralgan, peshonaga ozgina pat tushib turgan. Ayollar chekka sochlarini uzun tushirib ularga taqinchoqlar ham ilib yurishgan.

Kibor xonimlar parik kiyib yurishgan.

Kelinlar to'y oldidan sochlarini o'rab olgan yoki arqonga o'hshatib eshib boshning ustki qismiga to'g'nog'ich bilan mahkamlab qo'ygan. Nikoh paytida kelin peshonasiga pat qo'yilgan. Ensa sochi burchak qilib kesilgan.

Xitoy ayollari bosh kiyim kiyimagan faqat to'y va boshqa tantanalarda «fenguan» murakkab bosh kiyimi kiygan

Taqinchoqlar va pardoz ashyolari. Xitoyda qadimdan o'z-o'zini parvarishlarga alohida e'tibor berilgan. Ayollar sochiga essensiya va moy surishgan, lak va mum bilan yaltiratilgan, ustidan gul barg sepishgan.

Soch turmaklari gul, bargli novda va mayda g'unchalar bilan bezatilgan. Kelinlar sochiga inju tolalari, rangli shoyi iplar, mayda gullar shodasi qo'shib o'rilgan. Qadimgi xitoy askarlari dushmanga qutqu solish uchun yuzini tush bilan bo'yab olardi.

Nazorat savollari:

1. Xitoy xalqining tarixiy taqdiri qanday bo'lgan?
2. Kostyumning ijtimoiy mohiyati nimada aks etadi?
3. itoyda ramziy ranglar nimalarni bildiradi? X
4. itoy erkaklar kostyumiga qanday ranglr qo'langan? X
5. itoy simvolik belgilari haqida nimalarni bilasiz? X
6. itoy kostyumiga assimetrik taqilma qaysi mamlakat kostyumidan kirib kelgan? X
7. adimgi Xitoy erkaklarining soch turmagi va bosh kiyimlar haqida nimalar bilasiz?. Q
8. itoy ayollar kostyumi haqida qanday ma'lumotga egasiz? X

8-MAVZU: **Yapon iya kostyumi.** (ma'ruza-2soat)

Reja:

1. Yapon iya madaniyati va san'ati.
2. Yapon an'anaviy kostyumlari.
3. Erkaklar kostyumi.
4. Ayollar kostyumi.

Tarixiy ma'lumotlar. Yapon iya xududi ko'p asrlar davomida aslzodalar

va urug'larga bo'linib kelgan. Ular doim bir-birlari bilan yovlashib yashashgan. Yapon iya alohida bir davlat bo'lishi uchun ko'p asrlar kerak bo'ldi. Yapon iya tarixida siyosiy hukmronlik shox tomonda emas, balki harbiy boshqaruvchilar qo'lida edi. 1190 yilda esa harbiy samuraylar oliy qo'mondonligi qo'lida edi. Bu unvon nasldan naslga o'tib, yuz yillik janglardan so'ng Yapon iya birligi paydo bo'ldi. Yapon iya kichkinagina bir davlat bo'lib, aytib bo'lmas darajada tabiiy sharoitlari mavjud. Bu – yer silkinishlari, suv toshqinlari va murakkab relefidir.

Yapon iya madaniyati va san'ati. Yapon iya tarixida musiqa va o'yinlar diniy marosimlar bilan bog'liq.. Avvallari xind, xitoy va kareys musiqalaridan ko'p foydalanilgan.

Zodagonlarning saroy marosimlari sifatida musiqa va raqslar rivojlandi. Shunga qaramay ashula va raqsda inson harakteri ko'rinib turishi kerak edi. Ma'lumotli va yaxshi tarbiya ko'rgan ayol , raqs tushishi, ashula aytishi, musmqa asboblari chalishni bilishi kerak edi. Ko'p yillar tarixda xalq musiqa ijodi saqlanib- xalq ashulachilari asl jangchilar xaqida balladalar kuylashgan.

Aslzodalarni bo'sh vaqtlari ko'pligi tufayli, ular ko'ngilxushliklar qilgan. Bunda sport o'yinlari – karate, kendo, dzyudodan harbiy san'atni oshirishda amalda foydalanilgan. Bu o'yinda jismonan kuchli, aqlli bo'lib, harbiy intizomni mustaxkamlaganlar. Eng qadimgi sport turi- sumo kurashidir. Uni o'zini kerakli retuali bo'lgan. Ya'ni kurashchi polvon alohida soch turmaklab, maxsus belbog' bog'lagan. Polvonni vazifasi raqibini gilamga yiqitish yoki tanasini biron joyini gilamga tegizishga majbur qiladi.

Hozirgacha yapon tili qanday paydo bo'lgani no'malum. Aponlarni o'z yozuvlari bo'lmagan, ular xitoyliklarni 7-asrda irogliflariga asoslanib, o'z yozuvlarini boyitdilar. Yapon kalligrafiyasi yozuv san'ati darajasiga ko'tarildi. Buddaga sig'inishlar, xitoy xikmatli so'zlari, she'rlar kaligrafiyada yozila boshladi. Qog'oega so'z yozish san'ati katta

ahamiyatga ega edi. Keyinchalik apon adabiyoti paydo bo‘ldi va 7-asrda birinchi she‘rlar yozila boshladi. Yapon iyada san‘atning, hunarmandchilikning rivojlanishiga xitoy katta ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa ham, yapon lar o‘zlarining betakror uslubini yaratdi. Ko‘pgina sopol buyumlar va o‘ymakorlik ishlari orqali davlat tarixini namoyish qildi.

7-asrda kareyadan yapon iyaga qog‘oz tayyorlash san‘ati kirib keldi. Darxol yapon lar undan bir necha xil usulda keng foydalandilar. Qog‘ozning yengilligi va chidamliligi yapon larga chiroyli qurilish materiallari tayyorlashda qo‘l keldi. Uylarni ichki ajratib turuvchi harakatdagi to‘siqlar, fanarlar, elpig‘ichlar, hatto budda manaxlari uchun kiyim-“kamiko”, suv yuqtirmaydigan qog‘ozdan zontiklar yasashdi. “origami” – qog‘ozni taxlash san‘ati. Kichik arigamilarni jangchilar qilichlariga osib yurganlar, omad keltiradi deb, keyinchalik maxsus maktablar ochilib origami tayyorlashga o‘rgatildi. Lekin qog‘oz narxi qimmatligi uchun hamma ham foydalanolmasdi.

Yapon an‘anaviy kostyumlari. Yapon an‘anaviy kostyumi bir yarim ming yil davomida rivojlandi. Yapon erkak va ayollar kostyumlari estetik jihatdan qarama-qarshi xolatga ega:

Birinchidan, arestakratlar kostyumlarni kichkina bir bo‘lagi xaqida ham tashvishlanadilar. Ularni odmiligi, rangi, naqshinkorligi, silueti juda noqulay bo‘lgan. Ya‘ni siluetni takrorlamagan.

Ikkinchidan, dexqonlar kiyimi tana qismlariga mos qilingan. Ular kiyimlarini qulay, chidamli va arzon bo‘lishini xoxlaganlar. Kiyim insonning boyligi va jamiyatdagi tutgan o‘rnini ko‘rsatib turgan. Oddiy xalq kiyimi-kiyimlar o‘zagi bo‘lib, uning atrofida yapon lar turmush madaniyati rivojlangan. Yapon ko‘ylaklari srdda klassik bichimi bilan ajralib turadi, erkaklar va ayollar ko‘ylaklari bir xil bichimli bo‘ladi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar ichki kiyim sifatida ko‘ylak-“kosode” kiyishgan. U to‘g‘ri yaxlit bichimli, kalta keng yengli bo‘lgan. Yapon larda

ko‘ylak kiyish odat tusiga kirmasa ham bu ko‘ylakni birinchi kiyim sifatida kiyishgan.

“Xakama”- boy odamlar kiyimi. U belbog‘li, huddi qopsimon keng ishtonga o‘xshab, boldirni bir qismini yopib turgan. Ishchi oddiy odamlar “xakama-yubka” kiyishgan. U nisbatan keng, uzunligi to‘piqqacha, old va orqa qismi alohida belbog‘da uzun bog‘ich bilan bog‘langan. Oldingi en mato simmetrik holda bir tomonlama, pastka kengayib tushuvchi uchta taxlama qarshisidagi taxlama orqa en matoni o‘rtasidan o‘tadi.

Ustki kiyim kiyish tartibi quyidagicha: 16-asr boshida “kosode” ozgina shakli o‘egarib, ustki kiyim sifatida foydalanildi. “Kosode”- to‘g‘ri bichimli keng ham tor yengli va kichikroq yoqalidir. Kosode zamonaviy kimono sifatida bo‘lib, erkaklar va ayollarning hamma toifasi kiygan.

1. Yaponlar milliy kiyimi “kimono”. Ujuda qimmat turgan. Uni faslga va xolatga qarab tanlangan. Kimono so‘zi - “kiyishga chidamli narsa” degani. Kimono erkin, yopinchiq keng belbog‘ bilan bog‘lanadi. Kimonoga eng nafis kostyumlardan tortib hammasi kirgan. Faslga qarab kimono yozgi, astarsiz, bahorgi-kuzgi astarli, qishki paxtali bo‘lgan. Sovuq kunlarda bir necha qavat issiq paxtali kimono kiygan oddiy xalq -qulay kiyim kiyishgan. Uning qavati yilni fasliga bog‘liq bo‘lgan. Boylarning ko‘p qavatli kostyumlari, ularning jamiyatdagi mavqe‘ini ko‘rsatgan.

2. An’anaviy xalq kiyimi “xaori” kurtkasi bo‘lgan. Uni kimononi ustidan kiyishgan. Xaori – keng kiyim bo‘lib, erkin osilib turuvchi etak, keng eng choklariga to‘g‘rilab qo‘lda tikib chiqilgan.

3. Xaori etaklari tutashmagani uchun kurtka ko‘krakda bant bilan maxkamlanadi.

4. “Obi” belbog‘i kimononi ushlab turgan. Erkaklar obisi tor, ayollarda kengroq bo‘lgan. Obi kostyumning eng qimmatbaho qismi hisoblangan.

Ranglar. Kostyum tanlashda did va bosiqlik darhol seziladi. Erkaklar kiyimi bir xil rangda, jiddiy bo‘lgan. Ishton esa ochiq rangda bo‘lgan. Mato- kiyimga ipli, ipakli, junli mato ishlatilgan.

Shlyapa “kammuri” –ipakli matodan tayyorlanib, lak bilan qotirilgan. Kammuri – egasini mavqe’ini ko’rsatadi. Taniqli zodagonlar – ochiq to‘q siyoxrangli kammuri kiysa, pastroq tabaqadagilar qora rangda kiyishgan.

Soch turmaklash ham mavq’eni belgilagan. Yuqori tabaqadagilar sochini tepaga turmaklasalar, oddiy xalq sochini kalta kestirgan. Oqsuyaklar yaqingacha ham soqol va muylab o’stirganlar. Samuraylar yuzini silliq qirib yurgan. Monaxlar sochini qirdirib, yuzidagi tuklarni yulganlar.

Grim odamni savlatini belgilagan. Oq yuzlilar chiroyli sanalgan. Shuning uchun amaldor erkaklar xotinlar bilan bir qatorda yuzlarini oqartirib yurardilar. Oddiy odamlarni shomolda qoraygan yuzlaridan farq qilish uchun, paxtadan yasalgan xaltaga tozalangan suvda xo’llanib, uni guruch uni bilan to’ldirib, yuzlarini pardozlashgan. Hattoki qo’rg’oshinli beliladan ham foydalanib, uni zaharliligidan ko’pchilik o’lib ketgan. Qoshlarini qirib tashlab qora tush bilan ikki ta chiziq o’tkazishgan. Lablarini qip-qizil lab bo’yog’i bilan bo’yashgan.

Kimononi nasliy gerb bilan, naqshlar bilan, faslga, turiga va kayfiyatiga qarab bezashgan. Xaori odatda to‘q ranglarda bo’lgan, ko’pincha yo’l-yo’l lekin bayramona marosimga xos, qora shoyiga oq gul gerbi bilan bezatilgan. Qo’shimchalar. Belbog’ga “netske” maxkamlangan.

Oddiy odamlar somondan qilingan sandal kiyishgan. Yomg’ir yog’sa milliy oyoq kiyimi – “geta” kiyishgan. Geta – tagi yog’ochli skameyka shaklida bo’lgan. Amaldorlar getasi laklanib, ichiga sovuq o’tmaydigan qilib yasalgan. Oyoqlariga ipli paypoq kiyishgan. Uni “Tabi” deyilib, bosh barmoq ajralib turgan.

Ayollar kostyumi. Avvallari ichki kiyim tagidan kiyiladigan ko’ylak – “xakama”, va ustidan bir nechta keng yengli nakidka kiyar edilar. Qanchalik ustma-ust kiyilsa, uning egasini mavqe’i bilinadi. Kostyumlarni 12 qavat qilib kiyilardi. 12 – asrdan boshlab besh qavat kiyila boshladi. Kostyumni ketma –ket kiyilishi ushbu tartibda:

Sonni oq mato bilan o‘rashgan.

Ustidan yopishib turuvchi xalat ya’ni “dzyuban” kiyilgan.

Ustki kiyim. Dzyuban ustidan junli xalat- “sitari” kiyilgan.

Uning ustidan kimono kiyilgan.

Kimono ustidan “xaori” kurtkasi kiyilgan.

Xaori ko‘krakdan bant bilan bog‘langan.

Ayollar kiyimi uzun ergacha tegib turgan.

Obi belbog‘i beliga bant shaklida bog‘lanadi. Belga bog‘laydigan kapalaksimon belbog‘lar 7 tagacha bo‘lgan. Ko‘p kerkali narsalarni belbog‘ orasiga qistirishgan, agarda obiga sig‘masa, yengiga qistirishgan.

Kimononing matosida yilning hamma fasllari namoyon bo‘ladi. Olcha guli, bambuk, klen barglari va xokazolar. Dzyuban xalati och rangli bo‘lgan.

Ko‘pgina ichki ko‘ylaklar bir vaqtda birga kiyilgan va ular ipakdan bo‘lgan. Kostyum matosi ipk, paxta, yunglardan to‘qilgan.

Yapon iyada bosh kiyim kam kiyilgan. Ayollar sayrda yoki ishga keng somon shlyapalar kiyishgan. Sovuqda ro‘mol va kapyushonkaga o‘xshagan nakidkalar o‘rashgan.

Ayollarda qalin qora uzun sochlar chiroyli sanalgan. Avvallari ayollar sochlarini yoyib yurishgan, keyin boshga katta tutam qilingan. Aslzodalar soch turmagi juda murakkab lekin latofatli edi. Soch turmagini saqlash uchun bosh ostiga yog‘ochdan yoki sochdan tayyorlangan taglik qo‘yilgan. Agar soch ideal bo‘lmasa, parik kiyishgan.

Ayollar va erkaklar bir xil upa-elikdan foydalanganlar. Yuzlariga upa surib, qoshlarini terishgan. Peshonasiga ikkita qora chiziq tortishgan. Og‘izlarini kichik ko‘rsatish uchun lablarining o‘rtasiga gul g‘unchalaridan ezib tayyorlangan xol qo‘yishgan. Yapon lar ovqatida kamit kam bo‘lganligi sababli yoshlari kattalashgani sari tishlari qoraya boshlagan. Lekin ko‘p tabaqalarda qora tish urf bo‘lgan. Erli ayollar tishlarini qora lak bilan bo‘yaganlar, bu etuklikni bildirgan.

Soch turmagini bezash uchun shpilkalar fil suyagidan qilingan. Karal shoxchalari, toshbaqa kosasi, bambuk yoki temir narsalarni ochiq rangdagi bo‘yoqlar bilan bo‘yab, ishlatishgan.

Belbog‘ga tugma sifatida “netske” taqilgan. 12-asrda “netske” kichkina xaykalcha sifatiga ega edi. Zontlar keng qo‘llanilgan. Issiqda ham yomg‘irda ham aslzoda ayollar gulli elpig‘ichlar tutardilar, unda she’rlar ham yozilgan edi. Oltin, kumush irogliflar bilan yapon larda hattoki elpig‘ich til imlosi paydo bo‘ldi.

Ayollar uzun paypoq o‘rniga kalta paypoq kiyishgan. Tagi qalin yungli matodan, o‘zi esa ipak yoki paxtadan bo‘lgan. Bu oyoq kiyimda uyda, teatrdan va bodatxonalarda yurishgan. “Gete” har-xil bo‘lgan: skameykasimon taglik yoki baland platformada.

Nazorat savollari:

1. Yapon iya san’ati va madaniyatini ta’riflab bering. Mamlakat san’at va madaniyatining gullab-yashnashiga turtki bo‘lgan omillar haqida nimalarni bilasiz?
2. Yapon iyada go‘zallik timsoli qay tariqa baholanadi?
3. Mato turlari, liboslarda rang va bezaklarning o‘ziga xos yechimi haqida so‘zlab bering.
4. Yapon an’anaviy liboslari haqida nimalarni bilasiz?
5. Yapon erkaklarining qanday kiyim turlarini bilasiz? Ularni ta’riflab bering.
6. Ayollarning Xeyan davriga xos bo‘lgan libosi va kiyinish uslubi haqida so‘zlab bering.
7. Yapon ayollarining kiyim turlarini haqida ma’lumot bering.

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Xasanbaeva G. K. Chursina V.A. “Kostyum tarixi” T. O‘zbekiston 2002.
2. Komissarjevskiy F.F. “Istoriya kostyuma” Minsk 2001.
3. Zaharjevskaya R.V. “Istoriya kostyuma” Moskva 2005.

4. Plaksina.E.B.“Istoriya kostyuma.Stili i napravleniya” Moskva 2003.
5. Djoan Nann . “Istoriya kostyuma 1200-2000 ”
6. Tereshkovich T.A. «Slovar modi» Minsk 1999
7. Parmon F.M. “Yevropeyskiy kostyum: stil i moda” M 1982.
8. Parmon F.M. “Yevropeyskiy kostyum: stil i moda” M 1982
9. Kibalova L. i dr . «Illyustrirovannaya ensiklopediya modi»
- 10.Kaminskaya.N.M. “Istoriya kostyuma” Moskva 1977.
- 11.Kireeva.E.V. “Istoriya kostyuma” Moskva 1976.
- 12.Mersalova.M.N. “Istoriya kostyuma” Moskva 1972.

10 - MAVZU: **Antik davr va Ilk o‘rta asr O‘rta Osiyo kostyumi.**

(ma’ruza-2soat)

O‘rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar to‘qimachilik sanoatining paydo bo‘lishi tosh asri – neolit davriga borib taqalishidan dalolat beradi. Agar arxeologik tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlarga nazar soladigan bo‘lsak, Kopetdog‘ etaklarida topilgan Jaytun madaniyatiga xos namuna yodgorlik yuqoridagi fikrimiega misoldir. Bu erda olib borilgan arxeologik qazilmalar chog‘i to‘quv dastgohlari ham topilganligi esa bunga dalil bo‘la oladi. Kopetdog‘ bag‘ridagi mintaqada odatda tog‘li tumanlarga xos ravishda chorvachilik rivojlangan. Shu sababli bu tumanlarda kiyim-kepchalalar, kundalik ashyolar, masalan, ko‘rpa-to‘shak, yostiqlar ham jundan tayyorlangan. Shu tariqa mintaqada jun to‘qish sanoati yuzaga kelgan. Garchand Markaziy Osiyoda alohida e‘tiborga molik to‘qimachilik sanoati taraqqiy etish tarmoqlari aniqlanmagan bo‘lsa-da, o‘lkaga yondosh va qo‘shni mintaqalar tarixi va madaniyati o‘rganilganda, topilgan yodgorliklar bu erlarda eneolit davrida to‘qimachilik sanoati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.¹

¹ *Альбаум Л.И.* Балалик-тепе. К истории материальной культуры и искусства Тохаристона. Т., 1960

Oʻrta Osiyoda III–V asrlarga kelib, quldorlik davri tugab, feodalizm kirib keladi. VI–IX asrlarda mintaqada feodalizm butunlay shakllanib boʻladi.

V asrda xunn qabilasiga mansub eftalitlar Markaziy Osiyoni bosib, oʻz davlatini barpo etadi. Eftalitlar hukmronligi davrida feodal munosabatlari avj oladi. Eftalitlar zarb etgan tangalar savdo-sotiq ishlarida faol qatnashadi. Eftalitlar tub aholi bilan aralashib, oʻtroq hayot kechira boshlaydi. Hayot yaxshilanadi, qishloq-shaharlar, ibodatxonalar bunyod etiladi.

VI asrda hozirgi Oltoy oʻlkasi oʻrnida koʻchmanchi turkiy urugʻlar birlashadi. Ana shu birlashish natijasida turkiy hoqonligi tashkil topadi. Keyinchalik turkiy hoqonlik taʼsiri Markaziy Osiyo xalqlari taqdiriga taʼsir etadi. Turkiy hoqonlik taʼsirida Oʻrta Osiyoda hukmron eftalitlar davlati inqiroega yuz tutadi. Turkiy hoqonlik davrida savdo-sotiq rivojlanadi, Gʻarbiy Osiyo, Eron va Markaziy Osiyodan boshqa oʻlkalar, Xitoyga betoʻxtov savdo karvonlari qatnab turadi. Buyuk ipak yoʻli osoyishtalik bilan taʼminlanadi. Oʻsha davrda qurilgan shaharlar karvon yoʻllariga tutashligi bejiz emas.

Arxeologik qazilmalar hamda tarixiy manbalardan maʼlum boʻlishicha, Soʻgʻdiyona, Baqtriya davlatlarida madaniyat va sanʼat ravnaq topadi. Ilk oʻrta asrlarga mansub devorga chizilgan rangtasvirlarda ajdodlarimizning kiyimlari, ana shu kiyim-boshlarning turlari hamda ularning xususiyatlari, oʻsha davrda toʻqilgan matolarni koʻrish mumkin. Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent, Bolaliktepa va Xolchayonda olib borilgan arxeologik qazilmalar payti topilgan sanʼat namunalari bu oʻlkada oʻrta asr madaniyatining yuksak darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Afrosiyobda topilgan soʻgʻd yozuvlari Oʻrta Osiyo kostyumi tarixini chuqur oʻrganishga imkon beradi. Masalan, Bolaliktepadagi arxeologik qazilmalarda topilgan suratlarda tasvirlangan erkaklar yaktak kiyib

olganligi tasviri e'tiborni o'ziga tortadi². Shu o'rinda bir narsani qayd etish muhimdir: "yaktak" atamasi XII–XIII asrlardagi yozma manbalarda uchraydi. Devoriy rasmlar hamda arxeologik tadqiqot natijalaridan ilk o'rta asrlarda Toharistonning boy xonadon erkaklari ipakdan, avom esa bo'zdan chakmon kiyganligi ma'lum bo'ladi. Tohariston xalqi yelkasi yopishib turgan va etagi trapetsiyasimon kiyim kiygan. Asosan ust-bosh uzun, engsiz, ba'zan keng yengli qilib bichilgan. Aksariyat bu kiyimlarning yon tomonida yirmoch-qiyiq joyi, yonlama yoqasi bo'lgan. Shunisi e'tiborga sazovorki, hozirga qadar o'zbekistonliklar libosida bu jihat qolib ketgan. Yana bir ma'lumot kishini qiziqitirmay qolmaydi. Farg'ona vodiysi, Munchoqtepada olib borilgan arxeologik qazilmalarda antik davr va ilk o'rta asrlarga mansub kiyimlar namunalari, asosan, erkaklar, ayollar va bolalar ust-boshlari topilgan. Ushbu namunalar olimlar tomonidan chuqur o'rganildi.

Ajdodlarimiz, xususan, ilk o'rta asrlar liboslari o'rganishda biega ajoyib madaniy meros bo'lib qolgan miniatyuralar katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Devorda aks ettirilgan rasmlar hamda koroplastika san'ati biega o'sha davrlar O'rta Osiyoda ishlab chiqarilgan matolar va xalqning kostyumlaridan batafsil ma'lumot beradi. Bu davrda tog'li tumanlarda jun, shaharlarda ipak mato ishlatiladi. Matolar organik bo'yoqlarga bo'yalgan.

Ilk o'rta asr kostyumida, shubhasiz, kushon, eftalitlar, sosoniylar, turkiy qavmlar, hindiy va forsiylar ta'siri katta bo'lgan. Tabiiyki, tub aholi kiyimlariga ana shu elementlar ta'sir etgan, shular asosida muayyan uslub yaratilgan.

Ayollar ko'ylagi uzun bichimda, ipak matodan tikilgan va to'piqqacha tushib turgan. Etaginging eng pastidan, ikki yon tomonidan 10-15 sm qirqib qo'yilgan, belga esa belbog' (kamar) bog'langan, bu o'ziga xos bezak bo'lgan.

Aynan bu davrga xos bolalar kiyimlari ham ipak matodan tikilgan. *Bolalar kiyimi* kalta qilib tikilgan va beldan sal pastga tushib turgan. Ko‘ylak etagidan, ikki yon tomonidan 10-15 sm qirqib qo‘yilgan. Yoqalari to‘g‘ri bichilgan va belga belbog‘ bog‘langan. Shuningdek, *qiz bolalar ko‘ylagining* ko‘krak qismi, yenglari uchi va etaklari maxsus qadama toshlar bilan gulsimon qilib bezalgan. Ko‘ylakning o‘ng qo‘l tomonida o‘ng cho‘ntak qilingan. Ushbu libosga munchoqlar bilan bezak berilgan, yenglari va ko‘ylak qismiga mayda marjonlar bilan naqshin kashta tikilgan.

Devoriy rasmlarda V asr erkaklari baquvvat, yuzlari yumaloq, ko‘zlari bodom shaklida, sochli va soqolsiz tasvirlangan. Erkaklar kiyimlari, jumladan, *kalta kaftan, ko‘ylak, keng ishtonlar* hamda *baland qo‘njliliklar* otda yurishga mo‘ljallangan. *Yelka kiyimida* yon qiyiqlar yordamida trapetsiya shaklida tunikasimon bichim hosil qilingan. Yon qiyiqlar qo‘ltiq yoki belidan tikilgan. Ishton uch qism, ikkita poycha va bitta og‘dan tashkil topgan. Shu o‘rinda kiyim egasining qaysi qavmga mansubligi ham libosda ko‘rinib turgan. Masalan, eftalitlar kostyumiga quyidagi jihatlar xos edi: kaftan tunikasimon bichilib, oldi ochiq, bir tomonlama qaytarmali qilingan; bilagidan toraytirilib, yenglari uzun, yon kesikli bo‘lgan. Kaftan yoqasi, yon kesiklari, oldi, etagi, engining uchiga boshqa mato bilan bezak berilgan. Ishtonlar boldirigacha yon choki o‘egacha rangda hoshiya qilib bezatilgan.

Shuni qayd etish joizki, o‘sha davrlar erkaklar kostyumida o‘tmishdan qolgan kiyimlar bilan birga ikki tomonlama qaytarmali turkiylar kaftanlari keng tarqaladi.

Asrlar o‘tishi bilan xalq turmushi ham o‘egaradi, VII asr oxiri–VIII asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari kostyumida o‘egarishlar yuz beradi, uning bichimi ancha-muncha murakkablashadi. Badanga yopishib turishiga qulaylik yaratadigan o‘tkazma yangli kiyim paydo bo‘ladi. Kushonlarga kiyimlariga xos tunikasimon ko‘ylagining ta’siri kaftan va yopinchiqlar bezagida yaqqol seziladi. Yopinchiqlarda turli matolardan

qilingan jiyaklar – hoshiyali qiyimlar dunyoga keladi. Endi liboslar etaklari va yoqalarining bezaklari o‘egaradi.

Kiyimlar uzunligi esa endi tizzadan pastga tushib turadi. Tunikasimon bichimga ham o‘egarish kiritiladi: englar yelkadan sal quyiroqqa o‘rnatiladi va yelka choklariga bezak uchun mo‘ljallangan matodan jiyak qo‘yiladi.

O‘sha davrda erkaklarning ham, ayollarning ham kostyumlarida taqinchoqlar muhim ahamiyat kasb etgan. Taqinchoqlar egasining jamiyatda tutgan o‘rnini namoyish qilgan. Ayollar singari erkaklar ham isirg‘a va qo‘llariga bilaguzuk, oyoqlariga ham shunga mos taqinchoqlar, marjonlar, ko‘krak osilchoqlari va kamarlar taqqanlar.

Ilk o‘rta asr kostyumi haqida fikrimiega xulosa yasarkanmiz, bir narsani nazardan qochirmasligimiz joiz. Ilk o‘rta asrlarda (V–VII asrlar) kishilar kostyumlari birgina Markaziy Osiyo emas, balki butun Buyuk ipak yo‘lida joylashgan xalqlar, el-elatlarning etnik va ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan chambarchas bog‘liq ravishda tadrijiy ravishda rivojlanib borgan.

11- MAVZU: **Kech o‘rta asr o‘rta Osiyo kostyumi.**

(ma’ruza-2soat)

X asr o‘rtasiga kelib, feodal xo‘jaliklari tobora rivojlanadi, cho‘l-sahroda yashaydigan qipchoqlar, Volga bo‘yi hamda boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Bu davrda fan va madaniyat ham taraqqiy etadi. XI – XII asrlar Markaziy Osiyoda bu borada katta ishlar qilinadi. Ajdodlarimizning fan va madaniyat bobida yaratgan olamshumul yutuqlari jahon tamadduniga munosib dur bo‘lib qo‘shiladi. Buxoro, Poykent, Afrosiyob, Varaxsha, Axsikentda o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar materiallaridan bu haqda ma’lumot olishimiz mumkin. Hozirgi ilm-texnika rivojlangan XXI asrimiega qadar saqlangan ajoyib me’moriy obidalar, madrasalar va maqbaralar fikrimiega yorqin dalil bo‘la oladi.

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyo xalqining oʻrta asrlardagi kiyimlari haqida mashhur sayyohlar Marko Polo, Gilom Rubrik, Klavixo, Vamberi xotiralarida batafsil yoritiladi. Oʻrta Osiyoda shayboniyxonlar hukmronligidan soʻng xalq kiyimlarining asosiy turlari saqlanib qoladi. Buxoro, Samarqand, Shahrisabz kabi oʻlkaning yirik shaharlarida hunarmandchilik rivojlanadi. Bu, albatta, xalq kostyumida aks etmay qolmaydi.

Kech oʻrta asrlar, XVII–XVIII asrlarda anʼanaviy bichimdagi liboslar bilan bir qatorda Buxoro, Samarqand, Xiva kabi katta shaharlarga xos kiyimlar ham urf boʻladi.

Oradan bir asr oʻtib, chor Rossiyasi Turkistonni istilo qiladi. XIX asr asrning ikkinchi yarmi oxirlab boradi. Bu davrda oʻlkada ishlab chiqarish imkon qadar ishga tushadi, yengil sanoat yoʻlga qoʻyiladi. Oʻlkada fabrikalar ishga tushadi, turli gazlamalar ishlab chiqarishni boshlaydi. Endi anʼanaviy kiyimlar yangi elementlar bilan toʻldirila boshlanadi. Yaxlit bichimli, keng uzun, kishining qomatini yashirib, toʻkilib turuvchi koʻylaklar oʻrniga koʻkrakburma–koketkali koʻylaklar urf boʻladi. Qisqa qilib aytganda, tarixan bu davrda kechayotgan voqea-hodisalar, ilm-texnikaning rivojlanib borishi Oʻrta Osiyo xalqi kiyinish madaniyatiga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi.

Erkaklar kostyumi. Kech oʻrta asrlarda erkaklar kostyumi *ustki* va *ichki*, *yelka* va *bel* kiyimlaridan tashkil topgan.

Erkaklarning ustki yelka kiyimlariga har xil Chopon va chakmonlar kirgan. Oʻsha davrda oldi ochiq Chopon – toʻn juda ommabop edi. Choponning bichimi bir xilda, tunikasimon bichilar, u faqat detallari, bezaklari, matosi va kiyish usulida farqlanardi. Aksariyat oldi ochiq kiyimlarga tugma qadalmas, ular kalta va yenglari uzun, baʼzan esa engsiz tikilardi. Toʻn yoqalari aksariyat qora rangli matodan qilingan. XVI asrda Buxoroda zarbof toʻn yoqalariga kashta tikilgan. Shu oʻrinda bir narsani

aytib o'tish joiz: Chopon – to'nni jamiyatning yuqori tabaqa kishilari kiygan. Ular kiygan to'n o'zining qimmatbaho, serhashamligi bilan avom halqnikidan farq qilgan. Odatda Choponlar yalangqavat qilinmagan, astarli qilingan. Chopon orasiga paxta solib, qavilgan. Chopon astari matosi va rangi sirti – avrasidan farq qilgan. Aksariyat Choponlarga izma qilingan, ba'zan esa tugma qadalgan yoki bog'ichdan foydalanilgan. Tugmali Choponlarni o'ziga to'q kishilar kiyganlar. XIX asrga kelib, Choponlarga tugma qadash urfdan chiqqan.

Zodagonlar to'nlari, oldi ochiq liboslariga naqshin kashta tikilgan. Kashta odatda libosning yelka, old va orqa tomonida tikilgan. To'n, Chopon eni, bo'yi bilan egasining jamiyatda tutgan o'rnini, shuningdek, uning kasbini bildirib turgan. Erkaklar Choponining yana bir turi – kalta yengli Chopon *koba* bo'lib, uning bir necha turi uchragan. Koba Choponi engining uzunligi bilak o'rtasigacha kelgan, etagi esa kengaya borgan, uning chekkalariga mag'iz qilingan. XV asrda shu xil Choponning ikki yonida kesik qilingan, bazan orqasida ham kesigi bo'lgan.

Uzun yengli *joma* yoki faradjiga nisbatan *koba* kaltaroq bichilgan. Bunday Choponlar trapetsiyasimon qaytarma yoqali va oldi qaytarmali qilib tikilgan. Bu davrda istilochi mo'g'ullar orqali kirib kelgan engsiz va yelkasi keng Choponlar ham kiyilgan. Yana bir Chopon, oldi ochiq kiyim turi – *jubba* bo'lib, u asimmetrik ravishda tugmalangan. Jubbani aksariyat jamiyatning yuqori tabaqasidagilar kiygan.

Sharq miniatyuralarida oldi ochiq liboslar bilan birgalikda oldi berk libos kiygan odamlar ham tasvirlangan.

Erkaklar ustki kiyimlari ostidan turli ko'ylaklar kiygan. Bu ko'ylaklar ustma-ust, birdaniga ikkitasi kiyilgan. Erkaklar ichki ko'ylagi – *pirohan* deb atalib, u yupqa oq matodan tikilgan. Pirohan ustidan kiyiladigan ko'ylak esa *peshvoz* deb atalib, u aksariyat zangori, ko'k va yashil va jigarrang matolardan tayyorlangan. Ko'ylak engi keng va uzun qilingan. Yoqa o'mizi tor va chuqur o'yilgan, u cho'ziq yoki yopiq qilinib, to

qoringacha vertikal tarzda kesigi ham bo'lgan. Yoqa o'mizining ziyi qavilgan, u ba'zan tugmalangan. Ustki ko'ylak bo'yi tizzagacha tushgan, ichki ko'ylak esa undan uzunroq bo'lgan, tizzagacha, boldir o'rtasigacha yoki to'piqqacha tushgan.

Miniatyuralarda tasvirlanishicha, *erkaklari ishtonlari* ikkita alohida-alohida poycha va og'dan iborat bo'lgan. Ishtonning tepasi keng bo'lib, pastga tomon torayib borgan.

XV asr oxiriga borib, bel kiyimining yana bir turi paydo bo'ladi.

Erkaklar *bosh kiyimlari* haqida so'zlaydigan bo'lsak, uning xillari ko'p bo'lgan.

Erkaklar bosh kiyimining asosiy turlaridan yana biri *salla* hisoblanadi. Zodagonlar o'raydigan salla – oq; din va ilm ahli, shoiru shuaro, zangori va yashil rangda bo'lgan; jismoniy mehnat bilan shug'ullanadigan kishilar sallasi yorqin tusda bo'lgan. Odatda salla uchun sidirg'a yoki yo'l-yo'l mato tanlangan.

Bu davr erkaklar oyoq kiyimlari, poyabzallariga *etiklar* va *kavushlar* kirgan.

Ayollar kostyumi. Miniatyuralarning dalolat berishicha, bu davr ayollar libosi erkaklarnikiga o'xshash bo'lgan. Ayollar kostyumining turlari, ularning nomlanishi, tuzilishi, bichimi, bezaklari ham erkaklarnikiga o'xshab ketgan. Ayollar ichki kiyimi *kurta* bo'lib, u tunikasimon bichilgan, uzun yengli, oq rangda bo'lgan. Ichki *bel kiyimi* ishton bo'lib, u *ezor* deb atalgan. Ezorning uzunligi to'piqqacha tushib turgan, ba'zida etik yoki mahsi qo'njiga tiqib qo'yilgan.

Ayollar kiyimlarida ular yashagan joy koloriti, urf-odatlar aks etib turadi. O'rta Osiyoning boshqa viloyatlaridan ko'ra Buxoro liboslari yorqinligi, serhashamligi bilan farq qilardi. Samarqand liboslari esa oddiyroq edi. Ayollari kiyimlari juda uzun bo'lib, oyoqni berkitib turgan. Koba va Choponlar sidirg'a matodan bichilib, ularga zardo'zi kashta tikilgan.

Oʻrta asrlar oʻrtalarida ayollar kostyumi yanada boyidi. Yana liboslarga zardoʻzi kashta tikila boshlandi (libosning orqasi, koʻkrak va yelkalariga tikilgan). Bu davrda oʻlkada Eron bilan aloqalar yaxshilanadi. Bu esa Buxoro kostyumida yaqqol koʻega tashlanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari kostyumi

12-MAVZU: Qozoq kostyumi.

(maʼruza-2soat)

Reja:

1. Qozoq xalq madaniyati va sanati
2. Erkaklar kostyumi
3. Ayollar kostyumi.

Qozoq xalq sanʼati tarixiga razm soladigan boʻlsak, qadim zamonlarda ornament – chizgi biror diniy maʼnoni anglatganligining guvohi boʻlishimiz mumkin. Naqsh cheqilgan, ornament tushirilgan tumor baxt va daromad ramzi, diniy aqidalar belgisi hisoblangan. Qoʻchqor shohi – *qoshkar muyiz* (qoʻchqor muguz); kiyik shohi – *bugʻu muyiz* (bugʻumuguz); ot kallasi – *ambas* kabi shunday maʼnodagi ramzlar qozoq xalqi yaratgan chizgilarasosini tashkil etadi.

Ustki kiyimlarga yulduzsimon rasm – *juldir gul, juldir urnek, top juldir* kabi rasmlar bilan kashta tiqilgan. Toʻqqizta tepalik – *togiz tobeeng* qadimiy chizgilardan biri hisoblanadi.

Ranglar kontrast usulda ham tanlangan (oq va qora). Har bir rang esa oʻz maʼnosiga ega boʻlgan:

- havorang – osmon ramzi;
- qizil – olov ramzi;
- oq – haqiqat, baxt, xursandchilik ramzi;
- sariq – aql-idrok ramzi;

- qora – er ramzi;
- yashil –bahor ramzi.

Ko‘p asrlar davomida qozoq kostyumlarining matolari o‘egardi, bichimlarga o‘egarishlar kiritildi, kiyim bezaklari paydo bo‘ldi. Tabaqalar orasidagi farq asosan kishilar kiygan kiyimlarida yaqqol ko‘ega tashlangan. Aytish mumkinki, bu farq ayniqsa mato turi va tayyorlanish sifatida bilingan.

G‘arbiy Qozog‘istonda bayramlarda kiyiladigan ayollar va qisman erkaklar kiyimlari qimmatbaho duxoba, ipak-shohi matolardan tiqilgan, kumush tantachalar bilan bezalgan. Ko‘ylaklar zarli iplar bilan kashta qilib tiqilgan, bosh kiyimlarga esa kumush qimmatbaho toshlar qadalgan, tovus patlari qistirilgan va marjonlar terilgan.

Ushbu bezaklar jamiyatning yuqori qatlami hisoblangan xon, sulton, biy, boylari kiyimlariga taalluqli. Oddiy xalq aksariyat qo‘lda to‘qilgan jundan *shekpen* (chakmon), bo‘z, hayvonlar terisidan kiyim tikib kiygan. Teridan kamar, poyabzal tiqilgan, turli ashyolar, jumladan, egar-jabduqlar tayyorlangan.

Erkaklar kostyumi. Erkaklarning ichki kiyimi ko‘ylak va ishton, yelkaga tashlanadigan ustki kiyim hamda shalvordan iborat bo‘lgan. Shalvorlar asosan etikning qo‘njiga tiqib qo‘yilgan.

Qozoqlar XVIII asrning oxirlari-XIX asr boshlarida egnilariga *jejde*, *jegde*, *jelde* kabi kiyimlarning hammasini bir paytda ustma-ust kiygan.

Dambal–erkaklarning ichki ishtoni hisoblangan. Erkaklarning ichki va ustki ishtonlari bir-biridan uncha farq qilmagan. Qishda qo‘y terisidan mo‘ynasi ichki tarafga o‘girib tiqilgan ishton - *teri shalbar* (teri shalvor) yo bo‘lmasa, paxta yoki jun solib qavilgan shalvor kiyilgan.

Boylar esa ipak bilan kashta tiqilgan, naqsh cheqilgan, qizil yoki sariq rangli, maxsus ishlov berilgan, ya’ni oshlangan mayin, baxmalsimon charmdan tiqilgan ishton kiygan. **Sim** turkiy xalqlarning juda keng tarqalgan ishtonlaridan bo‘lib, u hozirgi vaqtgacha Semireche, markaziy va

sharqiy Qozog‘iston xalqlari orasida (qoraqalpoqchasiga *sim*, qirg‘izchasiga - *shim*, o‘zbek va uyg‘urlarda - *shim*, uyg‘ur va chuvashlarda - *yem*) hamon urfdan chiqqan emas.

XIX asrda turkiy xalqlar orasida juda keng tarqalgan ichki ishtonlar *dambal*, *tambal* yoki *ishton*, ustki ishtonlar esa *shalbar* deb atalgan.

Ko‘ylak ustidan erkaklar yengil, oldi ochiq, tugma taqiladigan, gavda qomatiga moslab bichilgan, etak tomoni xiyol kengaygan – *kemzal* (kamzul) kiygan. U tiqilishiga qarab, yangli kamzul – *je‘di kemzal*, engsiz kamzul – *je‘tsiz kemzal* va kalta yangli kamzul – *sholaq je‘ kemzal* turlariga bo‘lingan. Kamzul astarli qilib tiqilgan. Sovuq tushganda kamzul astari jun matodan qalin qilib, avrasi bilan birga qavilgan. Qishda esa kamzul astari mo‘ynali qilingan.

Qozoqlar yilning qaysi fasli bo‘lishidan qat’iy nazar, ustki kiyim – *shapan* (Chopon) kiygan. Erkaklarning ustki kiyimlari: mo‘ynadan ikki qavat qilib tiqilgan chakmon – *shekpen*;plash-yopinchiq – *kebenek*; kigiz yopinchiqlar, avrasiz po‘stin – *ton* (to‘n), mo‘ynali po‘stin – *ishikhisoblangan*. Ustki kiyim turlari, uzunligi va eni, yupqa va qalinligi bilan farq qilgan. Ayrimlari, kigiz yoki mo‘ynali qilib tiqilgan.

Aksariyat katta yoshli kishilar bosh kiyim kiygan. Ular sochlarini qirib, kichkina qalpoqcha – do‘ppi, uning ustidan boshqa bosh kiyimlarni kiyganlar. Do‘ppilarning - *takiya va kepes* kabi turlari ham bo‘lgan. Yozda do‘ppi va boshqa bosh kiyimlar o‘rniga boshga *oramal* – kichik oq ro‘mol bog‘langan. Yoshlarning ro‘mollariga kashta tiqilgan. Do‘ppi baxmal, movut, ipak, sidirg‘a va yo‘l-yo‘l matolardan tayyorlangan. YOzgi yengil *qalpaq*; kigiz qalpoq va chekkasi mo‘ynali bosh kiyimlar; qishki *timak*,maxsus bichimli, mo‘ynali telpak qozoqlarning ustki bosh kiyimlari sanalgan.

Timak (tumoq)orqasi uch bo‘lakdan iborat, peshona qismi bo‘rtib chiqqan, orqa tarafidagi bo‘lagi kattaroq bo‘lib, bo‘yin va yelkalarini yopib turgan .

Erkaklar bosh kiyimiga chit astarli, qora movutdan tiqilgan *jalbagay* ham kiradi. *Jalbagay* qattiq bo‘ron turgan vaqtlarda *timak (tumoq)* ustidan kiyilgan, shunga o‘xshash boshqa bir bosh kiyimi *dalbay*, deb ataladi. Hukmdorlar, sultonlarning bosh kiyimlari konussimon uzun qalpoq shaklida bo‘lib, hoshiyasi keng va qayrilib turgan. Qalpoq och pushti yoki qizilrang kimxob bilan qoplanib, hoshiyasiga yashil rangli zar iplar bilan kashta tiqilgan. YO bo‘lmasa, qalpoq kumushrang parcha bilan qoplanadi va do‘ppi ustidan kiyilgan .

Qozoq erkaklari oyoqlariga yumshoq poshnasiz mahsi – *masi* ichkaridan tashqariga chiqqan kavush - *kebis* kiygan. Erkaklar poyabzalidan yana biri – *kiiz etik* (kigiz etik) hisoblanadi. Erkaklarning kishki etiklari - *saptama etik, dau etik, baypaq etik* kiyilgan.

Ayollar kostyumi. Qadimda qozoq ayollari *ishko‘ylek*(ichki ko‘ylak) – ich kiyimini kiygan. Ich ko‘ylak uzun, keng, engsiz bo‘ladi, yelkasi ensiz, yoqa o‘mizi keng o‘yiladi. Oldi qirqimli, bog‘ich bilan bog‘lab qo‘yiladi, ko‘ylak uzunligi tizzagacha keladi, yengil, oq matodan tikiladi.

Ayollar ichki ko‘ylak ustidan *ko‘ylek*(ko‘ylak) kiygan. Ko‘ylakning oldi yopiq, yoqali, old qismida qirqimi bo‘lgan, bo‘yniga bog‘ich bog‘lab qo‘yilgan. Keyinchalik bog‘ichlar o‘rnini tugmachalar egallaydi. Boyvuchcha ayollar ko‘ylaklari ipak, atlas, baxmal va parchadan tikiladi. Yosh juvon- qizlar ko‘ylaklarining ko‘krak qismi, etagi, eng uchlariga kashta tikiladi, tesma va turli bezakli choklar bilan bezatiladi .

Kundalik kiyim uchun paxtalik matolar tanlangan. Yoshlar ayniqsa qizil rangni yoqtirgan. Yoshi o‘ttizdan oshgan ayollarga qizil rangli yoki qizil rang bo‘lgan guldor matolardan ko‘ylak kiymagan.

Qizlarning ko‘krak oldi ochilib qolmasligi uchun badan maxsus ko‘krakpech – *alqa onirshe* bilan to‘silgan. Turmushga chiqqan juvonlar esa ko‘krak qismini *kimeshek* yopib, bekitgan.

Ayollar ko‘ylak ustidan – *kemzal* (kamzul) kiygan. Kamzullar tiqilishiga qarab turlicha atalgan: yenglisi *jendi kemzal*, engsizi *jengsiz*

kemzal, kalta yenglisi *sholaq jeng kemzal* deb atalgan. Ba'zi joylarda bu kiyim *beshpent* atalgan (Semirecheda - *meshpet*).

Ba'zan engsiz kiyim *kemzal*, yengligi esa *beshmet* deb atalgan. Bunday kamzulning boshqa nomlari ham bo'lib, lekin ular kam tarqalgan.

Sharqiy tumanlarda kamzullar yopiq va tikyoqa bo'lgan. Ayollar kamzullari qomatga moslab tiqilgan, etak qismi esa pastga qarab kengayib ketgan. Uzun kamzullardan tashqari yosh juvonlar uzunligi belgacha yoki sonning o'rtasigacha keladigan kalta nimchalar kiyib yurgan.

Dambal va *shalbar* ishton qozoq ayollarining bel kiyimi hisoblanadi. Dambal – ishtoni turfa ranglardagi chit matolardan tiqilgan .Ustki ishton – *shalbar* (shalvor) turmushda juda asqotadigan zarur kiyim sanalgan.

Do'ppi asosan qizlarning bosh kiyimi hisoblanadi. Bunday do'ppining keng tarqalgan nomi – *taqiya*, Mangishloqda *telpek*, sharqiy Qozog'istonda – *kepesh*, deb atalgan. Ikkinchi bosh kiyim - *bo'rik* bo'lib, uning chekkalari mo'ynali, issiq qalpoqdir.

Saukele– kelinlarning eng qadimiy baland, bosh kiyimi shunday ataladi. Odatda saukele to'ylarda kiyilgan .

Timak - kichik bosh kiyimi hisoblanadi.

Taqiya borik – ayollar bosh kiyimining eng qadimiy namunalaridan biri sanaladi.

Ayollarning ushbu bosh kiyimi ikki qismdan iborat: ichkisi *kimeshek* va ustki *salde* - salla u ichidagisi ustidan o'raladi. Bosh kiyimning ikki qismi ham asosan oq matodan qilinadi.

Ayollarning bosh kiyimi – kimeshek bosh, ko'krak, yelka va orqani yopib turadi. Bu qalpoq yopinchiq ko'rinishida bo'lib, yuz uchun teshik qoldiriladi.

Qozoq ayollarining poyabzali erkaklarnikidan deyarli farq qilmagan.

Nazorat savollari:

1. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Shular haqida ma'lumot bering.
2. Erkaklar ustki kiyim turlari, ularning bir-biridan farqi haqida so'zlab bering.
3. Qozoq erkaklarining bel kiyim turlari, ularning bichimi haqida nimalarni bilasiz?
4. Qozoq erkaklarining bosh kiyimlari haqida ma'lumot bering.
5. Qadimda qozoq ayollarining libosi qanday bo'lgan? Har bir kiyim turini izohlab bering.
6. Qozoq ayollar va qiz-juvonlar bosh kiyimlarini tavsiflab bering.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Pugachenkova G.A, Rempel L.I «Ocherki iskusstva Sredney Azii» M 1978
2. Suhareva O.A. "Istoriya sredneaziatskogo kostyuma" M 1982
3. Litvinskiy. B.A. "Vostochniy Turkistan i Srednyaya Aziya, sistema kultur drevnego i srednego Vostoka" M 1986.
4. Ensiklopediya. Iskustvo stran narodov mira. Tom-5 1962-1918.
5. Kostyum narodov Sredney Azii (pod redaksiey Suharevoy O.A)M: Nauka, 1975 g.
6. Traditsionnaya odejda narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M: Nauka, 1975 g. Maxkamova S. "Beqasam" T. Fan -1971
7. Davlatova.S.T "O'zbek milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik " T. Yangi asr avlodi,2006. -213b
8. Ismoilov.H. An'anaviy o'zbek kiyimlari (XIX asr oxiri – XX asr boshi).T.Fan . 1979.
9. Antipina K. I. Osobennosti materialnoy kulturi i prikladnogo iskusstva Yujnix Kirgizov. Frunze, 1962.
10. Chvir L. A. Sravnitelniy ocherk traditsionnix ukrasheniy uygurov i sosednix narodov. Sentralnoy i Sredney Azii (XIX — nachalo XX

vv.) // Vostochniy Turkestan i Srednyaya Aziya v sisteme kultur drevnego i srednevekovogo Vostoka. M., 1986.

11. Chvir L. A. Uyguri Vostochnogo Turkestana i sosednie narodi v konse XIX — nachale XX vv. M., 1990.

13-MAVZU: **Qirg'iz kostyumi.** (ma'ruza-2soat)

Reja:

1. Erkaklar kostyumi.
2. Ayollar kostyumi.

Erkaklar kostyumi. Ko'ylak bilan ishton – qirg'iz erkaklarining ichki kiyimi. Erkaklar ko'ylagi ko'proq tunikani eslatadi, uzunligi beldan pastga to'shadi va yenglari uzun, qo'l panjalarini yopib turadi.

Kementay – keng, astarsiz kigiz to'n. Yana kementay astari qavilgan to'n ham bo'lishi mumkin. Kementay tiqilgan matosiga qarab, **pashayi ton** (poshshoyi to'n), **kimkap ton** (kimxob to'n), **zarbarak ton** (zar to'n) deb nomlanadi. Kementay cho'ponlarni yomg'irli va sovuq kunlarda nam-sovuqdan saqlagan. Erkaklarning ustki kiyimi **chepken** hisoblanadi. Chepken maxsus ishlangan movutdan tiqilgan bo'lib, u boshqa kiyimlar ustidan kiyilgan. Tuya junidan tiqilgan bu ustki kiyim ko'proq ko'chalik, ya'ni kishilik bo'lgan. Erkaklarning yana bir uzun ustki kiyimi – **chapan** (Chopon), deb atalgan. Ko'chaga Choponsiz chiqish mumkin bo'lmagan. Bu beodoblik sanalgan. Qadimda Choponlar ichiga paxta, tuya juni solib qavilgan. Avrasi baxmal, movut chit-duxoba, astari **mata** (mato) yoki chitdan qilingan.

Choponlarning **naygut chapan**, **kaptama chapan** degan bir necha turlari bo'lgan. Ular etnik ko'rinishi jihatidan bir-biridan farq qilgan.

Keng, tunikasimon to'g'ri bichimli, yenglariga hishtak solingan Chopon **naygut chapan**, deb ataladi.

Eng o‘mizi yumaloq shakldagi o‘tkazma yengli, to‘g‘ri bichimli, etagining ikki yon tomoni qirqimli, tor Chopon **kaptama chapan**, deb atalgan. Kaptama Choponning etagi va yengiga ipdan jiyak tiqilgan.

Shalvor – **jargashim** erkaklarning bel kiyimi hisoblanadi. Ushbu shalvor jun, chit, ba’zida oshlangan mayin, baxmalsimon charm va teridan ham tiqilgan.

Qirg‘iz erkaklarining bosh kiyimiga to‘xtalganda, dastlab qalpoqlarni qayd etish mumkin. Qalpoqlarning bichimi har xil bo‘lgan. **Kalpak** (qalpoq), haqli ravishda, qadimiy qirg‘iz bosh kiyimlaridan birisanaladi. Qalpoq to‘rt qiyiqli bo‘lib, yuqoridan pastga tomon kengayib borgan. Oq kigiz qalpoq qirg‘izlarda eng keng tarqalgan bosh kiyim hisoblanadi.

Malaxay – bosh kiyimning bir turidir. Ushbu bosh kiyim ko‘rakkacha tushib turganligi, orqasi uzun, chakkasi yon qismiga ulanib ketganligi bilan qalpoqdan farq qiladi. Malaxay tulki mo‘ynasi, qo‘zi yoki bug‘u mo‘ynasidan tiqilgan, ustiga mato qoplangan.

Qirg‘iz milliy erkaklar kostyumining bir qismini tashkil etadigan, keng tarqalgan qishki bosh kiyim – **tebetey** hisoblanadi. Tebeteyning tepa qismi tekis to‘rtta qiyiq bo‘lakdan iborat bo‘lib, baxmal yoki movut matosidan tiqilgan, unga tulki yoki suvsar mo‘ynasi bilan bezak berilgan. Agar biror kishi xonlikka ko‘tarilganda, ya’ni mavqei oshganda boshiga **qizil** – **tebetey** kiygan. Erkaklar ilgari tagi qalin kigiz etik kiygan. Qirg‘iz poyabzalining yana biri turi – **ichigi** hisoblanadi. Ichigi yumshoq, poshnasiz charm etik bo‘lib, uni erkaklar ham, ayollar ham kiygan. Etik ustidan **kepich** – poshnali kalish kiyilgan.

Etiklarning bir necha turi bo‘lgan. Uchi qayrilgan – **chokoy**; qo‘nji kalta, g‘ijim, xom charmdan **charik**(choriq); yumshoq, oshlanmagan charmdan tiqilgan **paycheki** shular jumlasidandir.

Mo‘ynali, qo‘nji qayrilgan **maasi** (mahsi) qishki poyabzal hisoblangan.

Ayollar kostyumi. Ayollar ko‘ylagi uzun, keng, uzun yengli, tik yoqali ko‘ylak bo‘lib, yorqin rangli matolardan tiqilgan. Qirg‘izlar yashagan joyiga qarab, ko‘ylaklarning yoqa shakli va bezagida farq qilgan.

To‘q rangli, tanaga yopishib turuvchi, engsiz kamzul – **beshmant** ko‘ylak ustidan kiyiladi.

Beldemchi – qirg‘iz ayollarining an’anaviy kostyumiga kiradi. Tantana va bayramlarda beldemchi qora, yaltiroq matolardan tiqilgan. Shohi, ba’zan uyda to‘qilgan movutga kashta bilan bezak berilgan. Kundalik taqiladigan beldemchiga kashta tikilmagan. Beldemchi kamzul, ko‘ylak ustidan belga bog‘langan.

Ichik, kemsal – ayollarning ustki kiyimiga kiradi, qishki po‘stin desa ham bo‘ladi .

Elechek – ayollar bosh kiyimi bo‘lib, to‘liq ko‘rinishi uch qismdan tashkil topadi: do‘ppi; uning ustidan to‘g‘ri to‘rtburchak mato bo‘lagini yopib, u bilan bo‘yin va iyak yashirilgan; ularning ustidan esa oq matoli dastor o‘ralgan.

Oq matodan o‘ralgan salla ko‘rinishidagi **elechek, eleki, kolyak** ayollar bosh kiyimlari bo‘lib, xalq orasida keng tarqalgan. Elechek necha marta o‘ralishiga qarab bezalgan. Shimolda **elechek** kamarjon tizilgan, tangachalar tiqilgan ipak mato bog‘langan. Boyvuchcha juvonlar boshlariga naqsh cheqilgan, kumush plastinkali **kumush kirgak** kiyganlar .

Qadimda to‘y-ma’rakalarda kiyiladigan bosh kiyimi – **shokyulot** turlimarjonlar bilan bezalgan. Janubda elechekka **saymo kirgak** degan mato tiqilgan. Ba’zan **elechek** ning bezagi ham bo‘lgan. Qirg‘iziston janubida yashovchi qirg‘izlarning qalpoqlari ham to‘rtburchak yoki dumaloq shaklli plastinkalar bilan bezatilgan.

Ayollar va qisman erkaklarning milliy kostyumlarida kashta alohida o‘rin egallaydi. Yana ayollar orqasiga taqib yuradigan **arkaliq** mashhurdir. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ilgirilari **arkaliq** bosma bahyalar, toshlar

bilan bezatilgan. Qadimda bunday taqinchoqlarni qizlar yelkalariga tushib turgan, o‘rilgan sochlariga taqib yurganlar.

Qirg‘iz ayollari soch uchlariga osilchoq osib yurganlar. Shimolda yashaydigan qirg‘izlarning qadimgi shokildalari: **chach ushtuk** yoki **chach monchoq** (uzunligi 60sm va undan ortiq) bo‘lgan, yana kumush shokilda – **cholpu** urf bo‘lgan. Zirak-isirg‘alar - **iynek, kulol soyka** o‘zining turli xilda ishlanishi, shakllarining har xilligi bilan ajralib turadi.

Qadimda shimoliy qirg‘izlar orasida murakkab shakldagi ko‘krak-osilchoq taqinchoqlari tarqalgan va bezaklarining o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan.

Boshqa turdagi bezakli tugmalar ham bo‘lib, ular **tuyme, shuuru, topchu** yoki **chok topchu**, deb ataladi. O‘shning janubi-sharqi hamda shimoliy tumanlarda ayol kostyumlari, ayniqsa ustki ko‘ylaklarining ko‘krak qismiga **onurkashta** tiqilgan.

Qirg‘iziston janubida turmush qo‘rgan ayollar qadimiy bosh kiyimlari - **chach kep** yoki **keptakiya** hisoblanadi. Kep takiya kashtasining nafisligi, nozikligi bilan katta badiiy ahamiyat kasb etadi.

Qalpoq aksariyat nafis, oq rangli surpdan tiqilgan Yuqori qismiga oq rangli salla (**elechek, eleki, kalyak**) o‘rab qo‘yilgan. Kashta asosan ko‘rinadigan joylarga: yuz, orqa, yelka, peshona qismiga tiqilgan.

Ayollar poyabzali erkaklarnikiga o‘xshab ketadi. Ayollar poyabzali naqshin bezak berilgani va poshnali ekanligi bilan erkaklarnikidan farq qilgan.

Nazorat savollari :

1. Qirg‘iz erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Ularga ta’rif bering.
2. Erkaklar bosh kiyimlari o‘ziga xos bo‘lgan.Ular nimadan tikilgan va qanday vazifani bajarganini tavsiflab bering.

3. Qadimda qirg'iz ayollarining kiyimi qanday ko'rinishga ega edi? Hozir bunday kiyim turlari saqlanib qolganmi?
4. Erkaklarning qanday kiyim turlari bor?
5. Erkaklar ustki kiyimlariga nimalar kiradi?

14-MAVZU: **Tojik kostyumi.** (ma'ruza-2soat)

Reja:

1. Tojik xalq madaniyati va sanati.
2. Erkaklar kostyumi.
3. Ayollar kostyumi.

Biz tojik milliy kostyumlarini o'rganish bilan birga O'rta Osiyo halqlari kostyumlarining bir-biriga o'xshashlik tomonlari, kelib chiqishi tarixi va ularning farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Tojik an'anaviy milliy kostyumi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida aniq ko'rinishga ega bo'ldi. Kiyim erkin, keng tunikasimon bichimli bo'lib, inson gavda qomatini yashirib turgan. Erkaklar, ayollar va bolalar kostyumi shakli va bichimi jihatidan bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Shunga qaramay, kiyimlar uchun ishlatilgan matolar sifati, bezakliligi asosiy ahamiyatga ega edi. Bunda rang-barang xalq amaliy san'ati boy sezilib turardi.

Erkaklar kostyumi. Tojiklar kiyimlari xilma xil edi. Shalvorlari uzun keng bo'lgan. Ustki kiyimlari ko'ylak, kurtka, Chopon kiyilgan. Erkaklar ichki kiyimiga tunikasimon ko'ylak - *ko'rtai mardona*, *kiftaki* yoki *ko'ylak kiradi*. *Ezor* yoki *ishton* va bel kiyimi bo'lib, xizmat qilgan. Ko'ylak oldi gorizantal va vertikal kesilgan bo'lgan. Ko'ylaklar ichidan kesilmagan yaxtak-ko'ylaklar ham kiyilgan. bo'lar *yaxtak* yoki *chelak* deyiladi. Bu ko'ylak xalatlar, kurtka, yaxtak yoki kurtka chelak bir - biriga o'xshab ketadi. Tojikistonda ko'ylak ustidan nimcha - *voskat* kiygan. Ko'ylak ustidan xalat, Chopon, chakmon, bir nechta xalat kiyishgan.

Xalatlarda uch xil tikiladi. Buxorada keng, uzun, to'g'ri xalatlarda tiqilgan, ularning yengilari uzun, keng va to'g'ri bo'lgan, ikki yonida cho'ntagi bo'lgan. Xalat yarmiga astarliq qo'yilgan, yarmiga qo'yilmagan. Qishki xalatga paxta solib qavilgan, xalat astarli ham bo'lgan. Ensiz uzun gazlama bo'lagi *fo'ta* - belbog' bo'lib erkaklarga xizmat qilgan. Yosh yigitlar kashta tiqilgan qiyiqchalar - *miyonband*, badavlat kishilar va amaldorlar *kamarband* - baxmalga zar iplar bilan kashta yoki iroqi tiqilgan, keng belbog' bog'lagan.

Erkaklar bosh kiyimi *toqi*- do'ppi yoki *kuloh* – qalpog'i ustidan salla o'ralgan. Asosiy bosh kiyim do'ppi hisoblanib, u - *to'ppi*, *qalpoq*, *kallapush* deb har xil atalgan. U oddiy matodan tiqilgan. Shohiga tillarang, kumush iplar bilan kashta tiqilgan, bezak beriladi, chetlariga mag'iz tikiladi. Qariyalarning bosh kiyimlari shakli har xilligi yumshoq matolardan tayyorlanganligi ustiga matodan salla, dastor o'ralgan.

Qish faslida aksariyat tumanlarda do'ppi ustidan telpak kiygan. Dumaloq mo'ynali qalpoq ikki xil bo'lgan. Qalpoq uchun ko'prof qo'y mo'ynasi terisidan foydalanilgan. Dokadan salla o'ralgan. Salla o'rashning har xil usullari bo'lib, har bir viloyatning o'ziga xos o'rash uslubi bo'lgan.

Erkaklar va ayollar poyabzali ko'pincha *mahsi* hisoblangan. Mahsi kavush uni charm *kaush* bilan birga kiyilgan. Echki terisidan tiqilgan *qayroqi* bo'lgan. Qishloq joylarda turli xil poyabzallar kiyilgan. Yengil etiklardan tashqari baland poshnali etiklar ham kiyilgan tog'lik tumanlarda qish faslida *kafshi chubin* - taxtadan uch oyoqli boshmoqlar kiyishgan.

Ayollar kostyumi. An'anaviy tojik ayollari kostyumi to'piqqacha to'shadigan uzun ko'ylak – *ko'rta* bo'lib, u tunikasimon bichimli, yon etak qismi va eng uchlari xiyol (biroz) kengaygan, kvadratsimon shaklida hishtaklar solingan *qo'lfak* yoki *hishtak* boshqa rangli matodan tiqilgan, bu ko'p farzandli bo'lishni bildirgan .

Qizlar ko'ylagi yoqasi - *kitfaki* gorizontaal qirqimli bo'lib, old va ort o'ng yoqa o'mizining yon qismidan pastga qarab katta bo'lmagan qirqim

berilgan. Turmush qurgan kelinlar ayollarning *peskusho* yoki *peshyala* vertikal qirqimli ko‘ylagini kiygan.

Qadimda tojik ayollari *ko‘rtai marmar* yoki *ko‘rtai peshmarmar* ko‘ylaklarini kiygan. Bu ko‘ylaklar nafis oq matodan tiqilgan bo‘lib, yengil harir kiseya, biyor yoki axobonigi matosidan tiqilgan. Ko‘krak qismini yopish uchun *synapo‘shak* yoki *sinabandak* taqilgan. *Synapo‘shak* ustiga iroqisimon kashta tiqilgan. Ayollar ko‘ylaklari ustidan ko‘rtacha kiygan.

chakion- xalati ko‘proq uy sharoitida kiyishga mo‘ljallangan. Bu xalat uyga ham ko‘chaga ham kiyilgan. Chakionni ko‘proq katta yoshdagi ayollar belbog‘siz qishda kiygan.

Ayollar kiyimining ikkinchi asosiy qismi shalvor bo‘lib, u *poychoma*, lozim, *azor*, *tambon* deb ataladi. Bunday lozim va shalvarning yuqori qismiga rezinka tasma qo‘yiladi.

Ayollar paranjisi bilan birga yuzni yashirish uchun qalin va to‘g‘ri to‘rli chachvon ham taqilgan va u *chashmband* deb atalgan. Chashmband qora ot elidan to‘qilgan.

Bu ro‘mol uzun bo‘lib, chekkalari naqshli kashta tiqilgan. Do‘ppi XX asr o‘rtalarida kiyilgan. Do‘ppi ayollarning ko‘chalik bosh kiyimi sanalgan va u keyinchalik yosh kelinlarning bosh kiyimi bo‘lib qoldi.

Keksa va o‘rta yoshli ayollar ro‘molining boshdan *kulutapo‘shak* qalpoq, kichkina ro‘mol bilan o‘ragan.

Bu bosh kiyimlardan tashqari, yosh juvonlar asosan turmushga chiqqan qizlar birinchi yili mehmonga borganlarida har xil bosh kiyimlar kiygan. Bu *sarbandak* yoki *mandil*, tilla va kumush rangda tiqilgan peshonabandlardir. Buxoroda qoshi tillo - bilakka, barmoqqa, boshga taqadigan kumush va tilladan yasalgan har xil qimmatbaho toshli taqinchoqlar taqilgan. Taqinchoqlar ko‘pincha kumush va tilladan yasalgan. Qadimda oddiy doka va kashta tiqilgan ro‘mol o‘ralgan.

Poyabzal - juda hilma xil bo'lib, kavush, charm etik hisoblangan. Etikning qo'nji uzun bo'lib, ichiga shalvorlar kirgizib olingan. Badavlat odamlar ustki qismi shohi iplardan tiqilgan iroqi tufli kiyilgan. Etik qo'njlik bo'lib, poytava o'ralgan. poytava yumshoq paxtali matodan bo'lgan, paypoq bilan ham kiyilgan. Tog'li tumanlarda, qishloqlarda ko'proq charmdan qilingan etik kiyilgan. Pomir va Darvoza qishloqlarida issiq kunlarda poshnali tufli payzor - avgon tufli kiyilgan, afg'on tuflisi chiroyli kashtalar bilan bezalgan.

Qishda ishga va ko'chaga chonus choruk, yumshoq etik kiyilgan, uning ichki qismi jundan tiqilgan.

Matolar. Ayollar asosan tabiiy paxta va shoyidan bo'lgan matolardan kiyimlar kiygan. Parcha, kimxob, kundal, barxat-duxoba, atlas, bo'lardan tashqari, yarim ipak matolarning har xil, rang-barang, yo'l-yo'l matolari ishlab chiqildi. Ayollarning kashtali ko'ylaklari ya'ni, har xil naqshli ipak matolardan tiqilgan ko'ylaklar urfga kirdi. Kashta ko'ylaklarning hammasiga, engi, etagiga, mijozning didiga mos qilib tika boshlandi. Lozimlar pochchasiga ham kashta tiqildi.

Nazorat savollari:

1. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Ularga ta'rif bering.
2. Erkaklar ustki kiyimlariga nimalar kiradi?
3. Erkaklar bosh kiyimlari o'ziga xos. Ular nimadan tikilgan va qanday vazifani bajarganligini tavsiflab bering.
4. Qadimda tojik ayollarining kiyimi qanday ko'rinishga ega edi? Hozir bunday kiyim turlari saqlanib qolganmi? Shu haqda gapirib bering.
5. Tojik ayollarining bosh kiyimlarini tavsiflab bering.

15-MAVZU: **Turkman kostyumi.** (ma'ruza-2soat)

Reja:

1. Turkman xalq madaniyati va sanati.
2. Erkaklar kostyumi.
3. Ayollar kostyumi.

Turkman xalq kostyumlari boy madaniy, an'anaviy merosga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Kostyumlarda o'ziga xos etnografik guruh, qadimiy urug'larning ta'siri kata bo'ldi. Ayniqsa ana shu o'ziga xoslik ayollar kostyumi va bosh kiyimlarda saqlandi. Qadimiy urug'larning shakllangan ildizi mustahkam an'analari uzoq davrlarga borib taqaladi. Aksariyat guruhlarining o'ziga hos kostyumlari turkmanlarga qo'shni bo'lgan davlatlari turmushi bilan bevosita bog'liq.

Turkman kostyumlari unsurlari va nomlari jihatidan O'rta Osiyodagi boshqa o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va tojik xalqlariga yaqin. Ayniqsa, xivalik turkmanlarning kostyumlarida ana shu jihati yaqqol ko'ega tashlanadi. Qo'shni yashagan millatlar, xalqlar bir-biriga bog'liq holda rivojlandi. Ammo kostyumlardagi ayrim unsurlar etnografik jihatdan kelib chiqqanligini inkor etib bo'lmaydi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar ichki kiyimiga ko'ylak va ishton kiradi. Erkaklar ko'yilagi *koynek* – tunikasimon bichimli, o'rtacha uzunlikda (bo'ksadan pastroq), keng, uzun yengli, etak qismining ikki yon tomonida *yartmach- qirqimi* bo'ladi.

XIX asr boshlarida ko'ylaklar yoqa o'mizi ko'ngdalang, ya'ni gorizontal o'yilgan va bir yoki ikki tomonidan tizimcha bilan bog'langan. Bunday yoqali *tegeelek yaka* ko'yilagini aksariyat qariyalar va bolalar kiygan, bu kiyim turi hozirgacha saqlanib qolgan.

Bundan tashqari erkaklar ko'yilagi yoqa o'miziga qarab turlicha nomlanadi: *sopi yaka koynek, ko'rta-i-mullocha, sha yaka koynek*. Yoqalar nomi ham har xil *epleme yaka, ors yaka, golbi, chek yaka, sopi yaka, sha*

yaka. Turkman erkaklar ko‘ylaklari etagi erkin tushib turgan, belga belbog‘ bog‘lanmagan.

Qariyalar paxta tolali ip matoli ko‘ylak ustidan, sovuq tushgan vaqtda yoki bayramlarda – *ko‘rta* ko‘ylagini kiygan. *Ko‘rta* - ipak matodan bichilib, astarli, paxtasi yupqa solib qavilgan, yoqasi gorizontal o‘yilgan ko‘ylak.

Ko‘ylak va xalatning asosiy detali hishtak *be – geyik* bo‘lib u uchburchak shaklida bo‘lgan.

Ayollar kostyumi. Qadimdan turkman ayollari ichki kiyim sifatida – *koynek* (ko‘ylak) kiygan. *Koynek* – tunikasimon bichimli, etagining uzunligi to‘piqqacha tushib, erkaklar ko‘ylagiga o‘xshash tiqilgan.

Hamma ayollar ko‘ylagining bichimi bir-biriga o‘xshash bo‘lib, old bo‘yin o‘mizining o‘rtasidan ko‘krakkacha vertikal qirqim berilgan. Ko‘ylaklar yoqali, ba’zida yoqasiz ham bo‘lgan. Turkman ayollarining kundalik ko‘ylaklari uyda to‘qilgan *alaja* (olacha) - mayda pushtisiyohrang katak-katak ipli gazlama, yoki yarim shohidan tiqilgan. Turkmanistonning janubiy-sharqiy tumanlarida ayollar uyda to‘qilgan mata - paxta ipli matodan, ko‘k-havorang ko‘ylaklar kiyishgan. Turkmanlar bayram va to‘y hashamda kiyish uchun ko‘ylaklarni maxalliy ishlab chiqarilgan har xil asl ipak matodan tikkanlar. *Girmizi keteni* – qizilrangli, pishiq va zich qilib to‘qilgan ipak boshqa ipaklardan ustun turgan. Turkmanlarda qizil rang- ramziy ma’noni anglatadi. *Keteni* – matosi qadimiy bo‘lib, Misrda ishlab chiqarilgan va XVI asrda O‘rta Osiyoga olib kelingan. To‘y tantanalarda kiyish uchun qizil ko‘ylak - *girmizi keteni koynek* tanlangan. Bo‘yiga etgan qizlar sepida ham kamida ikkita-uchta girmizi keteni ko‘ylagi bo‘lishi shart edi. Ayollar ko‘ylaklarining yoqasi va ko‘krakkacha bo‘lgan qirqimlari *djexek -ensiz* shohi , qizil va yashil rangli tasma bilan tiqilgan. Ko‘ylakning old qirqimi- ko‘krak qismiga *gurtikin* yoki *pugtama* - har xil maxsus zich, sidirg‘a mayda geometrik naqshlar bilan kashta tiqilgan.

Nazorat savollari :

1. Erkaklar ko‘ylagining bichimi qanday?
2. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topadi? Ularga ta’rif bering.
3. Erkaklar bosh kiyimlari xususiyatlari, nimadan tikilganligi va qanday vazifani bajarishini tavsiflab bering.
4. Qadimda turkman ayollarining kiyimi qanday ko‘rinishga ega edi? Hozir bunday kiyim turlari saqlanib qolganmi?
5. Turkman qiz-juvonlar bosh kiyimlarini tavsiflab bering.

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Pugachenkova G.A, Rempel L.I «Ocherki iskusstva Sredney Azii» M 1978
2. Suhareva O.A. “Istoriya sredneaziatskogo kostyuma” M 1982
3. Litvinskiy. B.A. “Vostochniy Turkistan i Srednyaya Aziya, sistema kultur drevnego i srednego Vostoka” M 1986.
4. Ensiklopediya. Iskustvo stran narodov mira. Tom-5 1962-1918.
5. Kostyum narodov Sredney Azii (pod redaksiyey Suharevoy O.O.A)M: Nauka, 1975 g.
6. Traditsionnaya odejda narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M: Nauka, 1975 g. Maxkamova S. “Beqasam” T. Fan -1971
7. Antipina K. I. Osobennosti materialnoy kulturi i prikladnogo iskusstva Yujnix Kirgizov. Frunze, 1962.
8. Chvir L. A. Sravnitelniy ocherk traditsionnix ukrasheniy uygurov i sosednix narodov. Sentralnoy i Sredney Azii (XIX — nachalo XX vv.) // Vostochniy Turkestan i Srednyaya Aziya v sisteme kultur drevnego i srednevekovogo Vostoka. M., 1986.

16-MAVZU: **O‘zbek kostyumi.** (ma’ruza-2soat)

Hamma davrlarda ham kostyunga qarab insonning qaysi ijtimoiy toifaga mansubligini bilish mumkin bo'lgan. Shuning uchun mazkur asarda xalqimizning har bir ijtimoiy qatlami alohida berildi: boylarning — boy savdogar, shaharlik sanoat korxonaga egalari, maxalliy burjuaziya vakillarining kiyimlari; hunarmand shaharliklarning - shoyi to'quvchi, etikdo'z, zargarlar kiyimi; kishloq mehnatkashlari — dehqonlar, temirchilar, kulollar, to'quvchilar kiyimi; maxalliy ziyolilar — jadidlar, mullalar, din axdlaridan: imom, sufi, darvish, qozikalonlar kostyumi kabi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi o'zining milliy marosimlarida aloxdda kiyinadi. Nikoh yoki xatna tuyida kelin-kuyovlar kostyumlari, to'y bolaning kiyimi, dafn marosimida marxumni yodlash davrida kiyiladigan kostyumlar. Yana kostyumlar bezakli, bayram, tantanalarda, kundalik kiyiladigan, korjoma kabi turlarga bulinadi. Jinsiga qarab: erkaklar, ayollar va bolalar xmda yoshiga qarab: yoshlar, o'rta yoshli va keksalar kiyimlari.

Erkaklarning milliy kostyumlari ham ichki (ichdan kiyiladigan) va ustki — yelkaga kiyiladigan, belga bog'lanadigan turlardan iboratdir. Erkaklarning ichki kostyumiga engsiz mulla yoqa ko'ylak, ko'ylak-xalat (yaktak) va ishton kiygan. Ustki kostyunga turli-tuman xildagi yengil, issiq (paxta solib qavilgan) Choponlar (to'nlar), mo'ynadan tikilib, gazlama bilan qoplangan po'stinlar, chakmonlar, kamzullar, uzun yoki qisqa nimchalar kiradi.

Ustki kiyimlar ichida eng ko'p tarqalgan va hozirgacha etib kelgan kostyum -to'n-Chopondir. To'n tiqilishiga qarab avra to'n, astarli to'n, paxtalik to'n, deb atalgan. To'n tiqilgan matosiga kdrab ralami to'n, banoras to'n, beqasam to'n, kimxob to'n, surra to'n va hokazo deb; kimga mo'ljallanganligiga qarab esa bola to'n, kuyov to'n, quda to'n kabi nomlar bilan atalgan. To'n-Choponlar ustidan bog'lash uchun belbog'lar, chorsilar, charm, duxoba kamarlar ishlatilgan.

Bosh kiyimlar do'ppilarni, sallalarni, turli-tuman telpaklarni (kuy muynasidan tiqilgan chugirmalar) uz ichiga olgan.

Poyabzallar charmdan tiqilgan xilma-xil etiq ma[^]si, choriq, kun va yogochdan ishlangan kavush va zardo[‘]zi etiklardan iborat bo[‘]lgan.

Ayollarning milliy kostyumlari ichki, ustki va kishilik kiyimdan iborat bo[‘]lgan. Ichki kiyim deyilganda, belidan yukrrisi, belidan kuyi yoki faqat old kdomi ulama kostyumlar va lozim tushuniladi. Ustki kiyimlar deyilganda — kamzul, yengil xalat (mursak kaltacha), engsiz nimchalar. Paranji ham an[’]anaviy ayollar ustki kiyimi sanalib, ichidan qora ot yolidan ishlangan chachvon tutilgan.

O[‘]zbek ayollarining bosh kiyimlari ham turlichadir, masalan, ro[‘]mol, peshonabog[‘], do[‘]ppilar bo[‘]lib, ularning xar biri o[‘]ziga yarasha matodan, rang-barang ip-ipaklardan to[‘]qilgan, tiqilgan.

Ayollar poyabzali — maxsi, kavush, kalish kabilar kun yoki rezinadan ishlangan.

Zeb-ziynatlar o[‘]zbek ayollari kiyim-kechagining tarkibiy-zaruriy bo[‘]lagi sanaladi. Ular o[‘]zining guzalligi, nafisligi, jozibaliligi bilan xayratga soladi. Bo[‘]lar: sochga takdladigan shokilali marjon - munchoqlar. popuklar, tangalar, kalama bezaklar, gajimlar, zalvorli kumush ziynatlar, ikki chekkaga va quloqqa takiladigan peshonaband, tillaqosh. zulf, shokilador ziraklar, isirga va buloklar. Bo[‘]yinga va ko[‘]krakka taqiladigan marvaridlar, zebigardon, tumor va boshqalar. Qo[‘]lga va barmokdarga takiladigan bilakuzuk uzuklar, kiyim ustiga takiladigan xilma-xil tugma, marjon, tumor. Bosh kiyimga taqiladigan ukpar, jiga kabilar.

O[‘]zbek milliy kiyimlari Respublikamizda kam tadkdq kdlinganligi va ushbu mavzuga musavvirlar, teatrshunoslar, kino arboblari, san[’]atshunoslar, etnograf olimlar, xalq ijodiy xavaskorlar guruxdari raxbarlari va umuman, keng kitobxonlar ommasining bugungi kizikishi shu masalaga bag[‘]ishlangan maxsus asarni yaratish makradga muvofiq ekanini kun tartibiga qo[‘]ydi.

Bo[‘]lardan tashqari. mustaqil o[‘]zbek davlatining milliy belgilaridan biri — uning an[’]anaviy kiyimlari hisoblanadi. Yapon iya kimonosi, hind

sarisi, arab kabosi, ozarbayjon arxaligi kabi o‘zbek milliy kiyimlari ham asrlar osha yashab, xalkimizning uzligini, o‘tmishini anglashida ko‘maklashadi, degan umiddamiz.

Shuningdek kiyimlarni yaratish uchun sarflanadigan xomashyolar: mato, teri, zargarlik va bopgkd ashyolar ham aloxida ko‘rsatilgan.

Ko‘rsatiladigan ashyolar go‘zalligi, sermazmunligi, ilmiyligi va noyobligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi zamon kiyimlarida milliy an’analar bilan yevropa uslubi chogishib ketgan. Masalan, shahar va kishlokdagi ayollar xonatlas kiya, erkaklar do‘ppi kiyishmokka. Kishloq xo‘jaligida mashg‘ul kishilar esa hozirgacha oq yaktakni ish kiyimi sifatida kiyadilar. Chunki milliy kiyimlarimiz bizning xayot tarzimizega va iklimimizega moslangan, shu bois, erkak va ayollarning xonaki kiyimlarida ham an’anaviy kostyumlar uz davomiyligini saqlab qolmoqda.

Kitob keng ko‘lamdagi ko‘rgazmali materiallar bilan bezalgan. Bo‘lar arxeologik qazilmalarlan topilgan xaykalchalar, devoriy rasmlar, Bolaliktepa, Afrosiyob, Varaxsha, Ayritom yodgorliklaridan topilgan noyob eksponatlar bo‘lib, kal im g i ajdodlarimiz kiyimlaridan tasavvur beradi. Yana XV—XIX asrlarga oid miniatyuralar ham berilgan.

Marosimlar kiyimi to‘y va motam kiyimlaridan iborat. Odatda o‘zbeklarda kizning sepi tuydan ancha ilgari taxt kilib qo‘yiladi. "Qizingni beshikka sol, sepini — sanliqqa", deydi xalqimiz.

Xilma-xil buyumlar, uy-ro‘zgor jixozlari bilan bir qatorda turfa gazlama va kiyim-kechaklar kelin seiining eng muhim zaruriy qismini tashkil etadi. Tuy kiyimlari albatta o k rangda bo‘lishi kerak chunki bu rang baxt-saodat timsoli xisoblangan. Shu sababli ip gazlamadan maxsus o i po k kostyum tiqilgan, uning bichimi uzun olinib, etaklari tupikqacha tushib turgan, yenglari esa keng va barmokdarni yopib turadigan darajada uzun bo‘lgan. Bu kabi oppoq kelin kostyumi hozirgacha rasm bo‘lib kelayotir. Kelinning ro‘moli ham shunday tu eda, ba‘zan gul-kashtalar bilan

bezatilgan jiyaklar solingan, ip gazlamadan tiqilgan; yap-yangi poyabzallar esa an'anaviy maxei va tufli hamda kavushdan iborat edi.

Kelin kuyovning uyiga uzatilayotgan paytda boshiga paranji yoki Chopon kiydirib, yuzini xarir ro'mol bilan yopib qo'yilgan (mazkur odat Samarkand va Buxoroda keng tarqalgan). To'yning ertasi kuni "kelin salom" paytida kelin gul-nakdlar bilan bezatilgan ro'molni ung kulida ushlab turgan. Kelin sarposi 15-20 ta chiroyli ko'ylaklardan tashkil toptan bo'lib, dammasi, odatda, madalliy va chetdan keltirilgan gazmollardan maxsus bichilgan, etaklari uzun bo'lib, ustidan mursak kamzul, nimchalar kiyib yurilgan.

Erkaklarning tuy sarposi od miroq va xillari kamroq bo'lgan: o q ko'ylak va ishton, oq salla, do'ppi. Ko'ylak ustidan kiyish uchun madalliy kosiblar dastgodida tayyorlangan gazmoldan charm davima to'n, belbog-ro'mol, kun poyabzal, etik kabilar dam tuy kiyimlari sirasiga kirgan.

To'y kiyimlari kelin-kuyovlarning qaysi ijtimoiy tabakaga mansubligiga kdrab dozirlab qo'yilgan. Kambagalroq oilalar sarpolarni ko'proq qo'lda to'qilgan ip gazlamalardan, boyroq xonadonlar esa nimshoyi, ipaq boiщa mamlakatlardan keltirilgan farangi matolardan tikdirishgan.

O'zbeklarning motam ma'rakalarida kiyadigan ust-boshlar asosan ayollarga mo'ljallangan, erkaklarda maxsus ta'ziya kiyimi bo'lmasa-da, belga belbog' bog'lab, boshiga do'ppi kiyib turishgan.

Agar oilada biron-bir yadin qarindosh vafot etsa, ayollar uch kun ichida uzlari kuk va krra tUSDagi matolardan ko'ylak tikib olishgan. Azaning to'rtinchi kuni mana shu motam kiyimini kiyish marosimi o'tkazilib, suyuq; taom tarkdtilgan. Mazkur kun "ko'k kiydi" deb nomlangan. Irimiga ko'ra, motam kostyumlarining eng va etak uchlari choklanmagan kbo'ladi. Oradan bir yil ugib, kuk ko'ylaklar yechilib, oq; ko'ylaklar kiyish marosimi — "oq kiydi" uyushtirilgan.

Toshkent va Fargona vodiylarida ta'ziya kunlari ayollar mursak kiyib, belboB boEnashgan. Hozirgi paytda mursak vafot etgan ayol kishining tobuti ustiga yopib kuyiladi.

Samarkdndsa dar bir kishining motam kiyimlarini juda barvakd, bolalik choBidan dozirlashgan, ular sirasiga kuylaq mursaq ro'mol, ichik va tufli kirgan. O'zbekistonning boshkd viloyatlarida mazkur odat umuman uchramaydi. Samarkand, Buxoro viloyatlarida motam marosimida ok; ro'mol, o q ko'ylak kiyish rasm bo'lgan.

17-MAVZU: O'zbek milliy matolari, naqsh va ornamentlar

(ma'ruza-2soat)

XIX asrda o'zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar sirasiga ip gazlama, ipak, nimshoyi va jun gazlamalar kiradi. Xom-ashyoning mo'lligi va arzonligi O'rta Osiyo shaharlarida shoyi, bo'z, jun va bopqa xil matolar to'quvchilik kasb-dunarlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratib berdi.

To'quvchilikning asosan ikki turi: ommabop ip gazlama to'quvchiligi va nisbatan qimmatroq, ipak to'quvchiligi ko'proq, taraqqiy etgan. Ip gazlama matolarni to'qish bilan asosan, ayollar, ipak va nimshoyi gazlamalarni to'qish bilan erkaklar shug'ullangan.

Ip gazlama matolarning turlari va navlari juda xilma-xil. bo'lgan. Ayniqsa, ok, jigarrang, capiq tusli buzlar keng tarqalgan bo'lib, ulardan barcha yoshdagi kishilar uchun Choponlar, shuningdek, ichki kiyimlar, sallalar tiqilgan. Ayollarning ro'mollari, dakana va lachaklarini tikish uchun doka ishlatilgan. Erkaklarning ko'ylaklari xomsurp, sidirga chit, ip gazlamali kdlamidan tiqilgan. Yo'l-yo'l ip gazlama mato — olachalar ko'prok, kdshlok, to'quvchilari tomonidan tukdtib, Chopon tikishda kullanilgan.

O‘tmishda o‘lkamizdagi butun-butun shaharlar faqat ma’lum bir nav va ranglardagi gazlamani tuk^ppga ixtisoslashgan edi. Badiiy to‘quvchilikning maxalliy maktablari dam mavjud bo‘lgan. Bo‘lar matolarni buyash san’atining beqiyos yuksalishi, madalliy gazlama to‘qish uslublari, matolar rangi, busgi va gullarining bir-biriga o‘xshashligi tobora taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi.

Toshkent kosiblari bo‘z yoki karbos (oddiy buyalmagan ip gazlama), bosma (ko‘proq, qizil tusdagi gulli bo‘z), olacha (bo‘yalgan ipdan to‘qilgan yo‘l-yo‘l ip gazlama), Chopon tikishda qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘l nimshoyi matolar to‘qishga mohir bo‘lganlar.

Buxoro, Samarkand, Kukrn, Margilon, Namangan va boshqa shaharlarda an’anaviy o‘zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (bekasam, banoras, adras) gazlamalar to‘qilib, ulardan tiqilgan turfa kiyimlar uziga to‘qroq, boy-badavlat kishilar orasida rasm bo‘lgan. Quyida mana shu matolarning ayrimlariga ta’rif beramiz.

Beqasam - yo‘l-yo‘l gazmol bo‘lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to‘nlar, kurpa-kurpachalar tikishda foydalanilgan.

Banoras — beqasamdan rang turlari bilan farkdanib, undan ayollarning ustki kiyimi bulmish paranji tiqilgan.

Parpasha – beqasamdan qadlinroq, mato bo‘lib, u paranji, shuningdek, Chopon tikishda ishlatilgan.

Adras - abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmol. Shuningdek, kanovuz, shoyi, xonatlas, guldor kimxob, duxoba kabilar ham keng kullanilgan.

Shoyi va nimshoyi matolar — bekasam, adras, yakruyo, katak shoyi, tovlanma shoyi, abrshoyi va hokazolarga turli-tuman gullar solingan.

Matolarga gul bosishning boshka bir usuli — abrli iplar bilan gul solish buyokdari ey i q qimmatbaho ipak gazmollarni ishlab chikarishda qo‘llanilali. Abrband (urish) iplarni o‘rab-bog‘lab qo‘yishgan iborat

mazkur murakkab va sermehnat usul asosan Farg‘ona vodiysi shaxarlari va Samarqand hamda Buxoro da xonatlas tuki shla kulanilgan.

Bo‘larning hammasi XIX—XX asrlarda maxalliy gazlamalarni badiiy bezash sanati xilma-xilligi va o‘ziga xos ekanligidan, O‘rta Osiyo xalq hunarmandlarining nozik dididan dalolat beradi. Shu boisdan ham, to‘quvchi uetalarning nafis va pishiq maxsulotlari maxalliy bozorlar chegarasidan chikib, butun O‘rta Osiyo va boshqa mamlakatlarda ham xarid qilinib, juda mashhur bo‘lib ketgan.

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Xasanbaeva G. K., Chursina V.A. “Kostyum tarixi” T., O‘zbekiston, 2002.
2. Abdullaev T. A, Xasanova S.A. «Odejda uzbekov» T. Fan - 1978.
3. Pugachenkova G.A, Rempel L.I «Ocherki iskusstva Sredney Azii» M 1978
4. Sadikova M. «O‘zbek milliy kiyimlari» T 2006
5. Suhareva O.A. “Istoriya sredneaziatskogo kostyuma” M 1982
6. Litvinskiy. B.A. “Vostochniy Turkistan i Srednyaya Aziya, sistema kultur drevnego i srednego Vostoka” M 1986.
7. Ensiklopediya. Iskustvo stran narodov mira. Tom-5 1962-1918.
8. Kostyum narodov Sredney Azii (pod redaksiyey Suharevoy OO.A)M: Nauka, 1975 g.
9. Traditsionnaya odejda narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M: Nauka, 1975 g. Maxkamova S. “Beqasam” T. Fan -1971
- 10.Davlatova.S.T “O‘zbek milliy kiyimlari: an’anaviylik va zamonaviylik ” T. Yangi asr avlodi,2006. -213b
- 11.Ismoilov.H. An’anaviy o‘zbek kiyimlari (XIX asr oxiri – XX asr boshi).T.Fan . 1979.
- 12.Antipina K. I. Osobennosti materialnoy kulturi i prikladnogo iskusstva Yujnix Kirgizov. Frunze, 1962.

13. Chvir L. A. Sravnitelnyy ocherk traditsionnix ukrasheniy uygurov i sosednix narodov. Sentralnoy i Sredney Azii (XIX — nachalo XX vv.) // Vostochniy Turkestan i Srednyaya Aziya v sisteme kultur drevnego i srednevekovogo Vostoka. M., 1986.
14. Chvir L. A. Uyguri Vostochnogo Turkestana i sosednie narodi v konse XIX — nachale XX vv. M., 1990.

19-MAVZU: **Vizantiya kostyumi** . (ma'ruza-2soat)

Reja:

1. Vizantiya imperiyasining tashkil topishi
2. Vizantiya tasviriy va amaliy san'ati va madaniyati
3. Vizantiya kosmyumi rivojlanishining asosiy 3 ta bosqichi
4. Erkaklar kostyumi
5. Ayollar kostyumi
6. Imperator kostyumi
7. Vizantiya gazlamalari

Vizantiya imperiyasining tashkil topishi. Feodalizm davrining o'ziga xos xususiyatlari. Turli dinlar va ularning madaniyatga bo'lgan ta'siri. 395- yil. Rim imperiyasining inqiroega yuz tutgan davri hisoblanadi. Bu davrda qullar qo'zg'oloni, dushmanning doimiy bosqinchilik harakatlari bo'lib turadi. Iiqiroega yuz tutgan yagona Rim imperiyasi emirilib, G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linadi. G'arbiy qism qullar qo'zg'oloni tufayli tamom bo'lgan va dushmanlar tomonidai bosib oliigan edi. Osiyodagi bosib oliigai Bolqon yarim orollari, Misr va Rim xududlari Sharqiy qismga qo'shildi. YAngni paydo bo'lgan, Sharqiy va G'arb savdo-sotiq yo'llari Bilan tutashgan podsholik, endi dushmanlar ustidan g'alaba qozona boshladi. Sharqiy Rim podsholigi, Vizantiya podsholigi deb atala boshladi. Vizaitiyaning poytaxti, buyuk imperator

Koistaitin nomi Bilan, ya'ni Kanstantinopol deb nomlandi. Avvaliga Kanstantinopol Bosfordagi Yangi podsholik edi.

Davlat boshqaruvini eskicha uslubini Rim imperiyasi Vizantiya tomonidai meros qilib olgan edi. Keyinchalik esa, ishlab-chiqarishni orqaga surayotgan qullar mexnatini hisobga olib, feodallik munosabatlari paydo bo'ldi.

Vizantiya tasviriy va amaliy san'ati va madaniyati. Xristiai dinining hukmronligi - Vizantiya madaniyati va san'atini rivojlanishida asosiy o'rin egallaydi. Imperiyaning siyosiy va iqtisodiy hayotida xristianlik bosh kuch edi. 5-asrda Vizantiya Sharqiy Rim madaniyatining markazi edi. Vizantiya iqtisodiy sharqiy va antik urf-odatlar ta'sirida gullab yashnadi. Shunday bo'lsada imperiyaning qaror topishi, xristianlikka bogliq edi. Antik davrda inson — sajda qilinadigan buyum, deb sanalgan. hozirda esa cherkov aqidasi ko'ra, inson tapasi guoxlar joylanadigan manba' deb aytiladi. Antik timsollar Vizantiya uchui to'g'ri kelmaydi.

Vizantiya san'ati yengilmas ramziy e'tiqodlar va davrning murakkab qarama-qarshiliklari asosida qurilgan. Vizantiya 1000 yildan ziyod yashadi. Eramizniig 4-asrida YUstinian armiyasi (527-565y avval) Italiya va Janubiy Afrikaning bosqinchilar tomonidan qulga kiritgai srlaripi qayta tortib oldi. YUstinianning davlatni boshqarish ipshariga - uning aqlli xotiii (aktrisa bo'lib o'tgan) Feodora yordam berar edi. Vizantiya asosiy raqibi Persiya bo'lgan. Forslar imieriyasi Bilan bo'lgan urush, ko'plab mablag' va kuch qudratini yo'qotgan.

Arxitektura, maxobatli-dekarativ rang-tasvir, tasviriy san'at, rassomchilik, to'qish, bo'yash ishlari, kashtachilik, bo'larning barchasi shu darv sai'atining asosiy turlari edi.

Imperator Kanstantinyangi poytaxtni bezash uchui Rim va boshqa shaharlardan juda go'zal xaykallarni va ustugsharni olib kelishini buyurdi.

Savdo yo‘llari bo‘lmish sharq va g‘arbning kesishgai joyida joylashgan Vizantiya 4-6 asrlarda iqtisodiy rivojlagshshga erishadi va yaigi madaniyat markazida aylanadi.

Vizantiya imperiyasining madaniyati antik va ellinistik g‘oyalar asosida shakllashan va rivojlangan. Lekin bu madaniyatning shakllanishi Yangi xristianlik dinining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Din masalasi vizantiyaommasining hayotidagi asosiy o‘rindan byrshi egallaydi. Eidi kelib chiqish bo‘yicha insonning tanasiga bo‘lgan munosabat ham o‘egaradi. Cherkov ta’limotlariga ko‘ra unga antik duiyodagi tomosha va ta’zim qiladigan predmet sifatida emas, balki gunohlar manbasi sifatida qaraladi, san’at yanada ko‘p simvollilikka ega bo‘ladi. Inson, sxematik ravishda, keyim kiydirilgai, ornamental harakterga ega bo‘lgan holda tasvirlanadi. Tasvirlarning ayrim standartlari va kiyimlarning andozalari ishlab chiqiladi. Lekii bunday hissiyot dunyosini rad etish bilan diniy madaiyatni ham o‘zida jamlagan xashamatlikka bo‘lgan intiliishi rivojlaitiradi.

Bu vaqt ehrom, ibodatxonalar ommaviy diniy yig‘ilishlar o‘tkaziladigai joy bo‘lgan. O‘zining hajmi bo‘yicha yirik, o‘zining ajoyibligi va qimmatbaho metall va toshlar bilan yasalgan bo‘lib, ular insoini kundalik hayotidan narigi, o‘ega dunyoga olib ketib, inson hissiyotiga ta’sir qiladi. Huddi shu yo‘l bilai emotsional qayg‘urishlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri Xudo bilan munosabat qilish tuyg‘usini hosil qiluvchi aniq ishlab chiqilgai cherkov xizmatlarini yo‘naltirilgan.

Vizantiya kiyimlari shakllarining asta-sekin o‘egarishi ipak, jun matolari va gilam kabilarning sifatida darajasi rivojlaiishi bilan uzviy bog‘liq va ular uzoq vaqt davomida taqlid qilish uchun namuna va sharqiy va g‘arbiy mamlakatlarning‘ jalb etuvchi predmet sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa Vizantiyada 6-asr o‘rtalarida ipak va parcha ishlab chiqarish rivojlangan.

Turli ranglarning metall tolalar bilan birlashishi, turli fakturalar, rasmlarining harakterlari tashqi ko'rinishi bilan chambarchas bog'liq hamda bizda yuqori qiziqish kasb etadi va matolarning shakllantirish san'ati rivojlanishining eng yuqori bosqichidir.

Vizantiya kostyumi rivojlanishini asosiy 3 ta bosqichi jarayonga (muddatga) bo'lish mumkin. Birinchi jarayon (VI-VII asrlar). Bu Rim imperiyasining so'nggi bosqichlarida vujudga kelgan sharqiy elementlarning kiyimlarda aks ettirilishidir.

Rim kiyimlarining asosi hisoblangan ko'pgina mayda drap parchalari bilan egri chiziqlari inson tanasini siliidrik shaklg'a keltiruvchi kontur bilan almashtirildi. Bunday shaklda asosai matonipg' iashlari, yirik shakldagi choklar va kiyim haqiqiy

bezaklari aks ettiriladi.

Lekin biriichi bosqichda kiyimlarning shakli Vizantiya kiyimlarining kelajakdagi yayida rivojlaiishiga harakterli edi. Kiyimlar uchun matolarning zich, og'ir, bir xil rangli va rasmlar bilan ishlab chiqilgan. Antik davrdagi drap kiyimlariga qaraganda vizantiya matolari ancha murakkab.

Rim imperiyasiniig so'ngida paydo bo'lgan yangi erkaklar kiyimpiig bir qismi bu shim, u SHarda keng tarqalgan bo'lib, Vizantiyada o'ziga xos erkaklar kiyimiedi. Ular matodan qilishan uzun paypoq ptkliga ega bo'lgan.

Erkaklar kiyimining yuqori qismi "tunika" deb nomlaigan, biroq u kasallik rim kiyimiga uichalik o'xshamagan. Unga asosiy iomuna bo'lib so'nggipaytdagi "talari" deb nomlangan tunika xizmat qilgan. Tunikaning oldi qismi va orqa qismi to'g'ri tushgan matolar yigiidisidan iborat bo'lgan, engi esa kvadrat proymaga ega bo'lib, u pastga og'gan. Tunikalarnipg matolari turli tabaqa va ijtimoiy guruhlarda bir xil bo'lgan, asosiy farqi, matoning sifati va tunikaning uzunligi hisoblangan kalta tizzadan yuqori bo'lgan tunikaii aholiipg asosiy qismi kiygan.

Qadimgi Rim kiyimlariga nisbatan Vizantiya kiyimlarning kichikroq hajmga ega bo'lgan, chunki matolarning katta zichligiga asoslangan. Vizantiya tunikalarini ko'pincha 2 ta keng bo'lmagan uzun chiziqlar ("klavi") bilan bezatilgan. Bu odat Rim imperiyasiniig so'ngi davridan saqlanib qolgan. Kiyimlarning namunalariniig tasvirlanishi biz Ravennadagi San-Vitale cherkovida (VII asr) ko'rishimiz mumkin. Qizil Rim paludamentumi YUstiniai imperatori ustida u o'ng silkasidan katta dumaloq qimmatbaho toshlar bilan bezalgan gaqinchoqlar (fibula) bilan taqilgan. Ko'krak atrofida paludameitumda tilla rang (rasmi bilan) to'rburchak "Klavus" mavjud. O'ng tomoidan tizzani bekitib turuvchi oq tunika va ikki chetdai choklar bilan ishlangan razrezlar ko'rinib turadi. Tunikaniig kalta esh lari 2 xil chiziqlar bilai tiqilgan yelkasida ovalsimop rangli choklar tiqilgan. YUstiniagshing oyog'ida qimmatli toshlardan tiqilgan qizil rangli oyoq kiyimlar kiyilgan. Qattiq urushlar Vizaitiyada kiyimlarda ham o'z aksini topdi.

Vizantiya imperiyasining rivojlangan byurokratiya apparatining chipovpiklarining kiyimlari alohida ajralib turuvchi xususiyatlari mavjud, ulardan biri egallagan mavqeini anglatuvchi szuvlar yozilgan uzoq.

Ijtimoiy tabaqaning quyi pog'onasida turgan aholiga qimmatbaho matolardan (ipak, qizil rangga bo'yalgan, tilla rangli ip bilan tikilgai) tiqilgan kiyimlar kiyish ta'qiqlanganligi to'g'risidagi Farmoyishlar saqlanib qolingan. Vizantiya shahri aholisiiing ayrim qatlamlarining hoqimlikdagilarning kiyimlariga taqlid qilish ko'p marta ushbu farmoyishlarni o'rnatilishga sabab bo'ldi.

Ikkinchi jarayon (VIII- IX asr boshlarida). "Ikoia uchun kurash" Nomiii olgai ichki ziddiyatlar davri, biega san'at asarlari bo'lgan haykallari saqlanib qolmagai.

Shuning uchun o'sha davrdagi kiyimlariing shakllarining o'egarish sur'atlariii tiklashning imkoni bo'lmadi.

Biroq keyingi davrni o'z ichiga olgan VIII- IX asrlarda shuni ko'rsatadiki, Vizantiyada kiyimlar uslubining o'egarishi o'zining mantiqiy yakun topganini anglatadi. aristokrat va boylarning kiyimlarining shakllari yana va yanada qattiqroq, matolar og'ir, deyarli g'ijimlanmaydigan, rasmlari hukumronlikni ifodalovchi burgut yoki sher va boshqalarni aks ettirgan. Bu davrda inson tanasi faqatgina bukilmas, odatda qimmatbahotoshlar tiqilgan matolarning ajoyibligini ko'rsatuvchi hajmli ko'rsatkich sifatida ifodalangan.

Uchinchi jarayon (X-XU asrlar). Vizantiya aholisining asosiy qismining erkaklar kiyimi shaklining rivojlanishini aristokratlar yoki imperatorlar kiyimiga nisbatai kuzatish ancha qiyinroq. Uning harakterli o'ziga xos xususiyati oddiyligidadir. Shuning uchun biriichi jarayoida shakllangan kiyimlar shakli katta jozibalikka ega. Butun Vizantiya imperiyasining tarixida aholining ko'p qatlamlarida asosiy kiyim tizzadan yuqori tunika, ancha keyinroq davrlarda esa uzun yenglari bilan bo'lgan, hamda uzun paypoq ko'riishidagi shim bo'lib kelgan. Tunikaning yoqalari turli choklar va naqshlar bilan bezatilgan. Ustiga oldidan bog'lanadigan bog'ichli plash yoki yengli uzun va kalta kiyimlar kiyilgan.

Vizantiya aholisining asosiy qismi jungli, yarimjungli, kagyupli matolar, yirik rasmlil, bir xil rangli, bayroqlar esa yarimipakli matolar kiyimlar kiyishgan.

Oyoq kiyimi ham o'z shakliga ega - yumshoq, tizzadan pastroq, bog'ichli etiklar yoki yopiq sandallarga o'xshash deyarli tizzagacha bo'lgai shippaklar.

Bosh kiyimlar esa antik davrda kam tarqalgan bo'lib, Vizantiya imperiyasida keng foydalaniladigan bo'lib qoldi.

Erkaklar kostyumi. Vizantiyada erkaklarning asosiy kiyimi tor va uzun yengli (tunika) bo'lgan. Ularning uzun yoki kalta bo'lgai, yelka va ko'krak atroflarida choklar (bezak, iaqshlar) bilan bezalgan.

Tunika ustiga ustki uzun kiyim («talar») kiyilgan, u engsiz va juda keng boʻlgan. Vizaptiyaliklarplashlar va shtonlar (shim) kiyishgai. Shimlar 2 xil turda boʻlgan: kalta-tizzagacha va uzun. Shimning ikkala yarima alohida qismlar sifatida kiyilgan: payioqlar shaklida boʻlib, belbogʻga bogʻichlar bilan bogʻlab (biriktirib) qoʻyilar edi. Kalta shimlar bilan oyoqni siq oʻrab turuvchi paygyuqlar (paypoq) kiyilgan.

Paludamentum imperator va boylarning ustki kiyimi. U oʻng yelkasida qimmatbaho toshlari bilai bezalgan dumaloq taqinchoq bilap taqilgan boʻladi. Koʻkrak atrofida tilla rangli (parcha) matodan rasmlit oʻrtburchak tiqilgan. Paludamentumning rangi qizil rangda boʻlgan.

Episkop va (svyagseshshk) uzun va keig yengli uzun oq tunika kiyishgai. Uning oldi va engining pastki qismlari qizil chiziqlar bilan bezalgai. Shuningdek, naqshlar va (krestlar) bilan bezalgai sharf tashlaiadi. Lorum - keng uzun qimmatbaho toshlar bilan bezalgan tillarang parcha matodan sharf.

Kostyumning bezatilishiga qarab, ushbu kiyim egasinyng mavqeʻi aniqlangan. Endi ichki tunikaning ustma-ust kiyilishiga qaytsak. Birinchisi sidirgʻa, yenglari naqsh tiqilgan. Ikkinchisi - ham naqshlar bilan tiqilgan (eng ostidan ichki tunika eglari koʻrinib turgan). Uchiichisi - umuman epgsiz boʻlib, u butunlay bezaklar va naqshlar bilai tiqilgan. Barcha tunikalar bir-biriga qarama-qarshi ranglarda tiqilgan. Eng qimmatbaho mato -- ipakli mato hisoblangan, unga tilla va kumush ranglarda naoʻshlar tiqilgan. Ularni jiyak sifatida bezak uchun ishlatishgan. Matolarga uoʻpincha qimmatbahotoshlar tiqilgan. Imperator va aslzodalarga manna shunday matolardan kiyimlar tikigagan. Matodagi naqshlar turli-xil boʻlib, ular koʻpincha ramziy maʼnolarga ega boʻlgan. Masalan: Imperator yoki zodagonlar kiyimlarida, burgut va SHer koʻrinishlari aks ettirilgan. Jiyaklarga esa geometrik yokioʻsimliksimon naqshlar tiqilgan. Baʼzida matolarda xayvonlar (tovus, fil, buqa, oʻrdak va boshqalar) asvirlangai.

Ular rombik, ko'pburchakva doiralar ichiga to'ldirib ishlagai. Ushbu ko'rinishlar bir-birlari bilan shoxchalar va bandlar bilan birgalikda o'zaro bog'langan. Ba'zida xayvonlar juft holda, bir-birlariga qaratib tasvirlangan. Keyinchalik diiiy ko'rinishdagi naqshlar paydo bo'lgan.

Oyoq kiyimlari vizantiyaliklarda - bog'ichli etiklar yoki yumshoq (bashmak) shippaklar bo'lgan. Erkaklar oyoq kiyimi yumshoq, spiq shippak bo'lib, tizzasigacha bog'lanar edi. Ba'zida tizzadan pastda, kaiar bilan bog'lanadigan tor, yumshoq etik ham kiyishgan.

Vizantiyaliklarning bosh kiyimi juda kam bo'lgan. Lekin damaloq va uchli shapkalar kiyishgan. Qattiq matodai tiqilgan kapishonlar ham uchrab turardi. Ko'chada va dala ishlarida yumaloq, keng gardishli, yungli va shlyapalar kiyishgan.

Erkaklar ustki kiyimi juda qattiq «plash -maitiya»dap iborat edi. U Rim «penula»sini eslatardi. Keng va uzun bo'lgan Ushbu yopiichiq, bo'ynidan «fibula» bilan taqib qo'yilardi ski o'ng yelkasiga shupchaki bog'lab qo'yilardi. Vizantiyada ustki kiyimni faqat Imperator va oliy insonlar kiyishgan «Plash-maitiya» obro'-e'tibor va mavqe'ni belgilagan. Kostyum, ranglarning ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Kiyimlar ochiq rangdagi matolardan tiqilgan. Masalan: Imierator kiyimidagi ranglar turfa xilligi bilan ajralib turgan: ochiq va to'q raiglar, qizil, sariq, qora, jigarrang, malla ranglar.

Ayollar kostyumi. Vizantiya ayollariniig kiyimlari uzun, qalin matolardap, (to'gri) tekis qilib tiqilgan va tanani to'liq yashirgan (bekitgan). Boylarning ayollarining quyi kiyimi tunika bo'lgan. Ular shuningdek, keig, uzun, bo'yinni to'liq o'rab turuvchi, uzun yengli ko'ylak kiyishgai. Ustiga ikkinchi ochiq yengli tunika kiyilgan. Bu barcha kiyimlar juda ko'p choklar va naqshlar bilap tiqilib bezatilgai. Quyi qatlamdagi ayollar bir xil rangdagi qo'gyul to'qilgan matolardan ko'ylaklar kiyilgan. Vizantiyada oyoq kiyimlari rangli ter iva matolardan yasalgan va turli choklar (naqshlar) bilan tiqilgan.

Erkaklar deyarli tizzagacha, o'ralgan bog'ichli etiklar va tizza ostidan bog'ich bilan bog'lanadigan yumshoqetiklar kiyishgan. Imperator Yustinian davridan boshlab qonunda barcha xizmatchilarning qora rangda oyoq kiyimi kiyilishi belgilab qo'yilgai edi. Faqat Imperatorning oyoqkiyimi rangi qizil bo'lgan.

Ayollar yumiyuq rangli (oq, qizil, sariq) teridan qilingap shippak kiyishgap. Boy ayollar ipak va (parcha) matolardan, marvarit, choklar va qimmatbaho toshlar tiqilgan oyoq kiyimlar kiyilgan. Vizantiya ayoli qiyofasi, diniy aqidalarga asoslangan holda yuzlari cho'zinchoq, katta ko'zlar keng peshona, ingichka burun va kichkina og'iz bilan ifodalangan. Yana diniy aqidalarga binoan, ayollar kostyumi oddiy va tanani yashirib turuvchi, go'yo tanani niqobidek bo'lishi kerak deb hisoblangan. Faqat Rux go'zalligi tan olingan. Cherkov uydirmalariga ko'ra, ayolga aldanish, taxqirlanish quroli, lekin hayotdagi o'zining yaxshi fazilatlarini bilan muqaddaslik darajasiga etishishi mumkin deb aytilgan.

Bosh kiyimlari - Vizantiyada bosh kiyimlari kamdan kam kiyilgan faqatgina yomoi havoda va issiq quyosh, oftobdan saqlanish uchun. Dalada ishlovchi xristianlar va sayohatchilar dumaloq chunli, chiziqli shlyapalar, past shapkalar va cheti qayilgan (kolpaklar) kiyishgai. IX asrda dumaloq uzun shapka kiyish (moda) bo'lgan. Ayollarning bosh kiyimlari sifatida ro'mollar, boshga kiyiladigai to'rlar, xizmat qilgan.

Ichki kiyim ko'p qavatli bo'lgan. Birinchisi - ichki tunika - keng, ko'ylaksimon bichimli, yengli bo'lgai (U rimda bo'lmagan). Eng Vizantiya kostyumida birinchi paydo bo'lgan yangilikdir. Ichki tunikada eng yopishib turgan, u burmali bo'lgan.

Oddiy xalqa ustki kiyim sifatida plash-penula kiyilgan. Aslzodalar esa, yelkalariga Fibula taqilgan plash-mantiya kiyganlar.

Soch turmaklari doimo yopinchiq ostida berkitilar edi. Sochlar esa silliq taralgan holda bo'lardi.

Pardoz-andoz buyumlari Pardoz-andoz buyumlari cherkov tomonidan ta'qiqlangai edi.

Kiyimdagi bezaklardan tashqari boshqa bezak va taqinchoqlar bo'lmagan.

Qo'shimchalar sifatida keng yoqalar qo'llanilgan.

6.Imperator kostyumi. Ichki kiyim sifatida oq rangdagi, tilla bezakli kamar Bilai bog'laig'ai, ipakli tunika kiyilgan. Ustki kiyim qizil rangli plash-mantiyadap iborat. U uzui, srgacha tushub turadigan va tablion Bilai bezatilgan edi. Tablion imperator hukmronligining belgisi bo'lgan. Bu belgi qimmatbaho matodan taysrlangan. Tablion plashni old va orqa tomoniga tiqilgan. U bayramoia fartukni eslatar edi.

Qo'shimchalar Imperator hukmroiliginiig ajralmas o'ziga xos belgisi: uning tojisi va lorumidir. Vizantiyaliklarda gultoj qimmatbaho toshlar va tilladan tayyorlanib, tojga aylangan. Avvallari esa, lashkarboshilari g'alabasi sharafiga beriladigan gulchambarni eslatar edi. Lorum-qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan uzun, keng sharfdir.

7. Vizantiya gazlamalari. Vizantiya to'qimachilik markaziga aylangan edi. To'qimachilik san'ati yuqori cho'qqilarga ko'tarildi. Vizantiya matolari va gilamlari ko'p vaqt boshqalar uchun namuna bo'lib keldi. Ipakdan to'qilgan matolar asosai Xitoydan keltirgan. Vizaitiyaliklarnipg o'zlari jundan to'qilgan matolar ishlab chiqarib, boshqa davlatlarga eksport qilishgai. Lekin forslar Bilan bo'lgan urush savdo-sotiqni qiyinlashtiradi. Vizaitiyada ipshab chiqariladigan matolar asosan qattiq, og'ir, egilmaydigan matolarni tashkil etadi. Vizantiya ipakli mato ishlab chiqarish uchun, Feodoraning buyrug'iga binoan, Imperator YUstinianning roxiblari Xitoydan ipak qurtini xassa ichiga joylab olib kelishgan. Ipakli matog a bo'lgan intilish, vizantiyaliklarni boylikka, zebziynatga berilib ketganligida edi. 4- asrning o'rtalarida Vizantiyada ipakli mato ishlab chiqarish siri o'rganildi. Siriya va gretsiyada parcha matolar ishlab chiqarishga e'tibor qaratildi. Bu vaqt Vizantiyada Qirmizi raig

bo'yoqlar va ipakli matolar tayyorlash bo'yicha davlat monoioliyasi paydo bo'ldi.

Qimmatbaho matolardan kiyim kiyish faqat imperator va uning oila a'zolarigagina xos edi.

Tunika zig'ir tolasidan to'qilgan matolardan, junli va yarim junli matolardap tiqilgan. Plash esa - jun va yarim jui 1 azlamalardai tiqilgan. Qimmatbaho matolar Yevropaga birinchi o'rinda podsho saroyiga sovgalar keltiriladi edi. Ba'zida esa xalqaro savdo-sotiq yo'llari orqali keltirilgan

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Xasanbaeva G. K. Chursina V.A. "Kostyum tarixi" T. O'zbekiston 2002.
2. Komissarjevskiy F.F. "Istoriya kostyuma" Minsk 2001.
3. Zaharjevskaya R.V. "Istoriya kostyuma" Moskva 2005.
4. Plaksina.E.B. "Istoriya kostyuma.Stili i napravleniya" Moskva 2003.
5. Djoan Nann . "Istoriya kostyuma 1200-2000 "
6. Tereshkovich T.A. «Slovar modi» Minsk 1999
7. Parmon F.M. "Yevropeyskiy kostyum: stil i moda" M 1982.
8. Parmon F.M. "Yevropeyskiy kostyum: stil i moda" M 1982
9. Kibalova L. i dr . «Illyustrirovannaya ensiklopediya modi»
- 10.Kaminskaya.N.M. "Istoriya kostyuma" Moskva 1977.
- 11.Kireeva.E.V. "Istoriya kostyuma" Moskva 1976.
- 12.Mersalova.M.N. "Istoriya kostyuma" Moskva 1972.

20-MAVZU: Ilk o'rta asr Yevropa kostyumi.

(ma'ruza-2soat)

Roman uslubi kostyumi (Ilk O'rta asrlar davri IX-XII)

Reja:

1. Yevropa ilk O'rta (IX-XII) asrlar davri rivojlanishi haqida ma'lumot.
2. Ilk o'rta asr tasviriy va amaliy san'ati va madaniyati.
3. Roman uslubining ahamiyati.

4. Erkaklar kostyumi
5. Ayollar kostyumi

Qadimgi Rimning inqiroega yuz turishi bilan quldorlik jamiyati, u bilan birga antik sivilizatsiya ham buzila boshladi. Hozirgi Yevropa hududida ko'p asrlar davomida har xil davlatlar vujudga kelishga urindilar, lekin ular uzoq muddat tura olmadilar. Faqat IX-asrning oxiriga kelib birinchi uzoqroq turgan davlat-Franklar davlati paydo bo'ldi.

O'rta asr davlatlarining negizi-yangi feodal iqtisodiy munosabatlari edi. Bu davrda jamiyatning asosiy sinflari – feodallar va ularga tobe bo'gan krepostnoy dehqonlar edi.

Bu davrda savdo yo'llarining chorrahalarida paydo bo'layotgan yangi shaharlar rivojlanib va mustahkamlanib bordi. +rollar hoqimiyati kuchayib bordi va u endi real kuch hisoblangan edi. O'rta asrlarda o'z feodalidan qochib ketib.shaharda 360 va 1 kun yashagan dehqonlarni krepostnoylikdan ozod qilish haqida qonun qabul qilingan edi.Krepostnoy tobelikdan qutilishga umid qilib. haqsiz va mazlum dehqonlar shaharga qochib keta boshladilar va hunarmandlar qatoriga qo'shildilar.

Ilk O'rta asrlar davrida bitta feodal xo'jaligida barcha ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarilar edi. Kiyimlar hunarmandchilik usulida tayyorlangan edi. Ayollar to'qir edi. Ip bilan kalava o'rardilar va kiyim-kechak tikar edilar. Shaharlarda katta hunarmandchilik ustaxonalari bo'lib.u erda ayollar mato ishlab chiqarishdan tayyor kiyimgacha bo'lgan barcha ishlarni bajarar edilar.Erkaklar ustaxonalarida faqat erkaklar tikuvchi bo'lib ishlar edi.

Salb yurishlari boshlanishi bilan (XI-asr) yangi savdo yo'llari ochiladi.buning natijasida savdo talab qilingan buyumlarni ishlab chiqaruvchi kasb-hunarlar gullab-yashnay boshlaydi.Ko'pchiligi qochoq dehqonlardan iborat bo'lgan hunarmandlar shaharlarning butun bir kvartallarini egallay boshladilar. Savdogarlar gildiyalarga hunarmandlar va

yirik sexlarga birlasha boshladilar. Jumladan, XII asrning o'zida tayyor mahsulot atrof tumanlardan markaziy shaharlarga ulgurji sotish uchun (tayyor mahsulot holida nodonagacha) keltirila boshlandi.

Ma'lum darajada kuchaygandan so'ng shaharlar ularni siqishga harakat qilayotgan so'ng shaharlar ularni siqishga harakat qilayotgan feodallarga qarshi kurash olib bordilar va bu kurashda qirol hoqimiyatiga suyandilar.

Xristianlik qabul qilingandan keyin cherkov odamlar hayotida katta rol o'ynay boshlaydi. Bungacha monastirlarda qishloq xo'jalik va turli hunarmandchilik ishlari olib borilgan bo'lsa, endi esa kitob ko'chirib yozish, miniatyura san'ati va h.k. kabi san'atning mutlaqo yangi turlari paydo bo'la boshlaydi.

Ammo savodxonlik faqat aristokratiyaga xos imtiyoz hisoblanadi. Ilk o'rta asrlarda cherkov va monastirlar ta'lim va madaniyat markazlari bo'lib xizmat qilgan. O'rta asr ta'limining asosini xristian matnlari-Injil, qadimgi shoir va faylasuflarning asarlari, turli ensiklopediyalar tashkil etgan. Bu asarlarning barchasini rohib olimlar hormay-tolmay va kata qunt bilan ko'chirganlar.

O'rta asr kitoblari ingichka va tiniq arqonchalar bilan tiqilgan, tahtachalar bilan muqovalangan, taxtachalar o'z navbatida charm bilan qoplangan. Ko'pincha muqovalar metall burchaklar, fil suyagidan yasalgan jixozlar bilan bezatilgan. Kitoblarda rasmga o'xshatib yozilgan bosh harflar yorqin ranglar bilan bezatilgan. Shunday qilib, qimmatbaho matolardan ishlatilgan muqovalarning ajoyib miniatyuralar, jozibador naqshlar bilan bezatilishi kitobni haqiqiy san'at asariga aylantirar edi.

Feodal jamiyati madaniyatining tarixi ikkita asosiy davrga bo'linadi:

1. ilk o'rta asrlar davri (IX-XII)
2. kech o'rta asrlar davri (XIII-XV)

O'rta asr san'ati harakteri nihoyatda zuddiyatlidir: bir tomondan san'at insonning ruhiy holatini, uning boy ichki dunyosini aks ettirsa, shu bilan bir vaqtning o'zida san'at diniy g'oyalarni targ'ib etadi.

Tabaqalanish-oʻrta asr jamiyati strukturasi muhim elementidir. Eng katta feodal-qirol-tabaqa zinaoyasining yuqori pillapoyasida joylashgan. Undan pastroqda- gersoglar, graflar, ritsarlar.

Jumladan, ularning har biri oʻzining bevosita boshligʻiga-syuzerenga ishoat etgan, yaʼni, ular tobe vasallar boʻlganlar.

Oʻrta asr davri Yevropaning madniyat jihatdan umumiylik asoslarini yaratdi. Bu davr yangi erlarning ochilishi, yangi davlatlarning paydo boʻlishi, kitob bosishning kashf etilishi, hozirgi zamon Yevropa tillarining tugʻilishi davri edi. Bu vaqtda chigʻirlar va tamol tegirmonlari keng tarqaldi. Bundan oldinroq davrda grek va Rim olimlarining genial taxminlari va buyuk kashfiyotlari qadrsiz boʻlib qolib ketdi, chunki arzon qoʻl mehnati mashina va mexanizmlaridan foydalanmasdan ish olib borishga imkon berar edi.

Roman uslubining ahamiyati.

Ilk oʻrta asr davridagi roman uslubi arxitekturada, tasviriy va amaliy sanʼatda, binobarin, kostyumda ham oʻz aksini topdi.

Qalʼa-qasr-roman uslubining asosiy maxsulidir. Jangovorlik va doimiy ravishda oʻzini himoya qilishga zaruriyat ruhi roman qasr arxitekturasiga singib ketgan edi. Cherkovlar, ibodatxonalar va qasrlar hammavaqt tepaliklar ustiga qurilgan. Toshlardan qurilgan bahaybat qasr tashqi dunyo bilan zanjirlarga osilgan osma koʻprik orqali tugatgan.

Qasrlar chuqur handaq bilan oʻralgan, baʼzan ular suv bilan toʻlgʻazilgan.

Qasrlarni oʻrab turgan qalin devorlar tepa qismida tishsimon qilib qurilgan, minoralar va devor ustidan oʻtkazilgan dumaloq yurish yoʻllari bilan mustahkamlangan, inshootlarning ogʻir materiallardan qurilishi, arxitektura formalarining vazmindorligi, qalin bahaybat tosh devorlar, yarim dumaloq ravoqlar, deraza (oʻt ochish tuynuklari) va eshik oʻrinlarining kichkina qilib ishlanishi-roman uslubining oʻziga xos xususiyatlardir.

Roman uslubidagi intererlar ham arxitekturaning bo'g'iq tUSDagi harakteriga mos edi.Ular to'q ranglarning ustivor ishlatilishi,xayvon terilari qoplangan rangli terrakota plitalardan iborat edi.kichikina va ingichka derazalardan xonaga yorug'lik zo'rg'a o'tar edi.YOrig'likning etishmovchiligi devorlarga temir halqalar yordamida o'rnatilgan yonib turgan mash'allar va kaminlardan chiqadigan yorug'lik hisobiga to'ldiriladi edi.Kaminlardan, shuningdek, isitish uchun ham foydalaniladi edi.

Natijada bo'g'iqlik va sovuqchilik ta'suroti tug'ilar edi.

Interer mebelini bosh tomonida osma tomchasi bo'lgan keng va vazminda krovatlar,sandiqlar,stollar,kreslolar,devor bo'ylab qo'yilgan kursilar tashkil etgan.Mebelni ba'zan bo'lganlar yoki o'ymakorlik bilan bezaganlar.

Roman ibodatxonalaridagi avliyolarning xaykallari biro-bir qonun-qoidalarga bo'ysunmagan holda ishlangan.Xaykallarning yuzlari oddiy va ta'sirchan bo'lish bilan ular ko'pincha ko'rimsiz va past bo'ylidir.roman davri madaniyatining o'z avliyolarining ancha nurli va nozik timsollarini yaratgan Vizantiya madaniyatidan o'ziga xos farqi ham shundan iboratdir.

Roman uslubining rangtasvir san'ati favqulodda cherkov mavzusida bo'lgan.Freska-bu davrda rangtasvirning eng ko'p tarqalgan turidir.Bu vaqtda rangtasvirning yangi yassi shakldagi turi-vitraj* rivojlana boshlaydi.

Roman davridagi o'rta asr modasi mutlaqo Yangi bir holat edi,shu bilan birga u grek va rim an'alarining , Vizantiya detallari va "varvar"lar qo'shgan yangiliklar omuhtasidan iborat edi.

Kiyim-kechak,matolar,odatda,feodalning erida uning uchun va oila a'zolari uchun,shuningdek,xizmatkorlar uchun tayyorlanadi edi.

O'rta asr feodal tartibi Vizantiyadan kiyinishda sinfiy farqlanish sistemasini qabul qilinishni taqozo etadi.Kostyumdagi sinfiy farqlar matolarning sifatida va qimmatbaho bezaklarda:

Xoshyalar,gul tikishlar orqali namoyon bo'ladi.

Kiyimlarning bichig'i hali juda oddiy va ibtidoiy darajada edi, shuning uchun kostyum shaklining o'zida tabaqa farqlari sezilmas edi. Vitraj-rangli shisha bo'laklaridan yig'iladigan rangtasvir. Bu davrda tana ustiga tashlab qo'yiladigan kiyimlar ustmvor edi. Tana atrofiga faqatplashlar o'ralar edi (26 rasm). Roman davri kostyumi tarixida birinchi marta mato chok qilib tikila boshlanadi, choklar pishiq bo'lishi uchun ustidan tasma bostirib tikiladi. Din ijtimoiy hayotning barcha sohalariga singib ketgan edi. Bu davr kostyuminig shakillanishiga iqlim sharoitlari ta'sir ko'rsatar edi, shuningdek, cherkovning ham kata ta'siri edi. Cherkov aqidalariga ko'ra badanni iloji boricha zichroq berkitishga harakat qilinar edi.

Erkaklar kostyumi Davrning «roman» davri deb nomlanishining o'zi bu davr san'atining Rimga bog'liqligini ko'rsatib turibdi. Mazkur uslub o'rta asrlar davrining butun qahrliligini, bo'g'iqligini asketizmini namoyon etib turibdi. Yangi go'zallik timsoli tug'ila boshlaydi.

Go'zallik timsoli. Dinning chuqur ta'siri ostida estetikaning Yangi prinsipi- dunyo ne'matlari va hayot shodliklaridan ihtiyoriy ravishda voz kechuvchi inson ya'ni, asketning odam ruhiyati negizlari ustivor bo'lgan estetik prinsip tug'ila boshlaydi. Dag'al kiyimlar kiygan dovyurak jangchi idealga aylanadi.

Himoyachining ritsar tashqi qiyofasining mardonavorligi uning kuchi, dovyurakligi, epchilligi, jismoniy chidamligi, harbiy shon-shavkati, irodali va qat'iyatli basharsi, keng yelkasi, kuchli va kelishgan oyoqlari bilan belgilanar edi.

Pastki kiyim. roman davrida erkaklarning pastki kiyim bir vaqtda kiyiladigan ikkita tunikadan iborat edi. XI-asrning o'rtalarigacha tunikalar (kiyimning qadimgi elementining) uzunligi tizagacha edi, keyinroq ular boldir o'rtasigacha uzaytirildi, lekin yoshlar va dehqonlar kalta tunikalar kiyimni davom ettirdilar.

Qirol tunikasining uzunligi polgacha edi.

- Birinchi (ichki) tunika –kamiza-uchun va ingichka yenglari yaxlit bichilgan ancha keng ko‘ylaksimon kiyim edi.
- Ikkinchi (ustki) tunika-katta-engsiz yoki kalta va keng yengli (shunday qilib,bu englarning tagidan birinchi,ya’ni,ichki tunikaning yenglari ko‘rinib turar edi) bo‘lib,anchagina keng kiyim edi;

Unda to‘g‘ri burchakli yoki dumaloq dekolte bo‘lib,bel qismida belbog‘ bilan bog‘langan.Kiyimning pastki qismi belbog‘ ustiga tushirib qo‘yilgan.Kostyumdagi belbog‘ himoya,to‘sib turuvchi belgi vazifasini bajargan.Ustki tunika hamma vaqt ichki tunikadan kalta bo‘lgan.

Roman modasida bir vaqtlar bo‘lgan “varvarlar ishton”lari paydo bo‘la boshlaydi.Bu ishtonlar ,to‘piqqacha etadigan darajada uzun,tor,lekin yopishib turmaydigan ishtonlar ko‘rinishida bo‘lib,ikkita tikilmagan bo‘laklardan iborat bo‘lgan.

Ustki kiyim.Erkaklarning ustki kiyimi avval plao‘chdan – kalta,yarim dumaloq,Rim plao‘chi tipida,o‘ng yelkada tugmalanadigan kiyimdan iborat bo‘lgan.

XI-asrda chetlari deqorativ bezak bilan bezatilgan,uzunligi erga etadigan va o‘ng yelkada tugmalanadigan plao‘ch-manto paydo bo‘ladi.Kostyumning bezaklari,shakli va kiyish usullari Vizantiyadan ko‘chirilgan edi.

Barcha zamonlar va davrlarda kostyumda yosh bo‘yicha farqlanish mavjud bo‘lgan.Yoshi kata odamlar kalta va tor kiyimlarni kiymaganlar.

Oddiy odamlar kapyushonli chenulu-plao‘ch kiyganlar.

Ranglar. Ramziylik o‘rta asr madaniyati davrlariga xos xususiyat bo‘lgan.Kostyum ranglarini tanlashga juda jiddiylik bilan yondoshishgan.Har bir rangga alohida ma’no berilgan,masalan,oq rang-qayg‘u,sadoqatni aks ettirgan.O‘rta asrlardan boshlab boshdan oyoq qizil rangdagi kiyimni faqat jallodlar kiyganlar;sariq rangdagi kiyimni deyarli kiymaganlar,bu rang sotqinlik va nafrat rangi hisoblangan (rassomlar

Iudani sariq plao'chda tasvirlaydilar, bu bilan ular plao'ch egasining harakterini ko'rsatmoqchi bo'ladilar).

Oliy tabaqali zodagonlarning kiyimlari yorqin rangli: qizil, ko'k, yashil rangli matolardan tiqilgan. Bu kiyimlar uchun kontrast ranglarning birikmalari xosdir: tunikalar oq rangda; plao'ch-qizil rangda, deqorativ xojiya esa u bilan kontrast rangda bo'lgan (tunika va plao'chlar hammavaqt kontrast ranglarda bo'lgan); ishtonlarning qizil rangda bo'lishi ayniqsa urf bo'lgan.

Ilgari kostyumlarda natural ranglar yoki o'simlik ranglari bilan bo'lgan matolar ustivor bo'lgan.

Oddiy odamlarning kiyimlari to'q rangdagi: jigarrang, kulrang matolardan tiqilgan.

Matolar. Kostyum uchun zig'ir, jun matolar, sharq va Vizantiya ipak matolari, mo'yna, teri ishlatilgan.

Jamiyatning yuqori qatlamlariga mansub shaxslarning kiyimlari qimmatbaho matolardan tiqilgan.

XI-asrdan boshlab ipak keltirish imkoniyati paydo bo'ladi, chunki shu vaqtdan boshlab Sharq bilan aloqalar yo'lga qo'yila boshlanadi. Ipak Vizantiya savdogarlaridan sotib olinadi. Ipak-faqat boylarning imkoniyati etadigan hasham predmetidir.

Ichki kiyimlar zig'ir va ipak matolardan tiqilgan, bunda ustki ko'ylak-kotta-pastki kiyim-kamizaga qaraganda qimmatroq matodan tiqilgan; agar kamiza zig'irdan tikilsa, kottani ipakdan tikishgan.

Ishtonlar ipak matodan tiqilgan.

Ustki kiyimlarni issiqroq va qalinroq matolardan tikishgan.

Oddiy odamlar sifati past matolar: uyda to'qilgan bo'z yoki dag'al sukno bilan qanayat qilishgan. Ustki kiyim jun matolardan yoki dag'al ishlangan mo'ynalardan tiqilgan.

Bosh kiyim va soch turmagi. Bosh kiyimlarning shakllari juda oddiy. Erkaklar konussimon yoki yarim dumaloq qalpoqlar kiyadilar. Kapyushonlar, yozda esa poxol shlyapa ham bosh kiyim hisoblangan.

Antik an'anaga ko'ra soch kalta qilib qir qilgan. Sochlar bosh atrofida dumaloq qilib quloq tagiga cha qir qilgan, old tomondan, soqolni ham faqat oliy tabaqali cherkov zodagonlar qo'rganlar.

Bezaklar. Kostyumda bezaklarga katta e'tibor berilgan:

1) dekorativ belbog'lar; 2) qo'shimcha tikuvlar- xoshiya gul qilib tikilmasdan, qimmatbaho toshlar va oltin plastinkalar bilan bezatilgan, roman modasida xoshiya faqatgina bezak emas, farqlantiruvchi belgi bo'lib ham xizmat qilgan, buni Vizantiya tartibi talab qilgan; 3) halqa uzuklar;

Qo'shimchalar. XI-asrda qadimgi dunyoda noma'lum bo'lgan qo'lqoplar paydo bo'ladi (cherkov aqidalariga ko'ra-qo'llarni yashirish maqsadida).

Oyoqqa tugmalanmaydigan kalta charm etiklar kiyganlar. Shuningdek, antik kostyum elementi bo'lgan barmoqlari ochiq chuyaki-etiklar ham payafzal bo'lib xizmat qilgan. Lekin shu vaqtdayoq uchi o'tkir shaklda oldincha chiqqan tagi yumshoq boshmoqlar paydo bo'la boshlaydi. Boshmoqlar mato yoki rangli charmdan tiqilgan va ba'zida gul tikib bezatilgan.

Oddiy odamlar yuzaroq boshmoqlar kiyganlar, bu boshmoq oyoqqa kanop bilan ko'ndalangiga ustma-ust o'tkazib bog'langan.

Yevropa kiyimida yangi shakllarning paydo bo'lishi.

Roman davrida (ritsarlar yurishlari davrida) ritsarlarning ustki erkaklar kiyimining shakli va bichilishiga ta'sir ko'rsatadi, ular ritsar sovutiga o'xshab, kaltaroq va shaklan xilma-xilroq bo'la boshlaydi.

X-asr kostyumida avvalgidek kamiza va kotta saqlanib qoladi, lekin endi ichki kiyim ustidan hamma yog'i berk ustki kiyim-byano kiya boshlaydilar. Byano bel chegarasi pastroqdan o'tgan tor va uzunroq (etagi tizda chizig'idan boldir o'rtasigacha bo'lishi mumkin) kiyimdir. Byano

yelka,ko'krak va belga yopishib turadi,son qismiga esa kengayib boradi.Yenglari ingichka va yaxlit bichilgan bo'lib,uch tomoniga biroz kengayib boradi.Byanoning pastki qismi yarim aylana shaklida bichiladi .

Byanoning yon tomonida kesiklari bo'ladi,bo'lar ichki kiyimning ko'rinishiga imkon beradi.Jumladan byano va ichki kiyim hammavaqt rang jihatdan kontrast holda ishlanadi.

Kostyumda shu paytgacha mavjud bo'lgan ishtonlardan tashqari,triko tipidagi yangi ishtonlar-shossilar paydo bo'ladi.SHossi-elastik suknodan qilingan va oyoqqa yopishib turadigan ishtondir.Ishton bo'laklari o'zaro tikilmagan.

Yana bitta yangilik-naramnik mato bo'ladigan,yon tomonlarida tiqilmaydigan kesiklari va boshni o'tkazish uchun o'yiqli qilingan. Naramnikning uzunligi har xil bo'lgan.Naramnik-o'rta asrlardagi ham erkak, ham ayol kostyumlari ko'p turlarining asosidir.

Ayol kostyumi. Go'zallik timsoli.Baland bo'yli,yelkalari tor va kelishgan qomatli ayol chiroyli hisoblangan.roman davrida cherkovning kostyumga ta'siri ancha kuchsizlashadi, shu bilan birga tana go'zalligi gunoh hisoblansa ham,qomatni ko'rsatishga intilish seziladi.

Ichki kiyim. Ayollar erkaklar kabi bir vaqtda ikkita tunika kiyganlar:

- birinchisi-ichki tunika-uzun va keng bo'lib,tor va uzun yenglari bo'lgan.
- Ikkinchisi-ustki tunika (27-rasm)-yenglari kalta va keng bo'lgan engsiz yoki kaltaroq tunika.

Bosh o'lizi,etagi va yenglari bo'ylab gul yoki rangli mato bilan bezatilgan xoshiya qilingan.

X-asrda tanaga yopishibroq turadigan shakdagi kiyimlar yaratish tendensiyasi paydo bo'ladi.kostyumda qomatni ko'rsatib turuvchi kalta va tor jilet paydo bo'ladi.Chetlariga gul tikib va galun bilan bezatilgan jilet muhim deqorativ rol o'ynagan va ko'krakni ko'tarib turgan .Son qismida

metall plastinkalar bilan bezatilgan belbog‘ bo‘lgan. Belbog‘ning uchlari old tomonidan bog‘langan va u deyarli polgacha osilib turgan.

Ayollar byanosi erkaklarnikidan farqli ravishda uzunligi polgacha bo‘lgan. Blioning lifi hamma yog‘i berk va tordir. Ko‘krak va belga yopishib turishi uchun shakldor yon kesiklar lentalar bilan bog‘langan. Ko‘ylaklar berk yoqali bo‘lgan. Kostyumning silueti trapetsiya shaklida: yelkasi tor, pastga qarab kengayib ketgan (28-rasm).

Ustki kiyim. Ustki kiyim sifatida plashch-mantiya bo‘lgan. U uzun, yarim dumaloq, yorqin rangli, mato yoki mo‘yna (qunduz) astarli bo‘lgan.

Ranglar. Erkaklar kiyimida bo‘lgani kabi kostyumida yorqin ranglar, qambag‘allarda-to‘q va xira ranglar ustun bo‘lgan.

Matolar. Sidirg‘a bo‘yalgan zig‘ir, jun, ipak matolar ishlatilgan.

Bosh kiyim. yuz tomoni ochilgan dumaloq (odatda, oq rangda) ro‘mol bosh kiyim hisoblangan (29-rasm). Ayollarning boshi va yelkari ro‘mol bilan butunlay beqilgan. Ro‘molning chetlari byanoning kesik joyiga tushirib qo‘yilgan. Tepa tomondan ro‘mol gardigi bilan mahkamlangan. Oilali ayollarning sochlarini faqat janobi-eri va hukmdori ko‘rishi mumkin bo‘lgan. Faqat u sochlarning go‘zalligi bilan zavqlanishi mumkin bo‘lgan. Lekin ayollarning uzun sochlari o‘rilmasdan qoldirilgan.

Bosh kiyim va soch turmagi. Qizlar uzun sochlarini tashlab qo‘yishgan yoki o‘rib yurishgan.

Oilali ayollar sochlarini o‘rib, bosh kiyimi orasiga yashirilganlar.

Pardoz - andoz buyumlari cherkov tomonidan man qilingan.

Bezalar. O‘rilgan sochlar parchadan tiqilgan lentalar, gardishlar, gulchambarlar va daxon ostidan o‘tkaziladigan bog‘lama bilan bezatilgan.

Kiyimni fibulalar, belbog‘lar bezagan. Qo‘llariga ayollar xalqa uzuklar taqqanlar.

Qo‘shimchalar. Ayollar qo‘lqop kiyganlar.

Poyabzal. Ayollar rangli charmdan ishlangan tag charmi yumshoq bo'lgan poshnasiz berk tuflilar kiyganlar.Poyabzal shakli va materiali bo'yicha erkaklar poyabzaliga o'xshash bo'lgan.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Ilk o'rta asrlar tarixiy davrining xususiyatlarini gapirib bering.
2. O'rta asr san'atining xarakterini ta'riflab bering.
3. Ilk o'rta asr davrida qanday badiiy uslub shakllana boshlaydi?Bu uslubning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
4. Bu davr kiyimida qayday materiallar ishlatilgan?
5. Ilk o'rta asr davridagi erkaklar kiyim haqida nima bilasiz?.
7. XI-asrda qanday yangi shakllar kiyimlarda paydo bo'lgan ?
8. Ilk o'rta asr davrida ayol go'zalligining ideali haqida gapirib bering.
9. Bu davridagi ayol kostyumining

21-MAVZU: **Kech o'rta asr Yevropa kostyumi.** (ma'ruza-2soat)

- mavzu: **Gotik uslub kostyumi**

Yevropada rivojlangan o'rta asrlar davrida kostyum (XII-XV asrlar)

Reja:

1. O'rta asr san'ati va madaniyatiga umumiy harakteristikasi.
2. Rivojlangan o'rta asr kostyumi.
3. Erkaklar kostyumi.
4. Ritsarlik va uning erkaklar kostyumi rivojlanishiga ta'siri.
5. Ayollar kostyumi.
6. Gotik aristokratik moda.Burgund modasi.

Yevropada feodalizm hukmron edi. Rivojlangan o'rta asrlar davri kuchli sinfiy kurash,feodallarning o'z ichida tabaqalanish bilan harakterlanadi. Bo'larining hammasi zodagonlar kostyumida o'z aksini topmasdan qolmasdi.

Byurgerlar o'rtasida ham kiyim bilan farqlanish boshlandi.

Bu davr shaharlarning tez o'sishi va rivojlanishi bilan farqlanadi. Savdo-sotiq va turli hunarlarning gullab-yashnashi kuzatiladi. Savdo yo'llarining chorrahalarida yangi shaharlar barpo etiladi. Fuqarolarning ongi uyg'ona boshlaydi.

O'rta asr san'ati va madaniyatiga umumiy harakteristikasi

Rivojlangan o'rta asrlar davrida Yevropada shaharlar hayoti sezilarli jonlanadi. Feodalizm o'z rivojlanishining yangi bosqichiga o'tdi.

Hunarmandchilik mustaqil holda rivojlanadi. Qurilish, arxitektura, to'qimachilik va metallni ishlash tez rivojlanadi. Hunarmandchilikning sex shaklida rivojlanishi davom edi. Bu davrda chizma tushunchasi paydo bo'ladi, bu shubhasiz, ko'p hunarlarning, jumladan kostyumning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

G'arbiy Yevropada gotik uslub hukmron bo'ldi. Arxitektura-gotik san'atning etakchi turidir. Shahar kafedral saborlarining qurilishi (roman saboridan farq qilib, gotik sabor-shahar inshoatidir) bu davr san'atining eng yuqori yutug'idir. Gotik saborlar uchun arxitekturaning yuqoriga intilganligi, alohida havoilik, yengillik va ruhlanish hissi juda xosdir. Gotik uslub roman uslubi asosida tug'ilgan bo'lsa ham proporsiyalarda, intererda, kostyum siluetida sezilarli farqlari bor. Gotik saborlarda vitrajlar bilan bezatilgan katta derazalar mavjud. Binoda yorug'lik ko'p, vitrajlar tufayli yorug'likda turli ranglar aks etadi.

Gotik arxitekturada shunday ta'suriy tug'iladiki, go'yo bino skeleti o'tkir uchli ravoqlar va tayanch ustunlarning murakkab sistemasidan tuzilganki, ular esa o'z navbatida vitrajlar va juda yupqa devrlar bilan to'ldirilganday. Parij mom havosining sabori (XI-XIV asrlar)-Fransiya gotikasining shoh asarlaridan biridir. Hamma narsa gotikaning bita g'oyasiga-yuqoriga intilishga bo'ysunadi, barcha to'g'ri chiziqlar cheksiz fazoda Yaratganning xuzurida birlashadi. Barcha kelishgan, ulug'vor, yuksak va mag'rur narsalar urfga kiradi. Saborning minoralari baland va ulug'vor qilib ishlagan, ingichka va nozik uchi yuqoriga

intiladi. Jimjimador qilib ishlangan kattakon “gotik atirgul” fasad markazida faxrli o‘rinni egallaydi.

Bu vaqtda san’at va turmushda «atirgul» motivlari tarqaladi. Atirgul noziklik, nafosat va mo‘rtlikni ifoda etadi. Atirgul bilan ovqatlanish stolini ham bezaganlar (atirgul barglarini stolga sohib qo‘yishgan, ular vino solingan idishlarda suzib yurgan). Yigit va qizlar hatto atirguldand yasalgan gulchambarlar kiyib yurganlar.

Freska, mozaika kabi rangtasvirning monumental shakllari bilan siqib chiqariladi (stanokli so‘zi bo‘z mahkamlanadigan stanokmolbertdan olingan.)

Haykaltaroshlik va rangtasvirda portret janri alohida ajralib turadi.

O‘rta asr ikonno tasviri, vitraj san’ati, haykaltaroshlik, kitob miniatyurasining ajoyib namunalari nihoyatda yuqori qimmatga egadir.

O‘rta asrlar adabiyotining shoh asrlari dunyo madaniy fondiga kirdilar. O‘rta asr adabiyotining janrlari: ritsarlar romanlari, trubadurlar she‘riyati, Dantening “Ilohiy komediyasi”dir .

Tojik uslubning intererida cho‘zilgan proporsiyalar ustundir. Ilgaridek, mebel ko‘p emas: sandiqlar, kreslolar, x-simon stullar oyoqlar o‘rniga ikkita yon taxtalarga o‘rnatilgan stollar, yon tomonga qo‘yilgan krovatlar, birinchi shkaf, idish qo‘yish uchun javonlar.

Ro‘zg‘orda hashamdorlikning yangi buyumlari qimmataho idish-tovoq, salbchilar tomonidan Sharqdan keltirilgan momiq gilamlar paydo bo‘ladi.

Fransiya-klassik o‘rta asr mamlakati, Parij-o‘rta asr gulidir.

O‘rta asrlar davrida dastlab harbiy ish bilan professional darajada shug‘ullanayotgan kishilarning birlashmasi sifatida ritsarlar tabaqasi vujudga keladi. Ma’lum axloqiy tasavvurlar, masalan or-nomus, burch va h.k. tushunchalar shakllana boshlaydi. Ritsarlik etiketi paydo bo‘ladi. “Etiket” so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lsa ham, u grekcha “etos” so‘zidan olingan va odat ma’nosini anglatadi. Chiroyli yurish, stol atrofida

odob bilan o'tirish va o'zini tutish odat talablari bo'yicha og'izda ovqat bo'lgani holda ichish va so'zlash ikki qo'llab ovqat eyish, hali bir inson kubokdagi ichimlikni ichib bo'lmasidan uni berib turish iltimosi bilan murojaat qilish (bu vaqtda ikki kishiga bita kubok qo'yishlar edi) tarbiyasizlikning cho'qqisi hisoblanar edi. O'qimishli, madaniyat odamlarga baland ovoz bilan qo'lish, oyoqlarini chalishtirib o'tirish, qo'llari bilan keskin harakatlar qilish man etilar edi.

Yangi ritsar madaniyati ayolga bosh egishning ,qadimgi dunyoda ma'lum bo'lmagan shakllari-Go'zal xonimga sig'inishning tug'ilishiga olib keldi. Muxabbat lirikasi gullab-yashnay boshlaydi. Masalan, Tristan va Izoldaning ajoyib sevgisi haqidagi roman. Roman syujeti qo'yidagidan iborat: Tristan Izoldaning qaldirg'och olib kelgan sochini ko'rib, unga nisbatan alangali hissiyotlar ichida qoldi.

Ritsar madaniyati ham ayollar ham erkaklar modasida o'z aksini topgan yangi go'zallik timsolilarning ifodasi bo'ldi.

Rivojlangan o'rta asr kostyumi. XII-asrning eng oxirlarida tarixda feodalizm belgilari namoyon bo'la boshlaydi, bu esa "gerbli kiyim" paydo bo'lishiga sabab bo'ldi (dastlab ritsarlar kiyimlaridagi belgilar zadagon urug'ning xos belgilari bo'lgan). Bu urug' belgilari avloddan-avlodga o'tib kelgan. Urug' gerbi kostyumda ham o'z aksini topdi. Kiyimda ikki hil rang X-asrda ishtonlarda qo'lanildi. Gerb ikki yoki to'rt qismdan iborat bo'lib, har bir qismi o'z rangiga ega bo'lgan. Kiyim vertikal bo'yicha ikki qismga bo'lingan, har bir qismi oilaviy gerb rangiga mos rangda bo'yalgan. Keyinchalik rang bilan ajratish kiyimning boshqa qismlariga ham o'tdi. Masalan, yengning yoni kiyimning har bir yarmi har xil rangda bo'lar edi. Keyinroq, tikuv sexlari ham o'z gerblari bilan farqlanadigan bo'ldi.

XIII-asrda kostyum bo'yicha tabaqalanish haqidagi qonunlar, hashamdorlikka qarshi birin qonunlar chiqarilgan edi. Qonunlarga ko'ra, jamiyatning qaysi sinfiga mansubligiga qarab, mato va kiyim shaklini

tanlashga kat'iy chegaralar qo'yilgan edi. Kiyimlar inson tanasining plastikasini ko'rsatib turar va ilgorigidan nafisroq shakllar olgan edi. Roman davridagi ko'proq rohiblar kiyimini eslatuvchi (dag'al, bichiqsiz kiyim) ko'ylak o'rniga chevarlik san'atining barcha qonunlari bo'yicha ajoyib tarzda tiqilgan ko'ylak egalladi.

Shunday qilib, bu davrda bichish asoslari vujudga keldi, ular ayollar kostyumi shakllarining o'egarishiga ta'sir qilmasdan qolmasdi. Bichiqdagi yangi o'egarishlar tufayli kiyimning fasoni to'quv dastgohining eniga bog'liqligidan ozod bo'ladi. Qator bo'yoq moddalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, bu yangiliklarning hammasiga faqat zadagonlarining qurbi etar edi.

Bu davrda birinchi marta Yangi ijtimoiy voqea-moda paydo bo'ladi. Bu davr modasiga xos asosiy belgilar:

Yangi g'oya-yangilikka qiziqish, bu qiziqish ayniqsa, u tug'ilgan paydo kuchliroq;

Taqlid qilishga jon-jahdi bilan intilish;

Kostyum shakllarining tez almashuvi.

Rivojlangan o'rta asrlar davrida tikish texnikasi takomillashib bordi. Bu davr kostyumida birinchi marta tikib ulangan englar va vitochkalar paydo bo'ldi. Umuman, kiyim tor bo'lganligiga va uni echishining iloji yuqligi sababli, tor englar ko'ylakka vaqtinchalik, ertalabdan kechgacha muddatga tikib qo'yilgan. Englarni ko'ylakka biriktirish uchun shu vaqtga qadar ham qanoplar ishlatilib kelingan. Englar faqat tugmalash kashf etilgandan keyingina doimiy qilib tikib ulanadigan bo'ldi. Erkaklarning kiyimi avvalgi tunikalarning harakterini saqlangan holda endi shunchalik tor bo'lib qoldiki, ichki kiyimni kiyish uchun uni butun bo'yi bo'ylab kanoplprini echishga to'g'ri kelar edi, ustki kiyimni kiyish vaqtida esa butun bo'yicha echib olishga to'g'ri kelar edi, chunki u mayda tugmachalar bilan tugmalangan edi.

XIV-asrda yechiladigan kiyim va yoqalar urqga kirdi. Bu davrda ham keng bichilgan, ham uzun, ham kalta, ham tor kiyimlar kiyganlar. Yoshlar kalta va tor kiyimlarni ma'qul ko'rganlar.

Kostyumda sinfiy farqlar tobora ko'proq sezila boshlaydi. Qonunlarga binoan, byurgarlar kiyimiga sinfiy cheklanishlar joriy qilinadi. Ular uzun shleyflar, ipak kiyimlar va h.k. kiyishi mumkin bo'lmagan.

Rivojlangan o'rta asrlarda kiyim siluetining o'z hos eni xati-tuzilgan gotik proporsiyalardir.

Erkaklar kostyumi. Ayol ulu-lunudigan bhlb o'oldi, va ayolni bunday ulu-lash kostyumda qam hz aksini topdi: erkaklar kostyumi ayollar kostyumi kabi uzun va kengbhla-boshlaydi.

Go'zallik timsoli. Erkak ideal sifatida harbiy ishtonlar, teridan tiqilgan kiyim kiygan dag'al erkak emas, balan ayollar kiyimiga o'xshagan kiymlar kiygan nozik yosh yigit qaralgan. "Xonimga xizmat qilish" haqidagi guvohliklar faqat fransuz shoirlarning emas, chex shoirlarining ham satrlarida saqlanib qolgan: "Menga shodlik ato etuvchiga yaqinlashishga loyiq bo'lish uchun unga sadoqat Bilan xizmat qilishni hohlayman..."

Yopishib turuvchi siluet yelka kyengligini va kuchli pishiq oyoqlarni ko'rsatib turgan.

Ichki kiyim. Erkaklar kiyimida eski detallar saqlanib qoladi, lekin ularning shakllari asta-sekin o'egara boradi.

Kamiza avvalgidek jamiyatdagi barcha sinflarning ichki kiyim bo'lib qolaverdi. Kamiza uzun yengli bo'lib, bo'yi tizdagicha yoki boldir yarmigacha bo'lgan.

Boy odamlar kamiza ustidan biega ma'lum kaftan byano kiyiganlar, bu dadillik Bilan urfga kira boshlaydi. Bu kaftan tor lifli, bel qismi kesib tiqilgan va etaklari xashamdor bo'lib, odatda, yelka tomondan kanoplar bilan boylangan.

Kamiza va byano endi uzunroq bo'lib qoldi, yon qimlari pastga tomon kengayib tushdi. Otda yurish qulay bo'lishi uchun ba'zan byano va kamizaning yon chokilarini tikmaganlar.

Oyoqlarga tor ishton-paypoqlar kiyganlar, endi bo'lar birinchi ichki kiyim bo'lib qoldi. Ichki paypoqlar ustidan oyoqqa yopishib turuvchi uzun shossilar kiyganlar.

Yana bir kaftan-katardi-urfga kiradi. katardi-tanaga yopishib turuvchi kalta kurtka bo'lib, bo'yi sonning o'rtasigacha. yenglari turli shaklda: tor yoki tepa qismi tor bo'lib, uchiga qarab qung'iroqsimon tarzda kengayib ketgan. Englarga tishchalar yoki eni 10 smli mato tasmalar tikib, deqorativ bezak berilgan. Kaftan-tardining son atrofiga bog'lanadigan deqorativ belbog'i bo'lgan.

Oddiy odamlar kamiza ustidan yenglari tor, lekin uzunligi ba'zan polga etadigan va deqorativ bezatilgan purpuan-yengli kalta kurtka kiyganlar. Purpuan oddiy odamlar kiyimida bir vaqtning o'zida ustki kiyim ham hisoblangan.

Ustki kiyim. Ustki kiyimlar xilma-xil bo'lgan, lekin barcha sinflar uchun harakterli kiyim-naramnik-o'rtasidan buklangan va buklangan joyida boshni o'tkazish uchun teshigi bo'lgan mato bo'ladigan iboratplashch. Naramniklar kalta va uzun, yon tomonlari tikilmagan, odatda, belbog'i bo'lgan.

Yangi kiyim-syurko-paydo bo'ldi, bu – yonlari tiqilgan, ochiq o'muzli yoki soxta yengli uzun naramnik.

Ranglar. Rang kombinatsiyalari chuqur ramziy ma'noga egaligi davom etdi. Kostyumning deqorativligiga ranglarning: qizil, ko'k, yashil, sariq ranglarning yorqin, kontrast birikmalari orqali erishilgan. Erkaklar rangi hisoblangan sariq rang ayniqsa urfda bo'lgan. Lekin din sariq ranga qarshi edilar, chunki sariq rangning narxi qimmat edi, hashamdorlik esa insonni buzadi. Xonimga "xizmat" qilayotgan ritsar, albatta, o'z garderobiga tanlagan ayoli yoqtiradigan ranglarga bo'yalgan narsalarni

qo'shgan.Ma'lum bir insonga do'stona munosabat ham kiyimda tegishli rangning bo'lishi bilan ifodalangan.Xizmatkorlar ham o'z xujatlari yoqtirgan ranglarga moslashganlar.

Kiyim.asosan, tanaga nafis yopishib turadigan italyan yoki flamand yupqa movutidan tiqilgan.Bunday matolar yorug'likda rangini o'egartirish xususiyatiga ega bo'lganlar.Matolar juda mustahkam bo'lgan va oson bichilgan.Kostyum tikishda jun ,zig'ir,ipak matolar,elastik movut,parcha ishlatilgan.Eng qimmat va urfdagi matoduxoba hisoblangan.

Bosh kiyim.Bosh kiyimlari xilma-xil bo'lgan. Boshqa bosh kiyimlariga qaraganda kurtka yoki plashchga tikiladigan kopyushon ko'proq bosh kiyimi bo'lib xizmat qilgan.Ba'zan kapyushonni plashchdan alohida ishlangan ixcham yelkapo'sh Bilan birga kiyilgan.

Shaperon yana bir bosh kiyimi bo'lib,u bir yoki ikki bo'lak matodan iborat bo'lib,boshga turli usullar bilan salla ko'rinishida o'ralgan va uchlari tushirib qo'yilgan.

Erkaklar tulyasi konussimon qilib ishlangan,chetlari buklangan yoki buklanmagan fetr va movut shlyapalar kiyganlar.

XIII-asrda oq matodan tiqilgan erkaklar chepetsi paydo bo'ladi.Boy odamlarning chepetsi bosh kiyim ostidan kiyilgan.Oddiy odamlar uchun chepets mustaqil bosh kiyimi hisoblangan.

Turmaklar.

Yonoq va yelkalarga tushib turuvchi jingalak sochlar urfda.Din sochni jingalak qilishni eng kata gunoh hisoblasa ham erkaklar sochining jingalak qilinishi eng oddiy voqea edi.Shundan ma'lum bo'ladiki,bunday turmakni faqat feodallar qilishi mumkin bo'lgan.

Qolgan aholi ilgaridek,sochlarini chyolka qoldirib,quloqlargacha kalta kesib yurganlar.Ba'zi feodallar ham sochlarini xudi shunday turmaklaganlar.

Bezaklar.

Zadagonlar kiyimiga bosib yoki to‘qib gul solingan, kumush yoki oltin ip bilan bezatilgan urfda bo‘lgan matolar ishlatilgan. Matolarga ornamentli qalin gul solingan, islamiy ornamentlar: atirgul, anor, lola, gvozdika gullari eng urfdagi ornament hisoblangan. Mato va undagi ornament rang jihatdan keskin kontrast holda ishlangan. Gotik usulda bo‘lgan dekorativ gorizontallik vizantiya xojiyasi o‘rniga butun buyum bo‘ylab gul solinadi. Mato ornamentida eng keng tarqalgan gul-sukut va muxabbat ramzi gotik atirgul edi. Unda atirgulning ettita bargi uning barglari va yo‘g‘on bandi bilan birga boshqa o‘simliklar-ananas, anor bilan chirmashib, gul hosil qiladilar. Oq atirgul-poqizalik va go‘zallik ramzi, anor esa-muxabbat ramzidir.

Poyabzal. Erkaklar charm yoki duxobadan tiqilgan, gul solib yoki qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan poshnasiz tufli va kalta etiklar kiygan. Tufli va yarim etiklarning uchlari IV-asrgacha biroz o‘tkirroq qilib ishlangan, keyinchalik uzaytirilgan va uchi o‘tkirlashtirilgan poyabzal zadagonlar imtiyozi bo‘lgan (2-rangli illyustr.).

Ritsarlik va uning erkaklar kostyumi rivojlanishiga ta’siri.

Shu paytgacha ritsarlar kiyimi noqulay edi, chunki u jangchining harakatlarini cheklab qo‘yardi, bu sovutning yaxlitligi vazni og‘irligi bilan bog‘liq edi. Lekin ko‘pincha, yaxlit metall kiyim kasallik sababi bo‘lar edi.

Natijada sovutni ayrim bo‘laklarga (bu bo‘laklar latlar deb ataladi) bo‘lib ishlanadigan bo‘ldi, bu bo‘laklar bukiladigan erlarida ilgaklar, xalqalar, sharnirlar yordamida biriktirilgan.

Bu bo‘linishlar tananing ayrim qismlariga (old tomoni, yelka, englar) xos bo‘lgan shakllarni matoga o‘tkazigicha imkon berdi, bunda matoning amaliy xususiyatlari-ko‘ndalang va bo‘ylama iplarining cho‘zilishidan foydalanildi. Bichish ancha rivojlanadi. O‘mizlar oval shaklda bichiladi, vitochka paydo bo‘ladi.

Ustki kiyimda qiyshiq bichishning plastik imkoniyatlari kashf etiladi va foydalanila boshlandi.

XIV-asr o'rtasidan XV-asr boshlarigacha yana kalta erkaklar kiyimi urfga qaytadi. Uzun kiyim qirollar, cherkov xizmatchilari, olimlar, sudyalari, vrachlar kiyimi sifatida baholanadigan bo'ladi.

Ayollar kostyumi.

Go'zal xonimga sig'inish-ayolni ulug'lash borib-borib shafqatsiz va qorong'u o'rta asrlar davrida vujudga keladi.

Go'zallik timsoli. Baland bo'yli, nozik va ingichka, beli xipcha, terisi nilufar guli kabi oppoq, uzun ti'llarang sochlari jingalak qilingan, qora, lekin o'sib ketmagan "qaldirg'och" qoshli, katta-katta havo rang yoki yashil ko'zli, bo'rni ixcham va to'g'ri, kichkina qo'lib turuvchi og'zi, qalin lablari va dahanida chuqurchasi bo'lgan ayol urfda bo'lgan. Ayol go'yo yangi uzulgan shaftoliga o'xshashi kerak bo'lgan. Mazkur go'zallik timsoli ziddiyatli bo'lgan: tana go'zalligini ta'riflash gunoh hisoblangan, shu bilan birga kostyum uni ko'rsatib turgan.

Etiket bo'yicha ayollar yurganda ko'zlarini erga qaratib, boshini biroz yon tomonga egib, mayda qadamlar bilan yurishi kerak bo'lgan. Ayol qo'yilagini erda sudramay, qo'llarining nozik harakatlari bilan etagini ko'tarib olishi zarur bo'lgan va H.k.

Ichki kiyim kotta va kamizadan iborat bo'lgan. Birinchisi-pastki-ko'ylak-kamiza tor va uzun yengli tor va uzun ko'ylakdir. Oddiy odamlarda kamiza bir vaqtning o'zida ustki kiyim ham hisoblangan. Ikkinchisi-ustki-ko'ylak-kotta-hamayog'i berk tor lifli bo'lgan. Ko'ylakning yuqori qismi yon yoki orqa tomonidan kanop bilan bog'langan. Ko'ylak yon tomonga solingan qo'shimcha hisobiga keng va uzun bo'lgan, yubkasi va uzun englarning ichida konussimon kengaygan manjetelari qilingan ko'ylak ustidan uzun va engsiz syurko kiyganlar. Syurko o'miz va kesik joylari bo'ylab mo'yna bilan bezatilgan.

Ustki kiyim. Ayollarning ustki kiyim sifatida uzun va keng, old tomondan tugmalanmaydigan plashch bo'lib, uning turli uzunlikdagi osilib turuvchi keng yenglari bo'lgan.

Ranglar. Katta to'qimachilik fabrikalarining paydo bo'lishi, rang ishlab chiqarishning takomillashuvi, chetdan keltirilgan bo'yoqlarning paydo bo'lishi va buning natijasida yorqin rangdagi matolarning ko'payishiga qaramay, oddiy xalqning kiyimida, ilgariidek, kulrang va jigarranglar ustunlik qiladi.

Kiyimdagi kontrast ranglar haddan tashqari dekorativlik taasurotini tug'dirar edi.

Matolar. Ayollar kostyumida zig'ir, ipak, jun matolar, parcha va duxoba ishlatilgan.

Bosh kiyim. Oilali ayollar boshlarini qimmatbaho yopinchiqlar bilan bekitganlar. Yopinchiq ostidan eng keng tarqalgan ayollar bosh kiyimi-barbet kiyganlar. U kichikroq ro'mol bo'lib, dahanni berkitib turgan, ro'molning uchlari boshning ustida boylangan.

Yana bir bosh kiyimi-gorj-ayollar ro'molidan iborat bo'lib, truba shaklida tiqilgan, uchlari kengaytirilgan va orqa tomonda kesigi bo'lgan. Oilali ayollar gorjni ro'mol bilan birga kiyganlar.

Yopinchiqlar ham ramziy ma'noga ega bo'lgan. Masalan, g'amchinlik faqat kiyim rangida emas, yopinchiq holati orqali namoyon bo'lgan, bu holda yopinchiqni yuega tortib qo'yilgan.

Ayollar kechki ko'ylaklar bilan salla ko'rinishidagi tyurban qo'yilgan.

Qizlar sochlarini o'rganlar va quloqlari ustiga "qo'y shoxi" ko'rinishida turmaklanganlar. XIII-asrgacha kalta sochlar qullik va benomkslik belgisi hisoblangan.

Pardoz-andoz buyumlari. Rim imperiyasi tugashi bilan gigiena va pardoz-andoz buyumlarining quyoshi botdi.

Go'zallikdan, binobarin, pardoz-andoz buyumlari va gigienadan voz kechish o'rta asrlar davrining o'ziga xos belgilardir. O'rta asrlar davrida vabo, o'lat kabi kasalliklar ko'payadi. Pardoz-andoz buyumlari cherkov tomonidan mann kilinadi. Suv kasallanish, epidemiyalar paydo bo'lish man'bai deb e'lon qilinadi. Odamlar kam cho'milar edilar. Suv qimmat edi.

Bezaklar. Ayollar ro‘mollari ustidan bezatilgan gardishlari-templetlar-kiyganlar, ular quloqlar usti dumaloq shchitgalar ko‘rinishida bo‘lgan.

Ayollar oltin zanjirlar, halqa uzuklar, ziraklar, diademalar, qo‘l va oyoqlariga bizakuzuklar taqanlar.

Qo‘shimchalar. Ko‘ylak tagidan polotnodan qilingan korset (fransuzcha sochyu-badan degani) kiyganlar.

Leonardo da Vinchining mashhur “Gornostayli xonim portreti” biegacha o‘rta asr go‘zallaridan birining jamolini etkazdi. U vaqtlarda zodagon xonimlar burgalarni xaydash maqsadida bellariga “burga mo‘ynasi” degan narsani boylaganlar.

Xudi shu maqsalarda ular yelkalariga gornostay mo‘ynasini tashlab qo‘yganlar, ba‘zilari esa qo‘llarida gornostay, xoryok, laska, sobol yoki kunitsa ko‘tarib yurishga odatlangan. Bo‘lar burgalar uchun tirik qopqonday edi. Xayvonni bo‘yniga oltin zanjir kiygazib bezaganlar.

Poyabzal. Ayollar poyabzalining uchi biroz o‘tkir bo‘lgan. Poyabzal zich qimmat matodan yoki rangli yumshoq charmdan tagini yumshoq qilib ishlangan. Ayollar poyabzali erkaklarnikiga o‘xshab ketgan.

Gotik aristokratik moda. Burgund modasi.

Burgund saroyi Yevropadagi eng boy saroylardan biri. Burgund saroyining modalari-go‘zallik va nafosat etaloni. XIV - XV-asrlar davridagi modalar saroy qoshida burgund modalarining nomlari bilan ataladi.

Fransuz saroyida kostyumlarning tez almashinuvini hisobga olib, kostyum tarixidagi bu davrni “modalar karnavali” deb ataladi.

G‘aroyibli, siluetning uzaytirilganligi, kostyum yo‘llarining nafizligi burgund modalarining o‘ziga xos tomonidir.

Kech o‘rta asrlar davrida kostyumda sinfiy farqlar mavjud edi. Shakllarning xilma-xilligi, matolarning rang-barangligi, ekstravagantlik, kostyumni bilan boy byurgerlar va feodallar imtiyozi bo‘lganligi ma’lum.

Bu, har galgidek, bunday kiyimni katta gunoh hisoblaydigan axloq qo'riqchilari (ruhoniylar) yashirilmaydigan norozilikka sabab bo'ladi va mazah qilish uchun bahona bo'lib xizmat qiladi.

Shu Bilan bir vaqtda oddiy odamlar kiyimida ilk o'rta asrlar davridan boshlab qat'iy qiyofa o'egarishsiz saqlanib qoladi.

Burgundiya gersogligi siyosiy va madaniy jihatdan urushlar tufayli kuchsizlanib qolgan Fransiyadan ustun edi. Bu gersoglik fransuzlar tomonidan yaratilgan shakllarni mukamallikka etkazdi. Bu davr kostyumi feodallar davrasida yaratildi va mehnatni mensimaslikni ta'qidlab turar edi. Burgund modasi taklid qilish uchun namuna bo'lib, butun Yevropaning xayratlanishiga sabab bo'ladi. Bir vaqt kiyiladigan kiyimlar soni oshadi.

8. Erkaklar kostyumi. Kamiza ilgarigidek ichki kiyim hisoblanadi. Urfda kalta purpuan, ilgarigidek, unga ishton-paypoq bog'lab kuyilardi. Purpuan ustki kiyim bo'lib ham xizmat qilishi mumkin edi. Agar oyoq kelishgan shaklda bulmasa, paypoqning ichidan pakladan yasalgan astar kuyib tiqilgan va shu uyl bilan oyoqning shaklini to'g'rilangan.

O'sha davr yangiligi-jaket, oldi tugmalanmaydigan, tikka yoqali, beli tarang tortilgan, buklovlari bo'lgan va son tomonga kengayib borgan (XV-asr o'rtasigacha jaket bel qismida kesib tikilmagan) xashamdor yubkali va jigo-yengli kalta kiyim.

Syurko o'rnini uzun (etaklari ba'zan polda sudralib yurgan) upeland egalladi.

Upeland yenglari pastga tomon 3 m gacha kengaytirilgan bo'lib, yelka qismida torayib borgan. Upeland dumaloq yoqali bo'lgan (kish vaqtida unga mo'yna qoplangan). Pastda upeland eni 7 m gacha etgan. Ba'zan u boldir o'rtasigacha qisqartirilgan.

Uzun kiyimlarning Yana bir turi – robdir. Rob – yoqasining oldida old yoki tomonidan kichikrok kesik qilingan ustki tashlab kiyiladigan kiyimdir. Rob belbog' bilan bog'langan, tikka yoqasi va jigo yenglari bo'lgan.

Birinchi marta yelka tomonda yoqa ostiga tiqilgan shleyf paydo bo‘ladi. Rob nihoyatda urfdagi kiyim bo‘lgan.

Ustki kiyim. Ustki kiyim turli-tuman plashchlardan iborat bo‘lgan. Pastki qismining eni 4 m ga etadigan, mo‘ynali dumaloq yelkapush-yoqali bo‘lgan plashchlarni zodagonlar kiygan.

Kullarini chiqarish uchun kesiklar qilingan kapyushonli kalta plashlar satanglar kiyimi bo‘lgan.

Yorqin ranglar bilan bir qatorda kostyumda tuklashtirilgan va tuk ranglar, masalan, sariq-kungir ranglar paydo bo‘ladi.

Matolar. Barcha buyumlar qimmatbaho matolardan-ipak, duxoba, jun, parchadan tiqilgan. Kamiza yupka polotnodan tiqilgan.

Eng keng tarqalgan bosh kiyimi bilan bezatilgan yelkapushli kapyushon bo‘lgan. Kapyushon ko‘pincha plashchga tikib qo‘yilgan. Zodagonlar ilgarigidek chepets kiyganlar, cheps ustidan esa fetr yoki movutdan ishlangan, chetlari buqilgan yoki buklanmagan, shakli buyicha kesik konusli eslatuvchi kalpok kiyganlar.

Turmaklar. Turli-tuman turmaklar: yelkagacha tushib turadigan lokonlar ham, kalta sochlar ham urfda bo‘lgan.

Erkaklar fibulalar, qimmat bezatilgan belbog‘lar, uzuklar, taqqanlar.

Qo‘shimchalar. Belbog‘ga nafis naqshlar bilan bezatilgan, metall qoplangan, tikib gul solingan, parcha yoki charmdan ishlangan karmon maxkamlangan, shuningdek, belbog‘ga zanjir bilan xanjar osilgan. Yelka Osha utgan kamarga kuchkor shoxi osilgan. Xassa va qo‘lqoplar kostyumga qo‘shimcha bo‘lgan. Faqat ov vaqtida qo‘lqopni ikkala kulga takkanlar. Cherkovga kirish oldida va raks paytida qo‘lqopni echganlar va belbog‘ga kistirib olganlar. Boshqa paytlarda esa bitta chap qo‘lqopni kiyganlar, ungini qo‘lda ushlab turishgan.

Poyabzal. Dastlab uchi utkir poyabzalni fakirlar urfga kiritganlar, bu bilan ular mexnatga daxlsiz ekinliklarini ta’kidlaganlar. Bunday poyabzal pumna deb nomlangan. Poyabzalning uch tomoni 50 sm ga, ba’zan bir

yarim metr uzunlikka etgan. Poyabzalning bo'sh uchini paklya bilan to'ldirganlar, ko'pincha yurish vaqtida uchini oyoqning yuziga bog'lab kuyganlar. Ov vaqtida yoki otda yurilganda yumshoq charmdan tiqilgan baland etiklar kiyishgan. Boshmoklar ba'zan oyoqning yuzi buylab kesilgan bo'lgan. Poafzal chetlari buklanadigan, bog'lanadigan, kanopli, tugmachali, turli-tuman ranglarda, qimmat bezatilgan bo'lgan. Lekin ko'proq xavorang va qizil rangdagi poafzal uchragan. Cherkov tuflilarning uzun uchlarini **ketiga** tushib, ularni belgilangan ulchamgacha kesishga majbur qilardi. Poafzal egasining mavqei kancha baland bo'lsa, poafzalning uchi ham shuncha uzun bo'lgan.

Ayollar kostyumi. Ingichka yelkalar, ko'ylakning belini yuqori qilib olish keng bulmagan uzun yubka, baland bosh kiyimi bilan uzaytirilgan siluet taasuroti yaratilgan. Butun siluet S-simon ko'rinishga ega bo'lgan Go'zallik timsoli. Ayol nozik ko'rinishda, tor kiya yelkali bo'lishi, lekin eng muhimi-peshonasi keng bo'lishi zarur bo'lgan.

Ichki kiyim ikkita ko'ylakdan iborat bo'lgan. Birinchisi- ichki- tunika. Ikkinchisi- ustki- kotta.

Ichki kiyim yana ham torroq bo'lib qoldi. Lifning yonlari, old tomoni, tor englar buylab kesiklar kilingan, ular kanoplar bilan tortib bog'langan yoki tugmalangan.

Ichki kiyim ustidan ustki ko'ylak-rob kiyilgan. U bel qismi yuqoriroq olinib, tikib ulangan, ko'krak ostida tortib bog'langan, old tomonidan biroz kaltalattirilgan keng bulmagan yubka, orqa tomonida esa-shleyf bo'lgan kiyimdir. Shleyfning uzunligi ega ijtimoiy axvoliga bog'liq bo'lgan va qonun tomonidan juda qattiq chegaralangan. Masalan, qirolichaning shleyfi un bir tirsak bo'lishi mumkin; malika, gersoginyaniki- sakqiz tirsakdan oshmasligi kerak va x.k. Jamiyatdagi mavqei kancha baland bo'lsa, shleyf shuncha uzun bo'lishi mumkin. Cherkov ularni «shayton dumlari» deb ataganlar va doimiy ravishda ular bilan kurash olib borgan. Belgilangan chekni bo'eganligi uchun qattiq jazo berilgan- bundaylarni cherkovdan

chetlatilgan. Italiyada ulchov toshi urnatilgan bo'lib, kurikchi shleyfning ortiqchasini qilich bilan kesib tashlangan. Ko'ylakda orqa va old tomonida uchburchak shaklda chukur dekolte bo'lgan. Dekolte boshqa mato bo'laklari bilan bekitilgan. Ko'pincha ko'ylak etagi va dekolte kesigining chetlariga sobol, garnostay, mo'ynasi qoplangan. Ko'ylak matosiga gul solingan, dvoryan ko'ylaklari o'zining oilaviy gerblari bilan bezatilgan. Yenglari kul uchini berkitib turgan. Rob so'zi fransuzchada shleyfli uzun ko'ylak deganidir.

O'rta asrlar davri-epidemiya, ulat va vabo davridir. Ko'pdan-ko'p urushlar va kasalliklar orqasida aholining 80%i ulib ketadi. Xomilador ayol urfga kirgan. Ayollar korinlariga ko'ylaklarining ustidan – bas- kavilgan kichina yostikchalarni kuyib oladilar. Ularning Yana bir foydasi bor yostik boylanganda ko'ylak bel qismida kutarilgan bo'ladi, etikni har tomondan yiggandan kura bu axvolda uni kulning nozik harakati bilan yigib olish kulayrokdir.

Ustidan syurko kiyganlar, u uzunligi son soxasigacha bo'lgan nimcha tipida bo'lib, avvalgilardan kaltarok bo'lib qoladi. Syurko katta o'mizlari bo'lgan, ular orqali qomat ning shakli ko'rinib turgan. Cherkov bu o'mizlari do'zax tuynuklari degan nomdan boshqa nom bilan atalgan. Syurkoning yelka qismi uzaytirilgan, ya'ni, shleyfli bo'lishi mumkin bo'lgan.

Ustki kiyim. Old tomondan tugmalanadigan plashch urfga kiradi.

Ranglar. uk va bosik ranglar urfga kirdi.

Yashil-umid rangi. Kelinlar yashil ko'ylaklar kiyardi.

Matolar. Kiyim tikishda ipak, parcha, tafta, duxoba, elastik movut, sharlax kabi matolar ishlatilgan. Germaniyadan keltirilgan zig'ir asosli mato ishlatilgan. Turkiya, Shark mamlakatlari, Mugiliston va Ispaniyadan maxalliy modelerlarning tasavvurini boyitish maksadida Yangi fasonlar va garoyib matolar keltirilgan.

Bosh kiyimi. *ennen* degan bosh kiyimi urfda, u baland (xonadan chiqayotganda o'tirishga majbur bo'lgan) va konussimon bo'lgan. Avvaldek, yana uning balandligi qonun bilan cheklangan. Eng uziga jalb kiluvchi bosh kiyimi «kapalak» bo'lib, kapalak kanotlari shaklida simdan yasalgan inshoot ko'rinishidagi karkas bo'lgan, uning ustiga vual maxkamlangan. Valiklar sochga buqilgan valik kiyganlar va unga nafis tur koplaganlar. «Qutichalar»- boshga qutichalari bo'lgan chambarak kiyganlar, qutichalar huddi kulokning tepasiga to'g'ri kelgan. Chakkalardagi sochning jingalaklari shu qutichalarga yig'ilgan.

«Shox» - boshga shox ko'rinishidagi bosh kiyimi kiyilgan, u nafis murakkabligi bilan ajralib turgan. Bosh kiyimi ustida vual tashlangan. Ilgarigidek, gorj kiyilgan.

Turmaklar. Turmakning go'zalligi uz ahamiyatini yo'qotadi. Bo'yinni uzunrok ko'rsatish uchun ayollar ensa tomondagi sochni ikki barmok qalinligida kirib tashlaydilar. Moda peshonaning keng bo'lishini talab qilardi. Shu maksadda peshona tepasidagi sochni ikki barmok qalinligida kirib tashlaydilar va qoshlarni teradilar. Ayollar aqidalari ta'sirida sochlarini bosh kiyimi tagiga berkitishga majbur edilar. Hammomchilar bir vaqtning uzida sartarosh ham edi- ularni siryulnik deb atardilar. Ular soch-soqol olardilar, zuluk kuyishlari va Tish olishlari mumkin edi. U vaqtlarda bosh kiyimlarning turlari ko'p bo'lgan, shuning uchun tarix o'sha davr turmaklarini deyarli bilmaydi.

U davr nafosati va nozik didi quyidagilar bilan ifodalangan: bo'yincha taqilgan vazmdor zanjirlar; barmoklarda 20 tagacha xalqalar; ayol qo'lida hamma vaqt silkitish uchun burchagida oltin yurakcha tasvirlangan dastro'mol bo'lgan; bo'yinda deqorativ belbog'lar; turli kamarning nafis belbog'ga deqorativ bezatilgan kuzgu, mumdan ishlangan tumor maxkamlangan; Tish tozalagich karchigayning tilla qoplangan tirnogi; kungirokchalar; mo'yna koplamlar; urfga kirgan oltin va kumush iplar bilan tiqilgan, nafis flamand gullari solingan qimmatbaho guldor matolar.

Dehqonlar kiyimi butun oʻrta asrlar davomida oʻegarmagan. U uz shaklini saqlab qoldi, bu shakllar kiyimning mexnatga moslanganligini koʻrsatar edi.

Erkaklar kiyimi ilgariidek, dagʻal koʻylak, ishton va plashchdan iborat edi. Oyoqqa kigizdan, charmdan tiqilgan yarim etiklar yoki etik, yoki yogʻoch boshmok kiyilgan.

Ayollar uziga uzun boʻlgan, tovonigacha tushib turadigan yubkalar, kalta boshlariga esa chepets kiyganlar. Kiyim tikishda dagʻal movut, sifati past zigʻir ishlatilgan.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Tarixiy davr xususiyatlari tugrisida gapirib bering.
2. Gotik uslubdagi etakchi sanʻan turlaridan kaysi birini bilasiz? U tugrisida gapirib bering.
3. Gotik va gotik uslublarning farkli jixatlari nimalardan iborat?
4. Kaysi mamlakat oʻrta asrlarning klassik mamlakati xisoblanadi?
5. Rivojlangan oʻrta asrlar davridagi erkaklar kostyumi xakida gapirib bering.
6. Kaysi davrda bichish asoslari va tikish texnikasi tugilgan?
7. Kaysi vaktida vitochka, yoka, tugmalash paydo boʻlgan?
8. Oʻrta asrlar davrida ayol goʻzalligining ideali xakida gapirib bering.
9. Burgund modalari Kim uchun yaratilgan edi?
10. Burgund modalarining uzida xos belgilarini ayting.
11. Burgund modalari davrida kandy matolar ishlatilgan?
12. XV-asr ayollar kostyumida kandy Yangi detallar paydo boʻladi?
13. XV-asrdagi shleyflarni cherkov kandy atagan?
14. XV-asr ayollarda kandy bezaklar boʻlgan?